turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish xizmatlar sifatini ko'tarishning asosiy omili. Hozirgi kunda mamlakatimizda turistik xizmatlar bozorini imkoniyatlar darajasida kengaytirishni tarmoqda innovasion faoliyatni jadal rivojlantirishdan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi[26].

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash hamda uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida muzeyshunoslik sohasida ham islohotlar jadal olib borilmoqda. Virtual muzeylar borasida faqatgina «Harakatlar strategiyasi» doirasida huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular haqida qisqacha to'htalib o'tamiz.

Jumladan, 2017-yil 6-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasining qarorida[27] O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida muzeyga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda mavzuga oid virtual ekskursiyalar tashkil etish, Muзей ekspozitsiyalarida zamonaviy axborot kiosklarini o'rnatish hamda virtual muzeyni tashkil etish choralari ko'rish vazifa etib belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-son Qarori[28] 1-son ilovasining «2017 — 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari rejasi»da «Virtual muzey» loyihasini amalga oshirish ham belgilangan.

2020-yil 23-maydagi Vazirlar Mahkamasining jahon hamjamiyatida O'zbekiston Respublikasining ijobiy imidjini shakllantirish va mustahkamlash, respublikaning muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosini keng targ'ib qilishga oid qarorida «Jonli muzey» loyihasini amalga oshirish belgilangan[29].

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni[30] 1-ilovasida «virtual muzey», «raqamli muzey» loyihalarini amalga oshirish belgilab berilgan.

Ta'kidlab o'tilgan hukumat farmon va qarorlari asosida virtual muzeylar yaratilib keng omma uchun taqdim etilmoqda. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

2019-yilda Samarqandda Markaziy Osiyodagi yagona Smart-muzeyi[31], 2019-yil may oyi boshida SmartChain Ichan-qala muzey-qo'riqxonasida ikkinchi aqlli muzeyi[32], 2020-yil yanvarda Temuriylar tarixi davlat muzeyida Smart-texnologiyalari[33], O'zbekiston tarixi davlat muzeyida Nazzar – innovasion ilovasi joriy qilindi[34].

2020-yil 21-fevralda Madaniyat vazirligida «SmartChain» mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan MDH davlatlari madaniy merosi virtual muzeylari konsepsiyasi loyihasining taqdimoti o'tkazilgan. Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan hozirgi davrda uning imkoniyatlaridan unumli

foydalanish davr talabi. Virtual muzeylar konsepsiyasi ham mazkur yondashuv asosida yaratilgan[35].

2020-yil 28-fevralda Minsk shahridagi MDH Ijroiya qo'mitasida «MDHga a'zo davlatlar madaniy merosi virtual muzeyi»ni ishlab chiqish maqsadida ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tgan. Unda Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston vakillari ishtirok etishgan[36].

Ekspertlar O'zbekiston vakillari tomonidan bildirilgan yagona Internet-portalini yaratish tashabbusini qo'llab quvvatladi, virtual muzeylar konsepsiyasi loyihasini yuqori baholashdi.

2022-yil 23-yanvarda Jizzaxda elektron muzey o'rnatildi[37]. Unda Smartfon orqali «NazzAR» belgisiga yo'naltirilganda mobil qurilma ekranida real obyektlarning 3D shakllari, video rolidlari, suratlar jonlanadi.

O'zbekistonda ham 20 ga yaqin virtual muzeylar yaratilgan bo'lib, muzeylarga onlayn sayohat qilish imkoniyati yaratilgan[38].

Hozirgi vaqtda muzey pedagogikasi bo'yicha tadqiqotlarga katta e'tibor berilmoqda, lekin asosan an'anaviy ta'lim shakllari: ekskursiyalar, teatrlashtirish elementlari bilan to'garak va to'garak mashg'ulotlari ko'rib chiqilmoqda.

Shuningdek, muzeylar o'z kolleksiyalarini puxta ishlab chiqilgan va izchil taqdimotlarda ommaga ochiq qilib, ommaga taqdim etayotgan ta'lim tajribalari orqali madaniy merosni abadiylashtirishning muhim missiyasini bajaradi. Maktablar muzeylar bilan madaniy asrab-avaylash missiyasini baham ko'radi va ularni yosh fuqarolar uchun samarali ta'lim tajribasini rivojlantirishda tabiiy hamkorlarga aylantiradi. Virtual muzeylarni sinfda o'rganish loyihalari sifatida yaratish yangi raqamli media, World Wide Web va multimedia muallifliklaridan foydalanadigan rivojlanayotgan maktablar tomonidan o'rganilgan strategiyalardan biridir.

N. B. Kirillova, P. A. Lyapustinalar virtual muzeyni muzey pedagogikasi istiqbollari kontekstida kommunikativ madaniyatning yangi modeli sifatida ko'rib chiqishgan[39].

O'tkazilgan tadqiqot virtual muzeyni kommunikativ madaniyatning yangi modeli sifatida o'rganishning keyingi yo'llarini va uning muzey pedagogikasini media ta'limning muhim tuzilishi sifatida keyingi rivojlanishiga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam berishi haqida xulosaga kelishgan.

Xulosa (Conclusion)

Shunday qilib, Virtual ta'lim muhitidagi, xususan virtual muzeylardagi faoliyati barkamol shaxsni shakllantirish va tadqiqot ko'nikmalarini oshirish uchun bilim olish uchun muhimdir. Ilmiy - tadqiqot ishlari rivojlanayotgan, tarbiyaviy, vatanparvarlik, kommunikativ, madaniy va ma'rifiy, o'qitish, motivatsion imkoniyatlarga ega, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rag'batlantiradi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida muzeyshunoslik sohasidagi islohotlar tadrijida huquqiy-me'yoriy hujjatlar «Virtual muzey», «Jonli muzey», «Raqamli muzey» loyihalariga faqatgina 2017-2021-yillarga mo'ljallangan «Harakatlar strategiyasi»dan boshlab alohida e'tibor qaratilgan.

Muzey va axborot fanlari adabiyotida muzey bilan bog'liq raqamli axborot resurslari uchun sinonim sifatida turli xil atamalar qo'llaniladi, masalan elektron muzey, raqamli muzey, onlayn muzey, gipermedia muzeyi, meta-muzey, veb-muzey va kiberfazo muzeyi. Bu atamalarning barchasi

raqamli muzey ma'lumotlari kontseptsiyasini baham ko'radi, ular onlayn foydalanish mumkin bo'lgan kolleksiyada birlashtiriladi.

Virtual muzeylar juda ko'p afzalliklarga ega, ammo kamchiliklar ham mavjud: «sayohat qilish» paytida foydalanuvchi ko'plab tegishli ma'lumotlarga duch keladi; jonli aloqa yo'q; ulanish tezligi va kompyuter dasturlari zaif bo'lishi mumkin, Internetdan cheksiz foydalanish insonning ish faoliyatini pasaytiradi, odam ozgina his-tuyg'ularni namoyon qiladi, kompyuterda uzoq muddatli ishlash ko'z, miya va umurtqa pog'onasi kasalliklariga olib keladi. Virtual muzeyni zamonaviy madaniyat hodisasi sifatida ko'rib chiqish axborot texnologiyalarining ijtimoiy-madaniy makoniga ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekistonda 2019-yilda Amir Temur maqbarasi va Ichan-qala muzey-qo'riqxonasida Smart-muzeylari ochilgan, 2020-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi va O'zbekiston tarixi davlat muzeyida Nazzar – innovation ilovasi, 2022-yilda Jizzaxda «NazzAR» startap loyihasining elektron muzeyi o'rnatilgandi. 2020-yilda «MDHga a'zo davlatlar madaniy merosi virtual muzeyi» loyihasi ishlab chiqilgan hamda 20 ga yaqin virtual muzeylar platformasi yaratilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati (Reference):

1. Bashaer Jamal Ahmad Mohammad Yateem. Virtual Museums Technology: A Case Study in the UAE Museums (A dissertation submitted in fulfilment of the requirements for the degree of MSc IT MANAGEMENT at The British University in Dubai) Dr. Khaled Shaalan. October 2017. -P.20.
2. Кучурин В.В. Виртуальная музейная педагогика: современные возможности и перспективы// ГОУ ЦПКС ДППО «Научнометодический центр» Красногвардейского района (Каталог виртуальных музеев).
3. Ходжыев В. Мuzey pedagogikasi: taraqqiyot tarixi va istiqboli// PEDAGOGIKA (Ilmiy-nazariy va metodik jurnal) 2016, 4-son. -B.18-19.
4. Povroznik N. (2016) Typology of Virtual Museums and Their Potential for Providing Information for Historical Sciences. In Proceedings of the International Conference "Electronic Imaging & the Visual Arts, EVA-2016». 23-24 June, 2016. St.-Petersburg. , 2016. pp. 61-65.
5. Пугач О.В. Музейная педагогика: проблемы и перспективы развития//Вестник Донецкого педагогического института № 2 2017. -С.178-185.
6. https://themuseumreviewjournal.wordpress.com/2019/08/02/tmr_vol4no1_schweibenz/21.11.2023
7. Абзалова А. А. Виртуальный музей в докомпьютерную эпоху// Вопросы музеологии 2 (16) / 2017. -С.13.
8. <https://studentopedia.ru/kulturologiya/tehnologii-sozdaniya-virtualnogo-muzeya---razrabotka-virtualnogo-muzeya-igrovoj-industrii.html/murojaatsanasi.22.03.2024>.
9. <https://karpinsktower.ru/work/что-такое-виртуальный-музей/23.10.2013>
10. Калугина Т. П. Художественный музей как феномен культуры. СПб., 2008. -С.222.
11. Goldstein B. Audience survey of museums at the beginning of 2005 // Culture and communication. Proceedings of the XIX Congress of International Association of Empirical Aesthetics. – Avignon: IAEA, University of Avignon, 2006/ –pp. 39–41.

12. Василина Д.С. Виртуальный музей как феномен современной культуры // Международный журнал исследований культуры. 3 (24) 2016. -С.96-102.
13. Atamuratov R.K. The importance of the virtual museums in the educational process// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 2, 2020 Part II. - P.89-93.
14. <https://pedsovet.org/article/8-virtualnyh-muzeev-kotorye-mozno-posetit-ne-vyhoda-iz-klassa/15.01.2024>
15. Yuri Polak. The History of Computers and Computing in Virtual Museums. 1st Soviet and Russian Computing (SoRuCom), Jul 2006, Petrozavodsk, Russia. pp.201-207, 10.1007/978-3-642-22816-2_24hal-01568387
16. Melchior M (2014) Fashion and the Museums. In: Melchior M, Svensson B (Eds.), London: Bloomsbury, UK.
17. Moscati P (Eds.) (2007) Virtual Museums and Archaeology: The Contribution of the Italian National Research Council. Firenze, Italy: Italian National Research Council.
18. Clark J (2014) Exhibiting Fashion: Before and After 1970. New Haven and London, Yale University Press, UK.
19. Christine Castle M., Ph.D. Presented at the Ontario Museum Association's Colloquium on Learning in Museums VII in Peterborough, Ontario on October 20, 2004. www.museumsontario.com.
20. Bashaer Jamal Ahmad Mohammad Yateem. Virtual Museums Technology: A Case Study in the UAE Museums (A dissertation submitted in fulfilment of the requirements for the degree of MSc IT MANAGEMENT at The British University in Dubai) Dr. Khaled Shaalan. October 2017. - P.17-19.
21. Баранюк М. Виртуальный музей – феномен современной культуры // VINCHI INTERACTIVE. URL: <https://vinchi-interactive.ru/blog/virtualnyiy-muzej-sovremennyiy-fenomen-kulturyi.html> (дата обращения: 20.02.2021).
22. Taranova T.N. Virtual Museum Technologies and the Modern Educational Process (VI International Forum on Teacher Education) Proceedings IFTE-2020, 2513-2521 doi:10.3897/ap.2.e2513
23. Леонов А.В. Виртуальный музей науки и техники: настоящее и будущее// Вопросы истории естествознания и техники. 2015. Т. 36. № 4. С. 783–795.
24. Максимова Т.Е. Виртуальные музеи: Функция сохранения «Современности»//Культурология. № 7 (33) 2013, часть 2. -С.89-90.
25. Қажумова Ш. Музейлар ва замонавий технологиялар// Moziydan sado. 1(57)2013. -Б.10.
26. Миралиева Ш. А. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истикболлари. Тарих фан. бўйича фал. докт. (PhD) дисс...авт.-Т.: 2019.
27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 891-son qarori

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi “2017 — 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son Qarori
29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 325-son qarori
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoni
31. https://www.xabar.uz/uz/texnologiya/samarqandda-markaziyo-osiyodagi-yago/murojaat_sanasi/04.06.2024
32. <https://www.spot.uz/ru/2019/04/23/smart-museum/25.05.2023>
33. Ўз Р ФА Темурийлар тарихи давлат музейининг 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси доирасида амалга оширилган ислохотлар бўйича маълумотномаси
34. Ўз Р ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейининг жорий архиви (Ўз Р ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейининг 2022 йил Ҳисоботи)
35. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/madaniyat/virtual_muzeylar_konepiyasi_taqdim_etildi.html/murojaat_sanasi/04.06.2024
36. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/madaniyat/mdhga_azo_davlatlar_madaniy_merosining_virtual_muzeyi_yaratiladi.html murojaat_sanasi/04.06.2024
37. <https://oz.sputniknews.uz/20220123/jizzaxda-elektron-muzey-ornatildi---foto-22338227.html/31.05.2024>
38. <http://360.vrmuseum.uz/museum5>
39. Kirillova, N. B., & Lyapustina, P. A. (2023). Virtual museum as a new model of communicative culture and museum pedagogy prospects. *Perspektivy nauki i obrazovania – Perspectives of Science and Education*, 63 (3), 662-675. doi: 10.32744/pse.2023.3.40

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna

Associate Professor at Navoi State Pedagogical Institute

Published under peer review:

Doctor of Science in Philosophy, Professor

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich,

Uzbekistan

Received 4th July 2024, Accepted 11th July 2024, Online 20th August 2024

THE PLACE OF THE DEVELOPMENT OF THE CULTURE OF YOUTH INTERACTION IN THE FAMILY IN THE SYSTEM OF MORAL VALUES

Abstract. In this article, ethical processes aimed at developing the culture of behavior of the Uzbek youth in society, philosophical thinking issues arising as a result of spiritual growth are scientifically researched. In order for young people to grow up with high spirituality, it is important to first of all be enlightened, intelligent and knowledgeable, as well as to have a deep understanding of the relevance of the culture of behavior and the things and events in reality. The development of young people, assimilation of examples of high moral culture left by their ancestors, is characterized by the rich history left by ancestors, the strengthening of moral values that have been updated over the centuries, and the honoring of national values. Today, it is important to be aware of the ideas of the world of various ideologies, which influence the change of the culture of behavior of young people in society, to preserve the identity of the nation. It is necessary to connect moral values with the experience of centuries with nationality in the philosophical mind of young people through the culture of treatment, to inculcate the world of spirituality in real life into the worldview of young people. The role of the family in bringing moral attitudes to the culture of behavior in society to a new level in young people is considered important. These aspects are covered philosophically in the article, and issues of developing a culture of behavior based on moral values that are compatible with nationalism are revealed.

Key words: Society, Uzbek people, behavior culture, moral values, social development, national values, traditions, culture, gender, spirituality, philosophical research.

OILADA YOSHLAR MUOMALA MADANIYATI RIVOJLANISHINING AXLOQIY QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RN

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqi yoshlarining jamiyatdagi muomala madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan axloqiy jarayonlar, ma'naviy yuksalish natijasida vujudga keladigan falsafiy tafakkur masalalari ilmiy tarzda tadqiq etiladi. Yoshlarning yuksak ma'naviyatli

bo‘lib voyaga yetishida birinchi galda ma’rifatli, zukko va bilimdon bo‘lshi bilan bir qatorda muomala madaniyatining dolzarbligi, voqelikdagi narsa va hodisalarni chuqur anglashi muhim sanaladi. Yoshlar ib yetishishi, ajdodlaridan qolgan yuksak axloqiy madaniyat namunalari o‘zlashtirishi falsafiy unyoqarashning shakllanishida ajdodlardan qolgan boy tarix, asrlar davomida yangilanib kelgan axloqiy qadriyatlar o‘zining mustahkamlanib borganligi, milliy qadriyatlarni e‘zozlashi bilan xarakterlanadi. Bugun yoshlarning jamiyatdagi muomala madaniyatini o‘zgartirishga ta’sir qilayotgan xilma-xil mafkuralar dunyosi g‘oyalaridan ogoh bo‘lish, millatning o‘zligini asrash muhimdir. Asrlar tajribasiga ega axloqiy qadriyatlarni yoshlar falsafiy ongida muamola madaniyati orqali milliylik bilan bog‘lash, real hayotdagi ma’naviyat dunyosini yoshlar dunyoqarashiga singdirish axloqiylikni talab etadi. Yoshlarda jamiyatdagi muomala madaniyatiga bo‘lgan axloqiy munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishda oilaning roli muhim sanaladi. Ushbu jihatlar maqolada falsafiy tarzda yoritilib, milliylikka uyg‘unlashgan axloqiy qadriyatlar negizida muomala madaniyatini rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, o‘zbek xalqi, muomala madaniyati, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot, milliy qadriyatlar, an’analar, madaniyat, gender, ma’naviyat, falsafiy tadqiqot.

МЕСТО РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МОЛОДЕЖИ В СЕМЬЕ В СИСТЕМЕ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье научно исследуются этические процессы, направленные на развитие культуры поведения узбекской молодежи в обществе, вопросы философского мышления, возникающие в результате духовного роста. Чтобы молодые люди выросли высокой духовностью, важно, прежде всего, быть просвещенными, умными и знающими, а также иметь глубокое понимание актуальности культуры поведения и вещей и событий в действительности. Развитие молодежи, усвоение образцов высокой нравственной культуры, оставленной предками, характеризуется богатой историей, оставленной предками, укреплением моральных ценностей, обновлявшихся на протяжении веков, почитанием национальных ценностей. Сегодня важно быть в курсе представлений мира о различных идеологиях, которые влияют на изменение культуры поведения молодежи в обществе, для сохранения идентичности нации. Необходимо через культуру обращения связать моральные ценности с многовековым опытом с народностью в философском сознании молодежи, привить мир духовности реальной жизни в мировоззрение молодежи. Важной считается роль семьи в выведении нравственных установок, культуры поведения в обществе на новый уровень у молодежи. В статье эти аспекты освещены философски, а также раскрыты вопросы формирования культуры поведения, основанной на моральных ценностях, совместимых с национализмом.

Ключевые слова: Общество, узбекский народ, культура поведения, моральные ценности, общественное развитие, национальные ценности, традиции, культура, пол, духовность, философские исследования.

KIRISH (INTRODUCTION)

O'zbek xalqining milliy taraqqiyot yo'li o'ziga xos tarixiy jarayonlarda yaratilgan axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi asosida oilalarning mustahkamlanib borishiga xizmat qilgan. Bu esa, barcha jamiyatlarga xos tuzilishida ega bo'lgan oilaviy an'analar madaniy taraqqiyotdagi muammolarni o'z dunyosiga birlashtirib, insonlarni egzu maqsadlar sari chorlagan. Yangi O'zbekistonning falsafiy tafakkurida yoshlar muomala madaniyatini boyitish doimo dolzarb jarayon sanalgan. Jamiyatning ijtimoiy landshafti rivojlanayotgan bir sharoitda o'zbek oilalarining falsafiy asoslarini yoshlar ijtimoiy hayotidagi rolini mustahkamlash, ularda muomala madaniyatini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Yangi O'zbekistonda boshqaruv, iqtisod va jamiyat axloqiy me'yorlarida o'zgarishlar ro'y berayotgan bir paytda oilaviy tuzilmalarga xos bo'lgan falsafiy muammolarni tushunish ajdodlardan meros bo'lgan muomala madaniyatini asrab-avaylash zamonaviylik murakkabliklarini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Yangi O'zbekistonda o'zbek oilasiga oid eng asosiy falsafiy muammolardan biri an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi muomala madaniyatini uyg'unlashtirishdir[1]. Bu borada davlatning izchil islohotlari amalga oshirilib borishi natijasida xalqning axloqiy qadriyatlarga munosabati paradigmal tarzda yangilanib bormoqda. Yoshlarning jamiyatda ajdodlar merosiga ixlosmandlik tuyg'ulari kengayib, milliy mentalitetda yoshlarning muomala madaniyatini yuksaltirish borasida innovatsion g'oyalar vujudga kela boshladi. Yoshlarning falsafiy dunyoqarashi o'zgarib voqelik haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy qarashlari, axloqiy qadriyatlarni anglash jarayonlari kengayib bora boshladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Har bir tadqiqot o'zining ilmiy taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, turli global ta'sirlardan omon qoladigan izlanishlar negizida vujudga keladi. O'zbek yoshlarining muomala madaniyatini rivojlantirishga doir qator tadqiqotlar faylasuflar, axloqshunoslar tomonidan an'anaviy oilaviy qadriyatlarga bog'liq holda o'rganilgan. Taniqli chet ellik olimlar D.Lokk, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turiman, L.Drobijeva, A.Karnishev U.Altermatt B.Freyxof, Y.Altermatlar muomala madaniyatining bag'rikenglikka xos axloqiy jarayonlarini tadqiq etishgan. Muomala madaniyatining rivojlanishida axloqiy va falsafiy qarashlarni respublikamiz olimlaridan O'.Mirzayev, I.Saifnazarov, A.Obidov, F.R.Abdurahmonov, M.A.Nurmatova, N.B.Abdullayeva, E.Qodirov, O.P.Musayev, B.Hasanov, I.Karimov, E.Karimova, N.Mamanazarov, T.Maxmudov, S.O.Otamuratov, V.Qo'chqorov, Z.R.Qodirova, X.X.Xonazarov, E.Yu.Yusupova, O.G'aybullayev[2]lar o'rganishgan. O'zbek oilaviy muomala madaniyatiga chuqur singib ketgan oqsoqollarga hurmat, oila tuzilmalar orqali jamoaviy qarorlar qabul qilish yosh avlod o'rtasida individual tenglikka intilish bilan birga yashaydi. Ushbu madaniy merosni saqlash tez o'zgaruvchan dunyo imkoniyatlarini qamrab olish o'rtasidagi nozik muvozanatni talab qiladi. Qolaversa, genderning oiladagi o'rni o'zbek jamiyatida chuqur aks-sado beradigan falsafiy savollarni tug'diradi. Tarixiy jihatdan, patriarxal me'yorlar oilaviy va ijtimoiy kontekstlarda erkaklar va ayollar uchun aniq umidlar bilan gender rollarini belgilab bergan. Biroq, yangi O'zbekiston gender tengligi va

imkoniyatlarni kengaytirishga intilayotgani sababli, bu an'anaviy rollar qayta baholanadi. Gender tenglikning tabiati, o'ziga xoslikning o'zaro bog'liqligi va oilaviy dinamikaga ta'siri haqidagi falsafiy tadqiqotlar o'zbek yoshlari uchun yanada inklyuziv va adolatli ijtimoiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Zamonaviy hayotning tez sur'ati oilaviy hayotning an'anaviy ritmlarini buzishi, mazmunli shaxslararo aloqalar uchun vaqt va makonni kamaytirishi ham mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bu vaqtning tovarga aylanishi, tez sur'atda rivojlanayotgan jamiyatda oilaviy muomala madaniyati majburiyatlarning tabiati, hissiy jihatdan qondirish va moddiy boylikka intilish haqida savollar tug'diradi. Bu falsafiy muammolarni hal yetishda yangi O'zbekistonning oila siyosatiga yondashuvi muhim o'rin tutadi. Hukumat oilalar hamjihatligi, avlodlar o'rtasidagi hamjihatlik va gender tengligini qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ilgari surish orqali yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan ijtimoiy muomala madaniyatini rivojlantirib kelmoqda. "Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki ma'lumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda keng qamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro ta'sirining murakkab tizimi hisoblanadi. shunga ko'ra muomala aktiv bir insonning boshqa inson bilan muomalaga kirishib, unda o'zinikiga o'xshash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi, ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'loniga ega bo'ladi"[3]. Har bir oila bo'yicha falsafiy mulohazalarni o'z ichiga olgan ta'lim tashabbuslari yoshlarga madaniy merosni hurmat qilish bilan birga zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilish imkoniyatini beradi. Pirovardida, yangi O'zbekistonda yoshlar o'rtasida ijtimoiy madaniyatni rivojlantirishda oilaning falsafiy muammolari ko'p qirrali va kengroq ijtimoiy o'zgarishlar bilan chuqur bog'langan. Mulohaza yuritish, avlodlararo muloqotni rivojlantirish va inklyuziv siyosatni amalga oshirish orqali O'zbekiston turli xillikni nishonlaydigan, tenglikni targ'ib qiluvchi va o'zining oilaviy an'alarining boy merosini saqlaydigan muomala madaniyatini tarbiyalash lozim.

Yangi O'zbekiston yoshlari muomala madaniyatini yuksaltirishda oila bilan bog'liq falsafiy muammolar muhim o'rin tutadi. Oila jamiyatning asosiy yelementi bo'lib, unda yoshlarning xulq-atvori, hayotiy tamoyillarini belgilovchi qadriyatlar, me'yorlar va munosabatlar shakllanadi. Zamonaviy o'zbek jamiyatida oila institutiga ta'sir yetuvchi, yangi falsafiy mulohazalar, bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Asosiy muammolardan biri bu oiladagi an'anaviy rol va funksiyalarning o'zgarishi bilan bog'liqdir. Tezkor ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar va madaniy siljishlar oilaviy munosabatlarning tuzilishi, dinamikasiga ta'sir qiladi. Yoshlar oilada va umuman jamiyatda odatiy xulq-atvor namunalarini qayta ko'rib chiqish zarurati bilan duch kelishmoqda. An'anaviy qadriyatlar va zamonaviy muammolar o'rtasidagi muvozanat ham o'zining xilma-xil qirralarini namoyon etib kelmoqda. Yangi O'zbekiston yoshlari bir vaqtning o'zida zamonaviy turmush tarzi, qadriyatlariga intilish bilan birga milliy-madaniy o'zlikni saqlab qolish masalasi oldida turibdi. Bu oilaviy munosabatlar shaxsning jamiyatdagi rolini yangi falsafiy asoslarini izlashga olib keladi[4]. Shuningdek, oila va jamiyatda gender tengligi masalasi ham muhim muammolardan biridir. Yoshlar yerkak va ayol o'rtasida yanada adolatli va barkamol munosabatlar

o'rnatishga intilmoqda, bu yesa oilaviy rishtalarning mohiyati va tabiati haqida falsafiy mulohazalarni keltirib chiqaradi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Yangi O'zbekiston yoshlarining muomala madaniyatini yuksaltirishda oilaning falsafiy muammolari tizimida an'anaviylik va zamonaviylik, tenglik va o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni topish muhim sanaladi. Bu muammolar puxta tahlil qilish, falsafiy mulohaza yuritish va yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan oila muomala madaniyatini yaratishda innovasion yondashuvlarni izlashni talab yetadi. O'zbek oilalaridagi muomala madaniyati yosh avlod tarbiyasi va dunyoqarashini shakllantiradigan an'analari, qadriyatlar bilan uzviy bog'langan. Bu masalalar an'anaviylik va zamonaviylikning birga rivojlanayotganligini ko'rsatadi. O'zbek oilalaridagi muomala madaniyati madaniy urf-odatlariga rioya qilish, madaniy merosni asrab-avaylash, avlodlar o'rtida o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarni saqlashda namoyon bo'ladi. Globallashuvning hayotni barcha jabhalariga kirib borayotganligi natijasida yoshlarning milliy an'analarni hurmat qilishi zamonaviy turlicha madaniy to'qnashuvlar vujudga keladi. O'zbek oilalarida yoshlarning ham qarashlari hurmat qilingan holda oilaviy rishtalar qadrlanib, milliylikka itoatkorlik rag'batlantirilib boriladi. Bundan tashqari, o'zbek oilalarining muomala madaniyati borasidagi qarashlari ajdodlar ma'naviyati va orzu-umidlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yoshlar uchun dasturlamal vazifasini bajaradi. An'anaviy qadriyatlarning bugun yangi O'zbekiston sharoitida e'zozlanayotganligi, huquqiy me'yorlarga amal qilish, jamiyatdagi o'ziga xos ma'naviy imkoniyatlardan oqilona foydalanish alohida rol o'ynaydi. "Jamiyatda "axloqiy munosabatlar ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, u yoshlarni tolerantlikni o'zlashtirishi hamda ehtiyoj darajasida unga amal qilishi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bag'rikenglik madaniyatining rivojlanishi axloqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi"[5]. Oilada yoshlarning imkoniyatlarni kengaytirish, ularning alohida ajralib turadigan muomala madaniyatini oilaviy munosabatlarga uyg'unligini ta'minlash jamiyatdagi gender adolatni namoyish etadi. Qolaversa, rivojlanayotgan axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari o'zbek oilalari muomala madaniyatiga yangi o'lchovlar kiritib, virtual o'zaro munosabatlarning oilaviy rishtalarga bog'lanishida madaniy o'ziga xoslikka ta'sir o'tkazmoqda. Yoshlarning ijtimoiy media tarmoqlari va raqamli ulanish sohasida virtual sayr qilishlari ba'zida oilaviy masalalarda o'zining aks ta'sirini namoyish etmoqda.

Yoshlarning oidagi muammolarini hal qilishda ochiq muomala madaniyatini rivojlantirish zarur. Ularning avlodlar o'rtasidagi fikr almashishini doimo rag'batlantirib borish, axloqiy ongiga singdirilayotgan me'yorlarga oqilona milliy nutq bilan yondashish, ularda hamdardlik tuyg'usini rivojlantirish muhim qadamdir. Yoshlar mulohaza qobiliyatini va falsafiy dunyoqarashini xilma-xilligini ta'minlashda kelajak imkoniyatlarni o'rganish, an'analarga hurmat ko'rsatadigan yo'lni ko'rstaish, o'zbek oilaviy hayotining mohiyatini mustahkamlash va boyitish muhimdir. O'zbek oilalarida yoshlar muomala madaniyatining yangi O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishiga e'tiborni kuchaytirish murakkab va ko'p qirrali hodisadir. O'zbek oilalarida ham boshqa oilalar qatori urf-odatlar, qadriyatlar va madaniy me'yorlarni kelajak avlodga yetkazishda asosiy bo'g'indir. Biroq, zamonaviy muammolar va ijtimoiy o'zgarishlar an'anaviy qadriyatlarga va me'yorlarga o'z ta'sirini o'tkazib, yoshlar uchun dolzarbligi va ahamiyatini shubha ostiga qo'yishi mumkin [6].

Globallashuvning jadal rivojlanishi sharoitida an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish, yoshlarni tarixiy merosga hurmatini oshirish zarurdir. O'zbek oilalarida kattalarni hurmat qilish, diniy urf-odatlariga rioya qilish kabi oilaviy an'analarga hurmat zamonaviy dunyoda yoshlarning o'zini namoyon qilishi va o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi o'rtasidagi muvozanatda namoyon bo'ladi. Yosh avlod shaxsini shakllantirishda oilaning o'rni beqiyos bo'lib, tez rivojlanayotgan dunyoda ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muammolar ham mavjud. Bu yesa, yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda oilani qo'llab-quvvatlash va tarbiyalashning ahamiyati muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, o'zbek oilalaridagi yoshlar muomala madaniyatining falsafiy hijatlari qadimgi an'analar bilan uzviy aloqador sanaladi. Bu oiladagi an'anaviy axloqi qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirib, zamonaviy voqyelikka moslashtirish zarurligini talab qiladi.

Jamiyatda har bir oila axloqiy qadriyatlar asosida mustahkam munosabatlarni tizim yondashuv asosida amalga oshiradi. Oila a'zolari o'z ehtiyojlarini amalga oshirish uchun aniq rejalar bilan ishlashi ko'proq ijobiy samara beradi. Oilada farzandga ma'lumot va bilim berishda qadriyatlardan foydalanish muhimdir. Oila bilan ularning rivojlanishi haqida ma'lumot olishda ta'lim muassasalari o'rtasidagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. "Oiladan ma'lumot almashinishning tegishli usullaridan foydalangan holda, tushunarli tarzda faoliyatni amalga oshirish dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda" [7].

Ma'naviy munosabatlarning globallashuv jarayonida oilada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda axloqiy qadriyatlar yosh avlodni tarbiyalashda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bir qarashda ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan, ammo inson ma'naviyatiga qarshi qaratilgan kichik bir yangilik ham borligini unutmaslik kerak. Bu ko'zga ko'rinmas bo'lib tuyulsa ham kelajakda jamiyatga juda katta zarar keltirishi mumkin. Keyin uni hech narsa bilan qoplab bo'lmaydi. Bunday tobora ortib borayotgan xavf-xatarlarga qarshi kurashda biz doimo ogoh, sezgir, ehtiyotkor bo'lishimiz kerak. Bunga esa har tomonlama chuqur o'ylangan, ilmiy jihatdan yo'lga qo'yilgan, doimiy va uzluksiz ijtimoiy barqarorlik bilan javob bera olamiz [8].

Oilaviy an'analarni ijtimoiy barqaror bo'lishida xalqning asrlardan asrga, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan axloqiy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy qadriyatlar o'zbek xalqi tomonidan qadrlanib, e'zozlanib kelinmoqda va shunday bo'lib qolaveradi. Oilaviy an'analarda axloqiy qadriyatlarga aylangandagina ularning ta'lim - tarbiyadagi qadr-qimmati, yoshlardagi muloqot madaniyatini shakllantirishdagi amaliy ahamiyati yanada ortadi. Shuning uchun ham oilaviy an'analarda yoshlarni tarbiyalashda, oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiya vositasi bo'lib qolaveradi. Masalan, hashar, salomlashish, mehmondo'stlik, to'y, ko'pkari, keksalarni hurmatlash, kabi yuzlab oilaviy an'analarda o'zbek xalqining ma'naviy - axloqiy qadriyatlariga aylanganini ko'rsatish mumkin.

Oilada muomala madaniyati kundalik salomlashish va xayrlashish paytida, shuningdek, oilaviy uchrashuvlar kabi rasmiy tadbirlarda sodir bo'ladi. Bu imkoniyatlarning barchasi sizdan oilaning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ohang, so'z tanlash va og'zaki bo'lmagan muloqotni, masalan, yuz ifodalari, tana tilini bilish xushmuomala bo'lishni talab qiladi. Ushbu xususiyatlardan xabardor bo'lganingizda, biz oilani ko'proq qo'llab-quvvatlaydigan, hurmat qiladigan tarzda muomala madaniyatiga ega bo'lamiz. Oilada ota-ona doimo farzandining ahvolini bilishga intiladi,

uni rag'batlantiruvchi javoblarni taklif qilishdi va biror narsa tushunilmagan bo'lsa, tushuntirishni so'rash orqali qulay va samarali muloqotni qo'llab-quvvatlaydi.

Oiladagi ijtimoiy barqarorlik madaniy qadriyatlarning turlicha bo'lishiga qaramay, qadriyatlarning muomala madaniyatiga sababchi bo'lishiga, sezgir bo'lgan muloqot amaliyotlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Har bir oila o'z farzandlariga o'z madaniyati, e'tiqodlari va urf-odatlarini doirasida muvaffaqiyat qozonishni o'rgatadi. Oiladagi muomalada salomlashishning turli shakllari va sarlavhalardan foydalanish afzalroq bo'lishi mumkin. Turli madaniyatlarda belgilangan erkak va ayol rollari, og'zaki bo'lmagan muloqot va tana tili masalan, ko'z bilan muloqot ham ijobiy natija beradi.

Intellectual ta'lim ota-onalarning bolalarni bilim bilan boyitishda, ularni qo'llash va doimiy yangilash zaruriyatini yaratishda manfaatdor ishtirokini nazarda tutadi. Kognitiv qiziqishlar, qobiliyatlar, moyillik va mayllarni rivojlantirish ota-onalarning g'amxo'rliqi markazida joylashgan bo'ladi [9].

Oiladagi qadriyatlar, madaniy-axloqiy tarbiya shaxsni shakllantiruvchi munosabatlarning o'zagi hisoblanadi. Bu yerda sevgi, hurmat, mehr-oqibat, odob, halollik, adolat kabi axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash birinchi o'ringa chiqadi. Oilada oqilona ehtiyojlar, mas'uliyat, mustaqillik, tejamkorlik shakllanadi.

Oilada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan holda muomala madaniyatini yo'lga qo'yish farzandlarning o'zlarini xavfsiz, qulay va do'stona his qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. Oila bilan muloqot uslublarining kombinatsiyasidan foydalanish ularning ehtiyojlarini qondirish uchun eng yaxshi natija beradi. Oila bilan suhbatlar turli sabablarga ko'ra qiyin bo'lishi mumkin. Ba'zida oila bilan baham ko'rgan narsalardan xafa bo'lish va hatto farzandning bir bir dasturxonda o'tirmaslikkacha qaror qilishidan xavotirlanish mumkin. Bundan tashqari, oila bilan tashvishlar haqida suhbatlashish qiyin bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ular oilaga g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yosh bolaning rivojlanishi va o'rganishini o'ylagan tarzda ifoda etish imkoniyatini beradi [10]. Tushunmovchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin, chunki sizning qarashlaringiz va vaziyatni tushunishingiz oila a'zolariningiznikidan farq qilishi mumkin. Bunday hollarda vaziyatga bir nechta nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Masalan:

Oilada har bir shaxs o'zini qulay his qilishi uchun to'g'ri muloqot olib borishi, oilaviy qadriyatlarni bilish muhimdir. Ularning qiziqishlari, merosi va madaniyati, ehtiyojlari va farzandlariga bo'lgan umidlari, orzularini hurmat bilan o'rganish muomala madaniyatini oshishiga olib keladi. Oila bilan muloqot qilishda oilaning ichki maxfiyligini saqlash va oiladaning shaxsiy daxlsizlik huquqini hurmat qilish juda muhimdir.

Xalqimizning ma'naviy olamini muhofaza qilish, xalqaro maydonda kechayotgan jarayonlarning asl mohiyatini anglash, zamonamizning dolzarb masalalari yuzasidan xolis va mustaqil fikrni shakllantirish bugungi kunda har bir oilaning asosiy vazifasidir. Buning uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar mavjud va ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning muomala madaniyatiga kompleks yondashuv turli avlodlar o'rtasidagi muloqotni, tajriba almashishni va murosani izlashni talab qiladi. Bu jarayonda amalga oshiriladigan ishlar bevosita o'zining aniq tasnifi, tarixiyligi, qadriyatlar rivojlanishidagi o'rniga ega

bo'lishi lozim. Jamiyatda muomala madaniyatining qadriyatlar va urf-odatlarini saqlash tizimidagi o'rnini belgilash, ularning o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashishini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv yangi O'zbekistondagi oilalarda o'ziga xos muomala madaniyatini asrab-avaylash, yoshlarni an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligida kamol toptirishga ko'maklashishga, zamonamiz qiyinchiliklarni samarali yengish imkonini beradi. Yoshlarning har bir faoliyatida muomala madaniyatiga milliy qadriyatlar negizida munosabatda bo'lish, mahallalardagi yoshi ulug'larning nasihatlariga quloq solish, axloqiy qadriyatlarni doimo e'zozlash muhim falsafiy qarashlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. GAYBULLAEV, OTABEK MUKHAMMADIEVICH. "Reflection of the development of aesthetic culture in uzbekistan in national and universal values". *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 1.2 (2021): 21-27.
2. G'aybullaev, Otabek Muxammadievich. "YANGI O'ZBEKISTONDA Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda axloqiy qadriyatlarning o'ri". *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 59-66.
3. B.Husanov., V.G'ulomov. Muomala madaniyati. –Toshkent: 2009. 15-bet.
4. Файбуллаев, О. М. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 396-403.
5. Xoliqov Yu.O. O'zbekistonda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning axloqiy tamoyillari. –Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. -B. 17.
6. Gaibullaev, Otabek. "Development processes of language and philosophical views in Central Asia." *BIO Web of Conferences*. Vol. 65. EDP Sciences, 2023. 23-24.
7. Дружинин В.Н. Психология семьи. – Изд. 3-е. – СПб.: «Питер», 2008. – С.176.
8. Ашиков В. Ещё раз о воспитании // Дошкольное воспитание. – 2005. - №4. – С. 3 -5.
9. Потаповская О. Духовно-нравственное воспитание детей и родителей // Дошкольное воспитание. – 2006. - №1. – С. 14 – 16.
10. Файбуллаев, Отабек. "Ёшларда диний бағрикенгликни шакллантиришнинг фалсафий моҳияти." *Научно-просветительский журнал "Наставник"* 2 (2021). 45-47.

Daniyor Bakhtiyorovich To‘raev,

Independent researcher in international law

Published under peer review:

Doctor of Political Science, Associate Professor

Mansur Musaev,

Uzbekistan

Received 4th July 2024, Accepted 11th July 2024, Online 20th August 2024

FREEDOM OF EXPRESSION OF POLITICAL OPINION AND CONDITIONS OF ITS RESTRICTION

Abstract: The article examines the concept of “political opinion”, “freedom of expression of political opinion” in the context of international law and examines permissible restrictions on these rights.

Keywords: political opinion, freedom of opinion and expression, human rights, democratic state, limitation, necessity, international law.

SIYOSIY FIKRNI AZOR QILISH ERKINLIGI VA UNING CHEKLASH SHARTLARI

Аннотация: Мақолада халқаро ҳуқуқ контекстида “сиёсий фикр”, “сиёсий фикрни ифода этиш эркинлиги” тушунчалари таҳлил қилинади ва ушбу ҳуқуқларга нисбатан рухсат этилган чекловлар кўриб чиқилади.

Таянч сўзлар: сиёсий фикр, фикр ва фикрни ифода этиш эркинлиги, инсон ҳуқуқлари, демократик давлат, чеклаш, зарурат, халқаро ҳуқуқ.

СВОБОДА ВЫРАЖЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО МНЕНИЯ И УСЛОВИЯ ЕЕ ОГРАНИЧЕНИЯ

Аннотация: В статье в контексте международного права исследуется понятие «политическое мнение», «свобода выражения политического мнения» и рассматриваются допустимые ограничения этих прав.

Ключевые слова: политическое мнение, свобода мнений и их выражения, права человека, демократическое государство, ограничение, необходимость, международное право.

KIRISH (INTRODUCTION)

Фикр ва уни ифодалаш эркинлиги шахсининг ҳар томонлама камол топиши, ҳар қандай жамият ва давлатнинг ривожини учун муҳим шартидир. Улар ҳар қандай эркин ва демократик жамиятнинг асосий элементлари ҳисобланади. Шунинг учун, фикр эркинлиги ва уни ифодалаш эркинлиги ҳар қандай инсон ҳуқуқлари каби ҳар бир демократик давлат томонидан ҳурмат қилиниши, ҳимоя қилиниши ва амалга оширилиши керак.

“Сиёсий фикр” атамаси ҳар қандай “фикр” сифатида фикр ва уни ифодалаш эркинлиги билан боғлиқ. Халқаро ҳуқуқда “сиёсий фикр” “сиёсий атамасини талқини ва таърифини изоҳлаш халқаро қочоқлар ҳуқуқи (International Refugee Law) доирасида ривожланган, десак хато қилмаган бўламиз. Бунга халқаро қочоқлар ҳуқуқи бўйича мутахассис олимлар ва мазкур соҳадаги суд амалиётининг саъй-ҳаракатлари муҳим ҳисса қўшган. Хусусан, “сиёсий фикр” тушунчаси билан боғлиқ талқинлар халқаро қочоқлар ҳуқуқидаги асосий талқинлардан биридир. Шундан келиб чиқиб, “сиёсий фикр” деганда, умуман олганда, сиёсий тизим билан боғлиқ ёки сиёсий тизим тўғрисида, ёхуд давлатнинг, унинг идоралари ва мансабдорларининг сиёсий фаолияти билан боғлиқ ҳар қандай фикр тушунилиши мумкин. Сиёсий фикрни ифодалаш эркинлиги ўз ичига сиёсий фаолият билан индивидуал ёки сиёсий партиялар ва бошқа ташкилотлар орқали шуғулланиш, давлат ишлари ва инсон ҳуқуқлари бўйича мунозара қилиш эркинлиги, сайловларда қатнашиш эркинлигини ўз ичига олиши мумкин. Сиёсий фикрни ифодалаш шакллари, ҳар қандай фикрни ифодаси каби, оғзаки, ёзма ва имо-ишора тилини ва тасвирлар каби оғзаки бўлмаган ифодани ҳам ўз ичига олиши мумкин. Ифода воситалари китоблар, газеталар, рисолалар, плакатлар, либослар, аудио-визуал барча шакллари, шунингдек, электрон ва интернет орқали ифодалаш усуллари ўз ичига олиши мумкин. Бундан ташқари, сиёсий фикрни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқи тинч йиғилишлар ҳуқуқини ҳам қамраб олиши мумкин. “Фикрни ифода этиш эркинлигисиз ҳақиқий маънода йиғилишлар эркинлиги ҳам бўлмайди; йиғилиш ҳақиқатан ҳам ифода шаклидир”. Умуман олганда, сиёсий фикрни ифода қилиш юқори қадрга эга бўлган ифода шакллари ҳисобланади.

Фикр ва уни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқи ҳеч бир тусқисиз ўз фикрига эга бўлиш ҳамда ахборот ва ғояларни ҳар қандай восита билан, давлат чегараларидан қатъи назар, излаш, олиш ва тарқатиш эркинлиги билан бирга инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ва минтақавий ҳужжатларда белгилаб қўйилган. Жумладан, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг (ИХУД) 19-моддасида ва Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг (ФСХХП) 19-20-моддаларида белгилангандир.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 19-моддасида: “ҳар ким фикр ва уни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқига эга; бу ҳуқуқ ҳеч бир тўсиқсиз ўз фикрига эга бўлиш ҳамда ахборот ва ғояларни ҳар қандай восита билан, давлат чегараларидан қатъи назар, излаш, олиш ва тарқатиш эркинлигини ўз ичига олади” деб белгиланган.

Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 19-моддаси 2-бандига мувофиқ: “ҳар ким ўз фикрини эркин ифода этиш ҳуқуқига эга; бу ҳуқуқ давлат чегараларидан қатъи назар, оғзаки, ёзма ёки босма шаклда, санъат асари шаклида ёки ўзи танлаган ҳар қандай

бошқа воситалар орқали барча турдаги ахборот ва ғояларни излаш, олиш ва тарқатиш эркинлигини ўз ичига олади”.

Сиёсий фикрни ифода этиш эркинлиги, шунингдек, ФСХХПнинг 22-моддасида кафолатланган йиғилишлар ва бирлашмалар эркинлиги ва ФСХХПнинг 25-моддасида кафолатланган давлат ишларида демократик иштирок этишни ҳам ўз ичига олиши мумкин.

Минтақавий даражада қабул қилинган барча инсон ҳуқуқлари бўйича ҳужжатларда ҳам фикрни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқи қайт этилган. Масалан, Инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги Европа конвенциясининг 10-моддаси 1-бандида шундай дейилган: “[х]ар бир инсон ўз фикрини эркин ифода этиш ҳуқуқига эга. Бу ҳуқуқ давлат ҳокимияти органларининг аралашувисиз ва давлат чегараларидан қатъи назар, ўз фикрига эга бўлиш, ахборот ва ғояларни олиш ва тарқатиш эркинлигини ўз ичига олади”.

Мазкур моддалар фикрни ифода этиш эркинлигининг барча шакллари кенг даражада қамраб олган ҳуқуқ доирасини белгилайди, жумладан, сиёсий фикрни ҳам. Ўз навбатида, ҳар доим ҳам фикрни ифода этиш эркинлиги демократияни ривожлантиришга ва тараққиётга хизмат қилмайди.

Халқаро ҳуқуқда фикрни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқини белгилаш билан бир қаторда, ушбу эркинликдан фойдаланишни чеклашга рухсат берувчи қоидалар ҳам мавжуд. Масалан, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида айрим инсон ҳуқуқлари, жумладан, фикрни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқи билан боғлиқ умумий чеклов қоидалари белгиланган. Хусусан, 29-модданинг 2-қисмида: “ҳар кимнинг ўз ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишига нисбатан фақат қонун билан белгиланган тарзда ва фақат бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муносиб эътироф этиш ва ҳурмат қилишни таъминлаш ҳамда демократик жамиятдаги умумий фаровонлик, жамоат тартиби ва ахлоқнинг адолатли талабларига мос келиши мақсадларида чекловлар қўйилиши мумкин”, деб белгиланган.

Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 19-моддаси 3-қисмида фикрни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқидан фойдаланиш алоҳида мажбурият ва алоҳида масъулият юклаши белгиланган. “Шунинг учун унга маълум чекловлар қўйилиши мумкин, аммо улар фақат қонун билан белгиланган тарзда ва қуйидагилар учун зарур бўлиши лозим:

(а) бошқаларнинг ҳуқуқлари ёки обрўсини ҳурмат қилиш учун;

б) миллий хавфсизлик ёки жамоат тартибини (ordre public), жамоат соғлиғи ёки ахлоқини ҳимоя қилиш учун.”

Яъни инсон ҳуқуқларини (ҳаммасини ҳам эмас) чеклаш, халқаро ҳуқуқга мувофиқ, шу – бошқаларнинг ҳуқуқлари ёки обрўсини ҳурмат қилиш ёки миллий хавфсизлик ёки жамоат тартибини ёки аҳолининг соғлиғини сақлаш ёки ахлоқини ҳимоя қилиш – мақсадларда рухсат этилади. Мазкур мақсадлар кўпинча чекловлар учун “қонуний мақсадлар” деб аталади.

Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 19-моддаси 3-бандида назарда тутилган фикрни ифода этиш эркинлигини чеклашга рухсат этилган чеклов мақсадларига қўшимча равишда, Пактнинг 20-моддасида ҳам фикрни ифодалаш эркинлигининг айрим шакллари аниқ тақиқланганлиги кўрсатилган: “ҳар қандай уруш ташвиқоти қонун билан тақиқланиши керак”; “камситиш, адоват ёки зўравонликка ундайдиган

ҳар қандай миллий, ирқий ёки диний нафратни тарғиб қилувчи чиқишлар қонун билан тақиқланиши керак.

Бундай чекловлар минтакавий даражада қабул қилинган инсон ҳуқуқлари бўйича ҳужжатларда ҳам мавжуд. Масалан, Инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги Европа конвенциясининг 10-моддаси 2-банди фикрни ифодалаш эркинлиги ҳуқуқини чеклаш учун асосли бўлган ҳолатларни белгилайди:

“Ушбу эркинликларнинг амалга оширилишида, улар мажбурият ва масъулият билан боғлиқ бўлганлиги сабабли, уларга нисбатан расмийчиликлар, шартлар, чеклашлар ёки жазо чоралари қўлланилиши мумкин, бундай ҳаракатлар фақат қонун билан ва демократик жамиятда миллий ҳавфсизлик, ҳудудий яхлитлик ёки жамоат тартибини таъминлаш учун зарур бўлган тартибсизликларнинг ёки жиноятларнинг олдини олиш, соғлиқни сақлаш ёки ахлоқни ҳимоя қилиш, бошқаларнинг обрўси ёки ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, махфий равишда олинган маълумотларнинг ошкор этилишига йўл қўймаслик ёки одил судловнинг ҳокимияти ва ҳолислигини таъминлаш мақсадларда ўрнатилиши мумкин.”

Фикрни ифодалаш эркинлиги ҳуқуқини чекланиши билан боғлиқ ҳужжатлар кўпайиши билан ҳалқаро ҳуқуқда мазкур чеклашларнинг аниқ талқинига зарурат пайдо бўлди ва “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактдан четга чиқиш ва чеклаш қоидалари бўйича Сиракуза принциплари” қабул қилинди. Бу муҳим халқаро ҳажжат 1984 йилда Италиянинг Сиракуза шаҳрида учрашган турли давлатлар ва халқаро инсон ҳуқуқлари ташкилотларидан келган халқаро экспертлар гуруҳининг меҳнати натижаси бўлди. Принципларда Пакт қоидалардан четга чиқиш ва уларни чеклашдаги қонуний мақсадлар ва асослар, талқин қилишнинг умумий тамойиллари белгиланди. Хусусан, Сиракуза принципларига мувофиқ Пактдаги чеклаш “зарурати” талаб этилса, бу атама қуйидаги чекловларни англатиши белгиланган: (a) Пактнинг тегишли моддасида тан олинган чекловларни оқлайдиган сабаблардан бирига асосланиши; (b) долзарб давлат ёки ижтимоий эҳтиёжга жавоб бериши; (c) қонуний мақсадни кўзлаши; (d) ушбу мақсадга мутаносиб бўлиши. Ушбу Принципларда чеклаш заруриятига оид ҳар қандай баҳолаш объектив мулоҳазаларга асосланиши лозимлиги белгиланган.

Бундан ташқари, Бирлашган миллатлар ташкилотининг Инсон ҳуқуқлари кўмитасининг 34-сонли Умумий шарҳи Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 19-моддасига бағишланган бўлиб, унда фикр ва фикрни ифода этиш эркинлиги масалалари ва уларни чеклаш шартлари тўғрисидаги батафсил шарҳлар ўрин олган.

Умуман олганда, инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳужжатлар фикрни ифодалаш эркинлиги, шу жумладан, сиёсий фикрни ифода этиш эркинлиги ҳуқуқини чеклаш мумкинлигини, лекин бундай чекловлар муайян шартларни талаб қилишини аниқ белгилайди. Айниқса, сиёсий фикрни ифодалаш эркинлиги юқори қадрга эга бўлган ифодалаш шаклларида ҳисобланганлиги учун уни чекловлари жиддий ва ҳар томонлама асосланиши керак ва мумкин бўлган чеклаш мақсадларига мос бўлиши талаб этилади. Хусусан, халқаро ҳуқуқ бундай чекловлар, биринчидан, “қонуний мақсад”ни кўзлаши кераклигини; иккинчидан, чекловлар “қонун билан белгиланган” бўлиши лозимлигини; учинчидан, демократик жамият

учун бундай чекловларга “зарурат” борлигини асослантирилиши лозимлигини; тўртинчидан, чекловлар мақсадга “мутаносиб” бўлиши кераклигини талаб этади.

REFERENCE (Адабиёт руйхати)

1. Инсон ҳуқуқлари қўмитаси Умумий шарҳ №34 (Фикр ва фикрни ифода этиш эркинлиги, 19-модда), CCPR General comment No.34, Article 19 (Freedoms of opinion and expression) CCPR /C/GC/34, 12 September 2011, para. 11-12.
2. *Kivenmaa v. Finland*, Communication No. 412/1990, U.N. Doc. CCPR/C/50/D/412/1990 (1994), Appendix, para. 3.4 Humphrey, J. P., *Political and Related Rights*, in: *Human Rights in International Law*, Legal and Policy Issues (ed. Theodor Meron), Clarendon Press, Oxford, 1984, Vol. I, P. 188.
3. Rainey, B., *Human Rights Law: Concentrate*, Oxford University Press, 2012, p. 127.
4. Art. 19, Universal Declaration of Human Rights. Манба: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.
5. Art. 19(2), International Covenant on Civil and Political Rights. Манба: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>.
6. Articles 22, 25, International Covenant on Civil and Political Rights. Манба: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>.
7. Art.10(1), European Convention on Human Rights. Манба: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG
8. Art. 29(2), Universal Declaration of Human Rights. Манба: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.
9. Art. 19(3), International Covenant on Civil and Political Rights. Манба: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>.
10. Art. 20, International Covenant on Civil and Political Rights. Манба: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>.
11. Art.10(2), European Convention on Human Rights. Манба: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG
12. Инсон ҳуқуқлари қўмитаси Умумий шарҳ №34 (Фикр ва фикрни ифода этиш эркинлиги, 19-модда), CCPR General comment No.34, Article 19 (Freedoms of opinion and expression), CCPR /C/GC/34, 12 September 2011.

ABDULLAYEVA SURAYYO BABOJONOVNA

Urgench State University, doctoral student

phdsurayyo@gmail.com

Published under peer review:

Doctor of Sciences in Pedagogics (PhD),

Associate professor

Shamsiya Ismailova

Received 4th July 2024, Accepted 11th July 2024, Online 20th August 2024

METHODS OF FORMING QUALITIES RELATED TO HEALTHY RELIGIOUS BELIEFS, SUCH AS HONESTY, TRUTHFULNESS AND FAITHFULNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article talks about the methods of forming qualities such as honesty, truthfulness, truthfulness, meekness, simplicity, and modesty in elementary school students. The importance of the words "Ikhlos" and "Ideal" in the formation of education and methods of their effective use and the example of lesson development are focused on.

Key words: sincerity, ideal, honesty, Imam Bukhari, healthy religious belief.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TO'G'RILIK, ROSTGO'YLIK, SODIQLIK KABI SOG'LOM DINIY E'TIQOD BILAN BOG'LIQ FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida halollik, rostgo'ylik, rostgo'ylik, muloyimlik, soddalik, kamtarlik kabi fazilatlarni shakllantirish usullari haqida so'z boradi. "Ixlos" va "Ideal" so'zlarining tarbiyani shakllantirishdagi ma'nosi va ulardan unumli foydalanish usullari haqida. Asosiy e'tibor foydalanish va namunaviy dars dizayniga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ixlos, ideal, halollik, Imom Buxoriy, sog'lom diniy e'tiqod.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАЧЕСТВ, СВЯЗАННЫХ СО ЗДОРОВЫМИ РЕЛИГИОЗНЫМИ УБЕЖДЕНИЯМИ, ТАКИХ КАК ЧЕСТНОСТЬ, ПРАВДИВОСТЬ И ВЕРНОСТЬ.

Аннотация. В данной статье говорится о методах формирования у учащихся младших классов таких качеств, как честность, правдивость, правдивость, кротость, простота и

скромность. О значении слов «Ихлос» и «Идеал» в формировании воспитания и методах их эффективного использования. основное внимание уделяется использованию и примеру разработки урока.

Ключевые слова: искренность, идеал, честность, Имам Бухари, здоровая религиозная вера.

Kirish (Introduction)

Insonning e'tiqodi uning maqsadlari va hayotiy faoliyatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir. E'tiqod sog'lom bo'lgandagina shaxsning dunyoqarashiga samarali ta'sir ko'rsatadi, uning hayotiy pozitsiyasini belgilaydi. Iymon-e'tiqodning asosini fazilatlilik, omonatdorlik, rostgo'ylik tashkil etadi. Sog'lom diniy e'tiqod egalari bo'lgan zukko ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan bunday sifatlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Insonlar orasida o'zaro hurmat, do'stlik, mehr-muruvvat, hamkorlik, ishonch, shijoat, jasorat kabi oliyjanob sifatlarni shakllantirishda hadislar va ajdodlarimizning didaktik xarakterdagi asarlari bilan bir qatorda zamonaviy shoir va yozuvchilarning asarlari ham katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

O'quvchilarni istiqbolda o'z hayot yo'lini to'g'ri tanlashga o'rgatish, o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yish, barkamollikka erishish yo'llarini izlashiga ko'maklashish uchun ularda sog'lom e'tiqodni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki sog'lom e'tiqod negizida shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, mustaqil tafakkur va dunyoqarashga ega bo'lishi, yaxshi va yomon, to'g'ri va noto'g'rini o'zaro farqlay olishi e'tiqod mahsuli hisoblanadi. E'tiqod inson ruhiyatining muayyan ma'lumot, matn, hodisa, voqea yoki shaxsiy tasavvur va aqliy xulosalar to'liq va e'tirozsiz qabul qilinadigan alohida holati hisoblanadi. Demak, shaxs ma'naviyatining negizini sog'lom diniy e'tiqod tashkil etadi. Shu ma'noda shaxsning ma'naviyatlilik darajasini uning e'tiqodiga qarab belgilash mumkin.

O'quvchilarda sog'lom e'tiqodni shakllantirish uchun pedagoglar ularda muayyan hodisaga nisbatan ixlos va qiziqishni shakllantirishlari kerak. **Ixlos** (arabcha - samimiylik, ko'ngli ochiqlik; berilganlik, muxlislik; biror narsaga e'tiqodli, e'tiborli bo'lish) 1. Chin yurakdan, ishonch bilan berilish; astoydil muhabbat, mehr qo'ymoq. Ixlos sohaga, insonlarga, san'at ahliga, kitobga nisbatan bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning ixlosi ahamiyatli bo'lib, u ta'lim oluvchining o'ziga xosligini ifodalaydi. O'quvchilarning ixlos, e'tiqodini aniqlagan xolda pedagoglar ularga individual yondoshishlari lozim.

Ixlos shaxsning moyilligi bilan bog'liq bo'lib, u kimningdir ta'siri ostida shakllanmaydi. Me'yoridan ortiq intilish, ko'ngil qo'yish nafs va mutaassiblik deyiladi. Mutaassiblik – fanatizm, o'z e'tiqodi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lish. O'quvchilarda ixlosning mutaassiblikga aylanmasligi uchun o'qituvchilar va ota-onalar o'z vaqtida zarur choralarni ko'rishlari lozim. Bugungi kunda mutaassiblikdan diniy eksterimistik kuchlar g'arazli maqsadlarda foydalanmoqdalar. Ko'plab yoshlarni Suriya, Afg'oniston kabi urush o'choqlariga hamda jangarilarni tayyorlovchi lagerlarga jo'natmoqdalar. O'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilardagi ixlosning mutaassiblikka aylanmasligi uchun sezgirlik bilan pedagogik chora-tadbirlarni qo'llashlari va ulardagi ixlosni rag'batlantirib, faol ijodkorlikka yo'naltirishlari lozim.

Buning uchun o'z kasbu kori, g'oyasi, qarashlariga ixlos qo'ygan tarixiy shaxslarning ibрати va bunyodkorlikka asoslangan faoliyati haqidagi hikoyalar bilan o'quvchilarni muntazam tanishtirib borish ushbu sohada samaradorlikka erishish imkonini beradi. E'tiqod, ixlosning shakllanishida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham pedagoglar o'quv jarayonida turli usul va metodlar yordamida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashlari alohida ahamiyatga ega bunda ular "Bahs-munozara", "Erkin muloqot", "Ibrat, namuna", "Fikriy hujum", "Diolog", "Hamkorlikda ishlash", "Tarbiya saboqlari", "Erkin fikrlash", "Ta'limiy o'yinlar", "Farxlanish va nafratlanish", "Rag'batlantirish" kabi metodlardan foydalanishlari tavsiya etiladi.

E'tiqod tarkibiga kiradigan muhim tushunchalardan yana biri **"ideal"**dir. **Ideal (fransuzcha ideal; yunon. idea – g'oya, tushuncha, tasavvur; obraz, timsol)** 1. Jamiyatning, shaxsning eng oliy maqsadi, eng yuksak orzu va tilak. 2. Biror narsa, voqea va hodisalarning oliy namunasi, kamoloti, jamiyat a'zolari intiluvchi oliy maqsad. 3. Inson, xalq va millat tasavvurida barcha ezguliklar timsoliga aylangan, ular doimo intilib yashaydigan muqaddas orzu-a'mol.

Ideal insonning eng oliy qarashlari hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarda idealni shakllantirish sog'lom e'tiqodning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Idealda shaxsning orzu-umidlari, intilishlari, g'oyalari, e'tiqodiy qarashlari mujassamlashadi. O'qituvchilar turli usul va metodlar yordamida o'quvchilarda shakllangan ideallarni aniqlashga erishishlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bunda bayon, insholar, esselar yozdirish samarali natijalar beradi. Masalan "Men sevgan qahramon", "Mening idealim", "Siz kimga ergashishni istaysiz", "Kim bo'lishni orzu qilasiz", "Nimalardan hafa, nimalardan xursand bo'lasiz" kabi mavzular o'quvchilarning ideallarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarning ideallari orqali ularning intilishlarini, ixlosini, e'tiqodiy qarashlarini aniqlash mumkin. Bunda yozma ishlar, davra suhbatlari, har bir o'quvchi bilan o'tkaziladigan suhbatlar, bahs-munozara jarayonlari, savol-javoblar kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'quvchilarning e'tiqodiy qarashlarini aniqlashda "Tarbiya", "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Musika", "Tasviriy san'at" darslari va sinfdan tashqari tarbiyaviy jarayonlar alohida ahamiyatga ega. Tarixiy maskanlar, muqaddas qadamjolar, muzeylar ham o'quvchilarda e'tiqodiy qarashlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ideal bir so'z bilan aytganda shaxsning imkoniyatlar, orzu-umidlari va qarashlarini ifodalovchi ma'naviy hodisadir. Ideal o'quvchilarni kamol toptirishdagi muhim mezon va talablar majmui hisoblanadi.

"Bahs-munozara" metodi yordamida o'quvchilarda sog'lom e'tiqodiy tushunchalarni shakllantirish maqsadida quyidagi mavzularni "Tarbiya", sinf soatlari, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida quyidagi mavzularda bahs-munozara vaziyatlarini tashkil etish mumkin:

- "Rostgo'ylik haqida nimalarni bilasiz?"
- "Halollik va halol luqma deganda nimani tushunasiz?"
- "Ota-ona, qarindosh va ustozlarga qanday munosabatda bo'lish kerak?"
- "Qarindoshlarga qanday munosabatda bo'lish kerak?"
- "Qanday ishlar savob ishlar hisoblanadi?"
- "Gunoh deganda nimani tushunasiz?"
- "Kimlardan nafratlanasiz va qanday insonlar bilan faxrlanasiz?"

– “Ezgu amallar deganda qanday amallarni tushunasiz?”

Quyida 1-sinf “Tarbiya” darsligining “Bilim olish sirlari” mavzusiga qilingan dars ishlanmasi taqdim qilindi.

1-jadval

Boshlang'ich sinflar uchun “Bilim olish sirlari” mavzusidagi dars ishlanmasi

Sinf: 1-sinf
Fan: Tarbiya
Mavzu: Bilim olish sirlari (1-chorak 5-dars)
Darsning maqsadlari:
Ta'limiy: O'quvchilarning to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish.
FK:o'z nutqini to'g'ri, tushunarli tarzda ifodalay olish
Tarbiyaviy: bilim haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Bilim olishga ishtiyoq uyg'otish
TK1: Ilmga fidoiy ota-bobolarimiz hayotiga qiziqish ishtiyoqini oshirish
TK3: O'quvchilar ruhiyatidagi ilimli insonni topa olishga erishish
TK4: Bilimli inson hamisha jamiyatga foyda keltirishini tushunish
TK4: Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar bilan faxrlanish hissini shakllantirish
Rivojlantiruvchi: to'g'ri, ongli xulosa chiqarishga o'rgatish
Metod: suhbat, “Savol-javob”, “Ifodali o'qish” metodi, “Rolli o'yinlar”
Darsning jihozi: darslik, mavzuga mos rasmlar, AKT, sahna ko'rinishi uchun maxsus kiyimlar
Darsning borishi:
I.Tashkiliy qism:
a) O'quvchilar bilan salomlashish;
b) Darsga o'quvchilarni tayyorlash;
c) Davomatni aniqlash;

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash
III. Yangi mavzu bayoni.
1-boshlovchi – “Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida e‘tiborga molik buyuk olimdir. Imom al-Buxoriy bobokalonimiz Milodiy 810- yil Buxoro shahrida tug‘ilganlar.
2-boshlovchi – Imom Buxoriy 3 yashar paytida otasi olamdan o‘tadi.
Imom Buxoriyning otasi – Otasi Ismoil umrining oxirida: “Bor mol dunyoyimda na xarom yo‘l bilan, na shubhali bir dirhamni borligini bilmayman”.
1-boshlovchi – U yoshligidan aql-idrokli, o‘tkir zehnli va ma‘rifatga havasi kuchli bo‘lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo‘r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, u o‘n yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan.
2-boshlovchi – Marvdagi fuqaholar, muhaddislarning ilm majlisida hadis yozish darslarida 9 yashar Imom Buxoriy ham qatnashardi.
Muhaddis: Nechta hadis yozdingiz?
Imom Buxoriy: 2 ta. (-muhaddislar kulishadi)
Shayx: Bir kun keladi manashu bola hammangizni ustingizdan kuladi.
1-boshlovchi – Imom Buxoriy 16 yoshidan boshlab 16 yil davomida o‘zining “Quron”dan keyin ikkinchi muqaddas kitob “Al Jome us-Sahih” asarini yozib qoldiradi.
2-boshlovchi – Hadis ilmidan o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida o‘sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta‘lim oladi.
Imom Buxoriy: “Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan, Basraga to‘rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag‘dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman”.
1-boshlovchi – Sahna ko‘rinishidan ma‘lum bo‘ldiki, ilm olish sirlaridan biz — otanamizning duosini olish;
2-boshlovchi – Halol luqma yeyish;
1-boshlovchi – ilmni yoshlikdan egallashga ishtiyoq va ilm olishga mehr qo‘yish;

2-boshlovchi – ustozlarning bergan ta’lim-tarbiyasiga quloq solishni angladik.
Lug’at ishi:
Qur’on (arabcha: القرآن o’qimoq, qiroat qilmoq) – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi.
Hadis (arab. – xabar, gap, yangilik) – Muhammad (sollollohu alayhi vasallam) aytgan so’zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to’g’risidagi rivoyat.
Halollik – vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish, to’g’rilik, soflik.
Sahih (arab. – to’g’ri, chin, sog’lom) – eng ishonchli deb hisoblangan <u>hadis</u> to’plamlarining nomi.
IV. Mustahkamlash. Savol- javob o’tkaziladi: 1.Imom Buxoriy qayerda tug’ilgan? 2.Halollik deganda nimani tushunasiz? 3.Imom Buxoriyning eng mashhur asarining nomi nima deb ataladi?
V.Uyga vazifa: mulohaza qilish.
VI.Dars yakuni: o’quvchilar bilimi baholanadi.

Mazkur dars ishlanmasi orqali o’quvchilarda bilim olish sirlari Imom Buxoriy hayoti misolida taqdim etildi. Dars ishlanmasidan halol luqma yeyish va ota –onaning duosini olish ilmi bo’lishning dastlabki sharti kabi xulosalar olingan.

«**Ahdga vafo qilinglar! Zero, ahd-paymon** (Qiyomat kuni) **mas’ul bo’linadigan ishdir**» (Al-Isro surasi, 34). “Albatta, munofiqlar do’xaxning eng ostki qavatidadir va hargiz ularga yordamchini topa olmassan” (Niso surasi, 145-oyat)

Imom Shofe’iy rahimahullohdan “Biror kishining yolg’onchi yoki rostgo’y ekanini qanday bilasiz?”, deb so’rashganida, “U bilan uchrashuv belgilayman. Agar vaqtida kelsa, u rostgo’ydir. Agar kechikib kelsa, u yolg’onchidir”, deb javob bergan ekanlar.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining e’tiqodiy qadriyatlarga oid dunyoqarashini aniqlash maqsadida “Erkin muloqot” vaziyatlari tashkil etiladi. Bunday vaziyatlarda o’quvchilar bilan turli mavzularda suhbatlar tashkil etish mumkin. Masalan:

- “Chin do’st kim?”
- “Nima uchun Vatan muqaddas?”
- “Vatanparvarlikni qanday tushunasiz?”
- “O’zining vatanparvarligi bilan tarixda nom qoldirgan qanday insonlarni bilasiz?”
- “Qanday qilib saxovatli bo’lish mumkin?”

– “Bilim inson hayotida qanday ahamiyatga ega?” kabi mavzularda o‘quvchilarning erkin fikr bayon qilishlari ta’minlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, sog‘lom e’tiqodning tarkibini ilm, ishonch, ixlos, ishq va ideal tashkil etadi. Ular e’tiqodga ta’sir ko‘rsatib, uni yaxlit tizimini shakllanishiga ko‘maklashadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom e’tiqodni shakllantirish uchun uning barcha komponentlarini o‘quvchilar va o‘qituvchilar ongiga singdirish, pedagoglarni esa sog‘lom e’tiqodni shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalar, usul va metodlar bilan qurollantirish talab etiladi.

Xulosa (Conclusion)

Ko‘p asrlar maboytida mutafakkir ajdodlarimiz islomiy iymon-e’tiqod asosida milliy madaniyat, axloq va ma’naviyatning mustahkam poydevorini yaratishga muvaffaq bo‘lganlarki, ushbu poydevor o‘zida e’tiqod ruknlarini mujassamlashtirganligi uchun ham bugungi kunda yoshlar tarbiyasida muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qila oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati (Reference)

1. Donishmandlar tarbiyasi xususida (to‘pl. va nashrga tayyr. Asqar Zunnun; arab, fors va boshqa sharq tillaridan SHorasul Zunnun tarj.) – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1982. – 175 b.
2. Imom al Buxoriy “Adab al-mufrat” 267-bob, 598-hadis.-201 b.
3. Imom Ismoil al-Buxoriy “Al Jome as-sahih”.1-jild, – Toshkent: “Qomuslar bosh tahririyati”, 1991. – B.7.
4. Ислом энциклопедияси: А-Х/Шайх Абдулазиз Мансур таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017. – Б. 328.
5. Педагогика. Энциклопедия. II жилд. Жамоа // Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2015. – Б.207.
6. Tarbiya (1-4- sinf o‘quvchilari uchun darslik). N. Ismatova va b. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
7. Zunnunov A. O‘zbek pedagogikasi tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2000. – 237 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 30.04.2023. // <https://lex.uz/docs/6445145>

Azizova Nazira Tokhtayevna

Tashkent State University of Oriental Studies,
Doctor of science in Economics, Associate Professor

Published under peer review:

Doctor of Philosophy in Economics (Ph.D), Associate Professor

*Kadirova Zulaykho Abdukhalimovna,
Uzbekistan*

Received 4th July 2024, Accepted 11th July 2024, Online 20th August 2024

PROSPECTS AND RISKS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF TOURISM

Abstract. The article discusses the prospects of using artificial intelligence in the field of tourism. Artificial intelligence offers a wide range of artificial intelligences and technologies that can significantly change the travel industry. The article analyzes the positive and negative experiences of using artificial intelligence, considers examples of successful international projects, and highlights the main artificial intelligence risks and problems associated with the implementation of artificial intelligence. It concludes with recommendations for effective and ethically responsible integration of AI into the tourism industry.

Keywords: artificial intelligence, neural networks, tourism, computer vision, big data, risks, prospects

TURIZM SOHASIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA XATARLARI

Annotatsiya. Maqolada turizm sohasida sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari muhokama qilinadi. Sun'iy intellekt sayohat sanoatini sezilarli darajada o'zgartira oladigan keng ko'lamli vositalar va texnologiyalarni taklif etadi. Maqolada sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha ijobiy va salbiy tajribalar tahlil qilinadi, muvaffaqiyatli xalqaro loyihalar misollari ko'rib chiqiladi va sun'iy intellektni amalga oshirish bilan bog'liq asosiy xavf va muammolar yoritiladi. U sun'iy intellektni turizm sanoatiga samarali va axloqiy jihatdan mas'uliyatli integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, neyron tarmoqlar, turizm, kompyuter nigohi, katta ma'lumotlar, xavflar, istiqbollar.

**ПЕРСПЕКТИВЫ И РИСКИ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО
ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРЕ ТУРИЗМА**

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы использования искусственного интеллекта в сфере туризма. Искусственный интеллект предлагает широкий спектр искусственных интеллектов и технологий, которые могут существенно изменить туристическую индустрию. В статье анализируется положительный и отрицательный опыт использования искусственного интеллекта, рассматриваются примеры успешных международных проектов, а также выделяются основные риски и проблемы искусственного интеллекта, связанные с внедрением искусственного интеллекта. В заключение приводятся рекомендации по эффективной и этически ответственной интеграции искусственного интеллекта в туристическую индустрию.

Ключевые слова: искусственный интеллект, нейронные сети, туризм, компьютерное зрение, большие данные, риски, перспективы.

Kirish (Introduction)

Butunjahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) hisobotiga ko'ra, 2023 yilda ushbu sektor global yalpi ichki mahsulotga 9,1% hissa qo'shgan [1], bu uning iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Turizm, dinamik va mijozlarga yo'naltirilgan sanoat sun'iy intellektida ayniqsa innovatsiyalarni tez qabul qiladi. O'sib borayotgan raqobat va sayohatchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlari sharoitida sayyohlik kompaniyalari doimiy ravishda biznes jarayonlarini optimallashtirish yo'llarini, xizmatlarni oshirish va mijozlarni jalb qilish imkoniyatlarini izlashga majbur bo'lmoqdalar [2]. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellektdan foydalanish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari (Research methodology)

Maqolada so'nggi tadqiqot nashrlari tahlili berilgan. Tadqiqot metodologiyasida tizimli yondashuv, kuzatish, taqqoslash, mavhumlashtirish, ideallashtirish va guruhlash usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar (Analyses and results)

Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar bugungi kunda kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular turli sohalarga kirib, o'rgangan jarayonlarni o'zgartiradilar. Biroq, nafaqat imkoniyatlarni, balki tahdidlarni ham tushunish kerak. Ushbu maqolaning maqsadi turizm sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning mavjud ijobiy va salbiy tajribalarini tahlil qilingan. Ushbu masalani ko'rib chiqish zamonaviy texnologiyalar turizm sanoatini qanday o'zgartirishi mumkinligini va xavflarni minimallashtirish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

XXI-asrning boshlarida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, mobil keng polosali ulanishning keng tarqalishi va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi tufayli raqamli axborotni yaratish tezligi sezilarli darajada o'sdi.

Katta ma'lumotlarni (Big Data) tuzish, qayta ishlash, tahlil qilish va undan yangi bilimlarni olish zarurati paydo bo'ldi, bu statistik, mashina, chuqur o'rganish va sun'iy intellektni qayta ishlash sohasi sun'iy intellektda turli usullar va texnologiyalarni ishlab chiqishga olib keldi.

Hozirgi vaqtda texnologiyalar va usullar bir-biriga shunchalik bog'langanki, mutaxassis sun'iy intellektlar uchinchi axborotlashtirish platformasi haqida gapira boshladilar [3].

Ushbu texnologiyalar o'zaro ta'sir qiladi va sinergetik effekt yaratadilar. Ushbu maqolada iqtisodiyotning ma'lum bir sektorida sun'iy intellektidan foydalanishning individual misollarini ko'rib chiqsak, taqdim etilgan tasnif yakuniy emas va kelajakda kengaytirilishi mumkinligini ta'kidlamochimiz. Shuni ham tushunish kerakki, tavsiflangan har bir texnologiyaning samaradorligi butun tizimning ishlashiga bog'liq.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt an'anaviy ravishda inson ishtirokini talab qiladigan muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan intellektual tizimlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan informatika sohasi deb ta'riflanadi. Bunday vazifalarga o'rganish, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ma'lumotni idrok etish va tabiiy tilni tushunish kiradi [4]. AI keng ko'lamli va sun'iy intellektlar, usullar va yondashuvlarni qamrab oladi [5, 6, 7], bu unga oddiy ma'lumotlarni qayta ishlash doirasi intellektidan tashqariga chiqadigan turli vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Sun'iy intellektidagi muhim texnologiyalarni ko'rib chiqaylik.

1. Mashinanalashgan ta'lim - bu tizimlarga ma'lumotlardan o'rganish va algoritmlarini yaxshilash imkonini beruvchi sun'iy intellekt texnologiyasi kiradi. Mashinani o'rganish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Neyron tarmoqlar – inson miyasining ishlashiga taqlid qiluvchi modellar, sayyohlarning xohish-istaklari haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, talabni bashorat qilish va turlar, mehmonxonalar va o'yin-kulgilar uchun moslashtirilgan intellektsiyalar berish imkoniyatiga ega.

- Chuqur o'rganish – ko'p qatlamli neyron tarmoqlar turli tillarda mijozlar bilan tunu-kun muloqot qiladigan, xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun bron qilishda yordam beruvchi va sharhlarni tahlil qiluvchi intellektual chatbotlar va virtual yordamchilarni yaratish uchun foydalaniladi.

- Algoritmlar – sun'iy intellektga narxlarni optimallashtirishdan tortib murakkab sayohat marshrutlarini yaratishgacha bo'lgan turli vazifalarni bajarishga imkon beruvchi aniq ko'rsatmalar.

2. Tabiiy tilni qayta ishlash: kompyuterlarda inson tilini tushunish va qayta ishlash imkonini beruvchi texnologiya. Sayohat materiallari, sharhlar va boshqa ma'lumotlarni matn, audio va video formatlarida turli tillarga zudlik bilan avtomatik tarjima qilish imkonini beradi.

3. Kompyuter ko'rish qobiliyati - bu kompyuterlarga vizual ma'lumotni "ko'rish" va sharhlash qobiliyatini beradigan texnologiya. Amalga oshirilish:

- "Aqlli" videokuzatuv, bu tashrif buyuruvchilarning yuzlarini tanib, xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali sayyohlik obektlaridasizlikni ta'minlaydi.

- Turistlarga real vaqt rejimida diqqatga sazovor joylar haqida qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beruvchi kengaytirilgan reallik.

4. Katta ma'lumotlar - sun'iy intellektni o'rganish va yashirin muntazamlilikni aniqlash uchun ishlatiladigan katta hajmdagi ma'lumotlar. Katta sayohat ma'lumotlarini tahlil qilish, sayyohlarning afzalliklarini tushunishga, tendentsiyalarni aniqlashga va maqsadli reklamani rivojlantirishga yordam beradi.

Quyidagi amaliy tizimlarning ishi yuqoridagi texnologiyalarga asoslangan [8, 9, 10]:

- Robototexnika – sun'iy intellekt bilan jihozlangan aqlli robotlardan, turizm sohasida muntazam ishlarni avtomatlashtirish uchun tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ular muzeylarda gid vazifasini

bajarishi, mehmonxona xizmatlarini (ro'yxatdan o'tish, bagajni yetkazib berish, tozalash) amalga oshirishi, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishi mumkin.

- Ekspert tizimlari – bilim va mantiqqa asoslangan dasturiy ta'minot tizimlari, turizmdagi murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ular sayohat marshrutlarini optimallashtirishlari, viza masalalari bo'yicha maslahatlar berishlari, sayohatni rejalashtirish va tashkil etishni yaxshilashlari mumkin.

- Avtomatlashtirish – sun'iy intellekt mehmonxonalar va sayyohlik kompaniyalarda bron qilish, inventarizatsiya qilish va resurslarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtiradi. Bu xizmatni tezlashtiradi, kutish vaqtlarini qisqartiradi va operatsion samaradorlikni oshiradi.

- Narsalar interneti – sensorlar bilan jihozlangan o'zaro bog'langan qurilmalar, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun ma'lumotlarni yig'adi va tahlil qiladi. Mehmonxonalarda bu aqlli termostatlar, yorug'lik va musiqa senariylari zarur. Transport sohasida - monitoring va nazorat qilish tizimlari kiradi.

- Kognitiv hisoblash – AI turistlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi, xizmatlarni individual ehtiyojlarga moslashtiradi. Bu moslashtirilgan takliflarni yaratish va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash imkonini beradi.

- Avtonom tizimlar – o'zi boshqaradigan transport vositalari (avtobuslar, taksi) va yetkazib berish dronlari ishlab chiqilmoqda va sun'iy sinovdan o'tkazilmoqda. Ularning amalga oshirilishi transport va logistika sohasida inqilobni va'da qilmoqda.

- Intellektual agentlar – sun'iy intellekt asosida ishlaydigan virtual yordamchilar, shaxsiy tavsiyalar va yordam berish orqali sayohatni rejalashtirish va bron qilishda yordam beradi. Ular sayohatni tashkil qilish jarayonini osonlashtiradi va qulayroq qiladi.

1-jadvalda turizm sohasida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan yoki sinov bosqichida turgan eng mashhur xalqaro loyihalar tahlili keltirilgan.

1-jadval.

Turizmda sun'iy intellektdan foydalanish misollari

Kompaniya	Sun'iy intellekt texnologiyasun'iyasi	Qo'llaniladi
Booking.com	Mashinanalashgan ta'lim	Shaxiy savollarga javob berish
Airbnb	Mashinanalashgan ta'lim	Turar joyni sayohat uslubi va qiziqishlarini tanlash
Hopper	Mashinanalashgan ta'lim	Aviachiptalar va mehmonxonalar narxlarini bashorat qilish
TripAdvisor	Ma'lumotlar va sharhlarni tahlil qilish	Restoran va ko'ngilochar joylarda
Amadeus	Ma'lumotlar tahlil qilish va mashinali o'rganish	Turistik yo'nalishlarga bo'lgan talabni bashorat qilish
IBM Watson	Ma'lumotlarni tahlil qilish	Sayohat takliflari
Airbnb	Ma'lumotlarni tahlil qilish	Uy-joy bo'yicha
Expedia	Avtomatlashtirish, Chat-	Mijozlar bilan aloqa va bronlarni qayta

	bot	ishlash
Skyscanner	Avtomatlashtirish, Chat-bot	Aviachiptalarni qidirish va bron qilish
KLM Royal Dutch Airlines	Ekspert tizimi Chat-bot	Yo'lovchilarga aloqa va parvoz ma'lumotlarini taqdim etish
Hilton Hotels & Resorts	Ekspert tizimi Chat-bot	Mehmonlar bilan suhbatlashish
Duolingo	Expert tizimi, Chat-bot	Sayohat kontekstida chet tillarini o'rganish
Dorchester Collection	Virtual assun'iy intellektstant	Mehmonlar so'rovlarini boshqarish va mehmonxona ma'lumotlarini taqdim etaish
Google Arts & Culture	Virtual reality (VR)	Virtual muzey sayohatlari
Tomas Kuk	Virtual reality (VR)	Savdo ofislarida kurortlarga virtual sayohatlar
Google Lens	Neyron tarmoqlari	Suratlardagi diqqatga sazovor joylarni tanib olish
Google Translate	Neyron tarmoqlari	Matn va nutqni tarjima qilish
AirHelp	Ma'lumotlar tahlil qilish va mashinali o'rganish	Parvozning kechikishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil
Marriott International	Narsalar interneti (IoT), ovozli boshqaruv	Ovozli boshqaruv va moslashtirilgan sozlamalarga ega "aqlli" mehmonxona xonalari
Hilton	Kognitiv hisoblash, avtomatlashtirish	Ilova orqali xonalarda yorug'lik va haroratni nazorat qilish
Lola	Kognitiv hisoblash	Sayohatni rejalashtirish va turistlarni qo'llab-quvvatlash
Baidu	Kompyuter ko'rishi	Yuzni tanib olish, aeroportlarda turistlarni aniqlash
Henn-na Hotel	Robototexnika	Robotlar tomonidan boshqariladigan mehmonxona

Sun'iy intellektni optimallashtirish, va mijozlar tajribasini yaxshilash uchun yangi ufqlarni ochib, sayohat sanoati uchun o'zgarishlarning asosiy omiliga aylanmoqda. Mashina o'rganish, tabiiy tillarni qayta ishlash, kompyuter ko'rish va katta ma'lumotlarni tahlil qilish sohalarida sun'iy intellektning integratsiyasi zarur.

Taklif va xulosalar (Conclusion and Recommendations)

Shu bilan birga, sun'iy intellektni turizmga joriy etish, shuningdek, diqqat bilan tahlil qilinishi va e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qator qiyinchiliklar va xavflarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni ikkita asosiy toifaga bo'lish mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy va texnik.

Ijtimoiy-iqtisodiy xavflar quyidagi muammolarni o'z ichiga oladi:

- Ish o'rinlarni qisqartirish. McKinsey Global Instituti prognozlariga ko'ra, 2030 yilga kelib bron qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish butun dunyo bo'ylab 800 milliongacha ish o'rinlarini almashtirishi mumkin [11]. Buning katta ulushi turizm sohasiga to'g'ri keladi.

- Biznes jarayonlarining murakkablashishi. Jarayonlarni to'liq avtomatlashtirishga moslashuvchanlikni va kutilmagan vaziyatlarda moslashish qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin, bu esa tez o'zgaruvchan raqobatbardosh turizm bozorida iqtisodiy muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

- Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi. Turistlarning katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish xavfsizlik va maxfiylik muammolarini keltirib chiqaradi. Ma'lumotlarning tashqariga chiqishi moliyaviy yo'qotishlarga, obro'ga putur etkazadi va sayohatchilar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun tahdid solinishi mumkin. Sayyohlik kompaniyalari ishonchli axborot xavfsizligini ta'minlashi va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilikka rioya qilishlari shart.

- Mehmondo'stlik. Texnologiya har doim ham inson e'tiborini va empatiyasini almashtira olmaydi. Avtomatlashtirilgan tizimlarga qaramlik, ayniqsa, ko'ngilochar va dam olish sanoati uchun muhim bo'lgan an'anaviy turistik marshrutlar hududlarida xizmat ko'rsatishda "inson omili" va o'ziga xoslikni yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

- Etika. Bu, shuningdek, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlardan kelib chiqqan AI tizimlarining ishlashidagi mantiqiy xatolar uchun javobgarlik masalalarini, shuningdek, ayrim hududlar va aholi guruhlari uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni cheklaydigan "raqamli tengsizlik" muammosini o'z ichiga oladi.

Texnik xavflarga quyidagilar kiradi:

- Tizimning har qanday elementining jismoniy yo'qolishi natijasida yuzaga keladigan texnik xatolar va tizimdagi nosozliklar, shuningdek, elektr ta'minotidagi uzilishlar, dasturiy ta'minotdagi xatolar va h.k. Bu nafaqat mijozlar tajribasi va kompaniya obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki inson hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

- Kibertahdidlar: Sun'iy intellekt tizimlari kiberhujumlarga qarshi zaif bo'lishi mumkin va mijozlar uchun soddaligi va foydalanish imkoniyatini keltirib chiqaradi, bu esa ma'lumotlarning tashqariga chiqishi, tizimning buzilishi va boshqa salbiy oqibatlariga olib keladi.

Turizmda sun'iy intellektni muvaffaqiyatli joriy etish uchun ushbu xavflarni hisobga olish va ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bu ishchi kuchining qayta malakasini oshirishga sarmoya kiritish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, avtomatlashtirish va odamlarning o'zaro ta'sir muvozanatini saqlash, shuningdek, ilmiy va ommaviy munozaralar hamda sun'iy intellektidan foydalanishda axloqiy tamoyillarga rioya qilishni o'z ichiga olgan murakkab harakatlardir.

Umuman olganda, turizmда sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari juda katta, biroq ularni amalga oshirish ham potentsial foyda, ham xavflarni hisobga oladigan mas'uliyatli va muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Shundagina sun'iy intellekt turizm industriyasida taraqqiyotning haqiqiy dvigateliga aylanib, uning barqaror rivojlanishiga va raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shishi mumkin.

Adadiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Economic Impact Research. — Текст: электронный // World Travel & Tourism Council: [сайт]. — URL: <https://wttc.org/research/economic-impact> (дата обращения: 24.05.2024).
2. Азизова Н. Т., Эркабоев А. Raqamlashtirish sharoitida xalqaro turizmni rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari // Журнал Инновации в экономике. — 2023. — Т. 6. — №. 5.
3. Мошак Н. Н., Рудинская С. Р., Груздев А. А. Третья платформа информатизации и Big Data // Научные технологии в космических исследованиях Земли. — 2023. — Т. 15. — №. 4. — С. 47-59.
4. Журавков М. А. Технологии искусственного интеллекта и интеллектуальные системы компьютерного моделирования и инженерных расчетов. Вводный курс: учеб. пособие/МА Журавков; БГУ, Механико-математический фак.—Минск: БГУ, 2024.—177 с.: ил.—Библиогр.: с. 170–173. — 2024.
5. Soori M., Arezoo B., Dastres R. Artificial intelligence, machine learning and deep learning in advanced robotics, a review // Cognitive Robotics. — 2023.
6. Яблокова А. А., Калитина В. В., Брит А. А. Цифровое историко-культурное наследие: к вопросу о применении искусственного интеллекта // Редакционная коллегия. — 2024. — С. 23.
7. Корчагин В. Д. Анализ современных SOTA-архитектур искусственных нейронных сетей для решения задач классификации изображений и детекции объектов // Программные системы и вычислительные методы. — 2023. — №. 4. — С. 73-87.
8. Петрунин Ю. Ю. Развитие концепции социального искусственного интеллекта // Вестник Московского университета. Серия 21. Управление (государство и общество). — 2023. — №. 1. — С. 93-112.
9. Молчанов А. Теория и практика распознавания инженерных сооружений, промышленных предприятий и объектов железнодорожного транспорта при дешифрировании аэроснимков. — Litres, 2024.
10. Фахми Ш. С., Соколов Ю. М. Когнитивные вычисления: от больших данных к познанию. — 2023.
11. Jobs lost, jobs gained: What the future of work will mean for jobs, skills, and wages / J. Manyika. — Текст: электронный // McKinsey Global Institute: [сайт]. — URL: <https://www.mckinsey.com/featured-insun'iy-intellektgths/future-of-work/jobs-lost-jobs-gained-what-the-future-of-work-will-mean-for-jobs-skills-and-wages> (дата обращения: 24.05.2024).

TOIRXO‘JAYEV AMIRXO‘JA JALOLIDDIN O‘G‘LI

State Museum of History of Uzbekistan,
Academy of Sciences of Republic of Uzbekistan

*Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
D.Karimova*

Received 4th November 2023, Accepted 11th November 2023, Online 18th December 2023

HISTORY OF COVERAGE OF ANCIENT TURKIC PEOPLES IN CHINESE SOURCES

Abstract. As you know, among the oldest written sources that have come down to us, the ones written in Chinese have a special place and are based on certain traditions. From 2205 to 1766, and from 1766 to 1122 BC, there were small khanates (khokimiyats) called Shya and Shang. Such manuscripts or memoirs, written in the form of pictures, were considered sacred scriptures by divine command, and it was the duty of every noble person, especially rulers, to pass them on from generation to generation, to study and learn from them. There are many well-dated chronological monuments of ancient Chinese history. These are historical works that have come down to us in the form of books.

Key words: Turkic peoples, Rungdi, ancient Di peoples, "Shan-shu" ("Shiszin"-song book) Sima Syan

ИСТОРИЯ ОСВЕЩЕНИЯ ДРЕВНИХ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ В КИТАЙСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. Как вы знаете, среди древнейших письменных источников, дошедших до нас, особое место занимают китайские, основанные на определенных традициях. С 2205 по 1766 и с 1766 по 1122 годы до нашей эры существовали небольшие ханства (хокимияты) Шья и Шан. Такие рукописи или мемуары, написанные в виде картинок, считались священными писаниями по божественному повелению, и обязанностью каждого знатного человека, особенно правителей, было передавать их из поколения в поколение, изучать и учиться по ним. Существует множество хорошо датированных хронологических памятников древней китайской истории. Это исторические труды, дошедшие до нас в виде книг.

Ключевые слова: Тюркские народы, Рунгди, древние народы Ди, «Шань-шу» («Шисзин»-песенник) Сима Сян

QADIMGI TURKIY XALQLARNING XITOIY MANBALARIDA YORITILISH TARIXI

Annotatsiya. Ma'lumki, bizgacha yetib kelgan eng qadimiy yozma manbalar orasida xitoy tilida yozilganlari alohida o'rin tutadi va ma'lum an'analarga asoslanadi. Miloddan avvalgi 2205—

1766, 1766—1122 yillarda Shya va Shang nomli kichik xonliklar (hokimliklar) bo'lgan. Surat shaklida yozilgan bunday qo'lyozmalar yoki xotiralar ilohiy amri bilan muqaddas kitob hisoblanib, ularni avlodlardan avlodga yetkazish, o'rganish, ibrat olish har bir olijanob shaxsning, ayniqsa, hukmdorlarning burchi edi. Qadimgi Xitoy tarixiga oid ko'plab xronologik yodgorliklar mavjud. Bular bizgacha kitob holida yetib kelgan tarixiy asarlardir.

Kalit so'zlar: Turkiy xalqlar, rungilar, qadimgi Di xalqlari, «Shan-shu» («Shiszin»-qo'shiqlar kitobi) Sima Syan.

Kirish (Introduction)

Eramizdan avvalgi I asrda qadimgi Xitoyda yangi tarixiy asarlar paydo bo'ldi. Bu asarlar Xitoy tarixnavisligida katta o'rin tutadi. Ana shunday asarlardan biri Sima Syanning (er. avv. 105-90 yillar) «Tarixiy yozishmalar»i edi. Bu asar qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayoti to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Sima Syan tarixiy voqealarni bayon qilishda kishilar faoliyatini bayon qilish usulini tanlaydi.

Sima Syanning tarixnavislik usulidan «Xan tarixi» muallifi Ban Gu Garbiy Xan (er. avv. 206 yil) sulolasining tarixini yozishda foydalanadi. Ban Gu Xitoy tarixnavisligining yangi «sulolalar tarixi» nomini olgan janr asoschisi bo'lgan». [1,78-79]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Xitoy tarixini arxeologik o'rganishda amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Arxeologik qazishmalar natijasida ilk Shan davriga oid Ermitou shahri, Chansha yaqinida boy qabrlar (er. avv. III asr) topilgan.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligida ikki o'ziga xos xususiyat:

- Xitoy madaniyatining boshqa qo'shni madaniyatlardan ustunligi;
- Xitoy davlatchiligini kelib chiqishini afsonalarga boglab o'ta qadimiylashtirish ajralib turadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Xitoy tarixini o'rganishni o'rta asrlarda Yapon olimlari boshlab berdilar. Yaponiyada Xitoy tarixini barcha davrlari o'rganildi. Mashhur xitoyshunos olim Kaydzuka Sigeki Qadimgi Xitoy davlatlarini shakllanishiga oid kapital tadqiqotlar muallifi hisoblanadi.

Yevropada Xitoy tarixini o'rganishda fransuz tadqiqotchilari katta yutuqqa erishdilar. XX asr boshlarida E. Shavann «Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar»ni tarjima qila boshladi. Mashhur sharqshunos olim fransuz A. Maspero «Qadimgi Xitoy» nomli kapital asarini yaratdi.

AQShda XX asrning 60-yillari oxirida «Qadimgi Xitoy tarixini o'rganish» xalqaro jamiyati tashkil topdi. AQShda Xitoy tarixini kelib chiqishi Xitoydan bo'lgan olimlar o'rganadi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, hukmron sinflar, zodagonlar, shuningdek, ularning mafkurachilari, xususan konfutsiylik vakillari ko'pincha o'zlarining manfaatlarida tarixiy davrlarda yashagan so'z ustalari faoliyatidan foydalanishga intilishgan[2,27].

5. [Майк Пайпер](#) (Social Security Made Simple) 2017, -130 стр; Devin Carroll. Social Security Basics: 9 Essentials That Everyone Should Know Paperback – April 5, 2018. -108 стр; Andy Landis.Social Security: The Inside Story, 2018 Silver Anniversary Edition Paperback – January 10, 2018. -308 стр; [Mr. Mark J. Orr CFP](#) Social Security Income Planning: The Baby Boomer's 2021 Guide to Maximize Your Retirement Benefits Paperback – October 2, 2013. -129 стр
6. Бекмуродов М.Б. Ижтимоий ривожланишнинг субъектив омиллари//Республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2021.-Б.14-17.; Xolbekov A.J. O‘zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy adolatni amalga oshirish muammolari (siyosiy-sotsiologik tahlil). – Toshkent: O‘RPHDJQA, 2001. – B. 32.; Matibayev

- Т. О‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: korrupsiya – ijtimoiy xavf. – Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2019. – B. 69.; Ш.Содиқова. Жамиятни модернизациялаш жараёнида кексаларни ижтимоий ҳимоялашнинг социологик таҳлили/Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент, 2016 йил.
7. Инсон ва ижтимоий ривожланиш: Маърузалар тўплами / В.П.Колесов А.А.Тихомиров таҳрири; Сomp. А.А.Сагратов. – М.: Москва давлат университетининг иқтисод факултети, ТЕИС, 2003 йил.
 8. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ). 2000. Бош Ассамблеянинг йигирма тўртинчи махсус сессияси учун Бутун махсус қўмита ҳисоботи (А/С-24/8 Рев. Нью-Йорк)
 9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ-27 сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони.
 10. Ўша манба. Президент томонидан имзоланган Фармон (ПФ–27, 28.02.2023 й.)
 11. Бобков В.Н., Мстиславский П.С. Качество жизни: сущность и показатели // Человек и труд. 1996. стр. 9
 12. Управление человеческими ресурсами / Под.ред. М.Пула, М.Уорнера. СПб.: Питер, 2002. С. 287
 13. Социальная политика. Учебник. Под.ред. А.М.Бабич, Н.А.Волгин, С.В.Калашников. –М.: 2008. С. 366
 14. Большой толковый социологический словарь. Том 1,2: Пер. С англ. -М.:Вече, АСТ. 1999. Т.1 С. 280-281; Т.2 С. 373.
 15. Маликов Н.С. К вопросу о содержании понятия “качество жизни” и его измерению//Уровень жизни население регионов. 2002. №2. С. 9.
 16. Бобков В.Н. Починков А.П. (ред.) Социальная политика, уровень и качество жизни./Словарь. –М.: Изд-воВЦУЖ, 2001.
 17. Пиддэ А.Л. Социология и здравоохранение. Иваново. 2000. С.33-34
 18. Дэвид У. Пирс. Словарь современной экономической теории. –М.: Инфра. –М.: 1997.
 19. Иқтисодий энциклопедия. Сиёсий иқтисод. / Под.ред. А.М.Румянцева. –М.: Т. 1-4.

Ganjina Azimova
State Museum of History of Uzbekistan,
Academy of Sciences of Republic of Uzbekistan
[**ganjinaazimova324@gmail.com**](mailto:ganjinaazimova324@gmail.com)

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
M.Inatov

PRINCIPLES OF USING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF GREAT SCIENTISTS IN MUSEUM WORK

Abstract: We need to be able to convey to the younger generation what a unique treasure the scientific heritage of our great scientists is, and enjoy this treasure.

Keywords: Scientists, scientific heritage, Renaissance, great, Al-Khwarizmi, Medicine, mathematics, astronomy

MUZEY ISHIDA BUYUK ALLOMALAR ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: Buyuk allomalarimizning bizga qoldirgan ilmiy meroslari naqadar noyob xazina ekanligini yosh avlodga yetkaza olishimiz va bu xazinadan bahramand etishimiz bizning yutug'imiz ekanligi mazkur maqolada keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Allomalar, ilmiy meros, Renessans, al-Xorazmiy, tibbiyot, matematika, astronomiya.

ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ВЕЛИКИХ УЧЕНЫХ В МУЗЕЙНОЙ РАБОТЕ

Аннотация: Нам необходимо суметь донести до молодого поколения, каким уникальным сокровищем является научное наследие наших великих учёных, и насладиться этим сокровищем.

Ключевые слова: Ученые, научное наследие, Возрождение, великий, Аль-Хорезми, Медицина, математика, астрономия.

Kirish. Yurtimiz azaldan buyuk allomalar zamini hisoblanadi. Allomalarimizning ilmiy merosini qancha ta'riflasak shuncha oz bo'lishiga qaramasdan, ularning bizga qoldirgan bebaho ilmiy meroslari bilan maqtangimiz keladi. Beixtiyor bu g'urur tuyg'usi har bir shu yurt farzandidan degan sog'lom ongli inson yuragida jo'sh urushiga shubha yoq, zero shu yurtda o'sib ulg'aygan yoki voyaga yetayotgan inson borki, buyuk allomalarimiz bilan faxrlanib yashaydi. Albatta faqat faxrlanish bu Vatan uchun oldimizdagi burchni

bajarganimizni anglatmaydi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'tgan ajdodlari bilan faxrlanish qalbida Vatanga nisbatan muhabbatning borligini anglatga, Vatanga bo'lgan muhabbat shu Vatanni ulug'lash va e'zozlashga chorlaydi. Qaysi yurtdaki, Vatanga muhabbat tuyg'si kamayib yokida yuqolib ketgan bo'lsa o'sha yurtda rivojlanish va taraqqiyot bo'lmaydi, deb aytsak, adashmagan bo'lamiz. Zero yuragida Vatan muhabbati bor inson uni nomini ko'klarga ko'tarishni istaydi va buning uchun astoydil harakat qiladi. Bizning O'zbekistonimiz o'z oldiga juda ulkan maqsad qo'ygan va bu maqsad yo'lida bizga ana shunday yuragida kuchli muhabbati bor yosh avlod zarurdir.

Mintaqamizda yuksak tamaddun IX–XII asrlarda yuqori bosqichga yetgan bo'lsa-da, ma'rifiy takomil ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ajdodlarimizning ma'rifiy intilishlarini qadimgi “Avesto”, O'rxun-Enasoy bitiktoshlari, Behistun qoyatosh yozuvlari [3:5] va xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan qo'shiqlar, marsiyalar, qahramonlik va marosim qo'shiqlaridan bilib olish mumkin. Tarixdan ma'lumki, bizning ajdodlarimiz har bir davr va zamonda ilm olish istagining kuchliligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ilmiy merosdan foydalanish Muzeylarda ilmiy merosni saqlash va tadqiq qilish bilan bir qatorda, undan foydalanish tamoyillari ham muhim o'rin tutadi. Ilmiy merosni keng jamoatchilikka taqdim etish va uni zamonaviy ta'lim tizimiga kiritish muzeylarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda raqamlashtirish va multimedia texnologiyalarining ahamiyati katta. Zamonaviy muzeylar allomalar asarlarini raqamlashtirib, ular bilan bog'liq ma'lumotlarni ommabop tarzda taqdim etmoqda. Bu esa yosh avlod qalbi va ongiga ilmiy merosni yanada yaqinroq tanishtirish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston” gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „Yangi O'zbekiston” g'oyasi zahirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz” [7], – deb ta'kidladi.

Shuningdek, “O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga — Birinchi (ma'rifiy - IX–XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV–XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. “Bu -jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir”, - deya qo'shimcha qildi Prezident.

Biz yuqorida aytib o'tilgan mana shu ikki uyg'onish davrini o'rgangan holda Uchinchi yangi uyg'onish davrini mukammal va bekamu-ko'st boshlashimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun albatta tarixni chuqur o'rganib, undan to'g'ri xulosa chiqarishimiz kerak bo'ladi. “Tarix – kelajak poydevori” bo'lgani uchun ham biz poydevor mustahkam bo'lishiga astoidil harakat qilmog'imiz va uni to'g'ri talqin qilmog'imiz lozimdir. Hammaga ma'lumki poydevori mustahkam bino also vayronaga aylanmaydi. Shunday ekan, yosh avlodni o'zligini anglatgan holda tarbiyalashimiz bizning oldimizdagi asosiy maqsadga aylanishi zaruriy

shartlardan biridir. Allomalarimizning hali to'liq yoritilmagan manbalarini tadqiq etish, o'rganilgan manbalarni soda va ravon tilda yosh avlodga yetkaza olishimiz zarur.

Tahlil va natijalar. Muzeylar insoniyatning madaniy va ilmiy merosini saqlab keluvchi maskanlar bo'lib, ular insoniyat tarixini, san'ati va ilmiy yutuqlarini keng jamoatchilikka taqdim etadi. Muzeylar orqali qadimgi davrlardan tortib to bugungi kungacha bo'lgan buyuk olimlar va ularning ilmiy merosini o'rganish imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston zaminida tug'ilgan al-Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar jahon ilm-fanning rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularning asarlari va ilmiy yutuqlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan va muzeylar orqali xalqimiz va kelajak avlodlarga yetkazib kelinmoqda.

Yurtimizda biror soha qolmagan undan alloma yetishib chiqmagan bo'lsa, qaysi soha yoki fanni olmaylik unda namuna bo'la oladigan ilmiy meroslarimiz yetarli. Tibbiyot, rioziyot, handasa, falakiyot yoki ilmi nujum, jug'rofiya, kimyo, falsafa, adabiyot bundan tashqari islom diniga oid hadisshunoslik, fiqh ilmi, arab tili gramatikasi va boshqalar. "Sharq Renessansi iborasi va fikri ilk bor yevropalik Sharqshunos olim A.Metsning "Musulmon Renessansi" kitobida ilgari surilgan edi. Bu asar IX–X asrlardagi arab xalifaligi tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, ko'plab olimlarning diqqat-e'tiborini jalb qildi"[4:447]. Bizning allomalarimizning ilmiy merosini chuqur o'rgangan Yevropa taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga yetgani, o'zimizning yurtimizda esa, xonliklarning bir-biri bilan toju-taxt uchun ayovsiz kurashlari, XIX- asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasining yurtimizga bositirib kirishi, undan keyingi sobiq sovet davlatining tarixni o'chirishga urinishlari, jahon mamlakatlariga nisbatan orqada qolishimizga ma'lum ma'noda sabab bo'lgani hech kimga sir emas.

Abu Ali ibn Sino Yevropada Avitsenna nomi bilan tanilgan bo'lib uning tib ilmiga oid risolalari Sharq hamda G'arbda juda mashhurdir. Buning yorqin isboti sifatida dunyoni lol qoldirib kelayotgan "Tib qonunlari"ni tilga olishimiz mumkin. Abu Ali ibn Sinoning tibbiy va farmatsevtik bilimlarning bir tizimga solinishi, tashxislash va davolashning yangi usullari, ma'danlar transmutatsiyasi imkonlarining tahlili bu tabiiy fanlarda amalga oshirgan ulug' g'oyalarining ba'zilaridir. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" hamda "Sayyohlar uchun qo'llanma" ("Fiy tadbir al musofiriyn") asarlari - tibbiyot ilmi mutaxassislari va umuman, dunyo ahli uchun xizmat qilib kelmoqda[9].

"Algebra" atamasining asosguzori Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783–850) ning matematika sohasidagi buyuk risolasi "al Jabr" ya'ni ("Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala") hamisha Yevropa olimlarining diqqat markazida bo'lgan. Al-Xorazmiy tarixda hindlar kashf etgan 0 dan 9 gacha bo'lgan 10 ta raqam bilan har qanday sonni yozish mumkinligini, uning murakkab rim raqamlaridan afzalliklarini isbotlab berdi. Algoritm tushunchasi hozirgi zamon kibernetika, EHM (elektron hisoblash mashinasi) va hozirgi zamon informatsion texnologiya hamda jarayonlarning asosiy kategoriyasiga aylandi. Xorazmiyning geografiya, tarix, astronomiya fanlari sohalari bo'yicha qilgan xizmatlari beqiyos. Xalifa Ma'mun olimlar oldiga Osmon va Yerning to'liq xaritasini tuzishni vazifa qilib belgilagan. Xorazmiy bu ishlarga bevosita rahbarlik qilgan. Xaritalar "Majmui al-

Ma'mun", "Dunyo xaritasi" nomi bilan yuritilgan va u 840-yillar atrofida nihoyasiga yetkazilgan. Shu munosabat bilan Xorazmiy jo'g'rofiyaga oid "Kitobi surat al-arz" nomli asar yaratgan. [8] Buyuk bobokalonimiz nafaqat yetuk matematik, balki kuchli astronom va geograf ham bo'lgan. Yana bir buyuk astronom, geograf va matematik bobomiz Ahmad al-Farg'oniy bo'lib, uning uning ilmiy merosi jahon ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Bu kabi allomalarimiz juda ko'plab bo'lib, ularning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Nafaqat matematika geografiya, astronomiya balki geodeziya va minerologiya fanlari bilimdoni, ko'plab ilmiy risolalar muallifi Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Ahmad (973-1048) o'zining ilmiy meroslari bilan ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning "Geodeziya" asari hali hanuzgacha geodeziya sohasining asosiy qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Bu kabi allomalarimizning ilmiy merosini o'rganish va uningni zamonaviy dunyo bilan bog'lash O'zbekistonimizni taraqqiyot sari boshlashi, yoshlarimizni dunyoviy ilmlarni chuqurroq o'rganishiga da'vat etadi.

Vatanimiz tarixida, nafaqat ilm-fan rivoji balki harbiy, davlat boshqaruv qolaversa, sport sohasida ham yetuk insonlarning yetishib chiqqanligi ular to'g'risida haligacha faxrlanib tarflashimiz hammaga ma'lum. Bugungi yoshlarimizga ana o'shanday yetuk insonlarning Vatani va xalqi uchun ko'rsatgan jasoratlarini, ularning insoniylik, mardlik haqidagi tushunchalarini singdira olishimiz zarur. Buyuk bobokalonimiz sohibquron Amir Temurning "Temur tuzuklari" dagi pand-nasihatlari har bir insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi va tug'ilib o'gan dargohiga, Vataniga nisbatan muhabbatli bo'lishga chorlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Yangi O'zbekiston poydevorini allomalarimizning ilmiy merosini chuqur o'rgangan va uni hayotga tatbiq etgan holda boshlashimiz, uning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Bu yurt allomalar, mard o'g'lonlar va jasur insonlar yurti. Shunday ekan, har birimizning oliy maqsadimiz yana shunday allomalarni yetishtirib chiqarish va Vatanimizni yetuk taraqqiy etgan davlatlar safiga kirishiga hissa qo'shish bo'lmog'i zarur. O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan buyuk allomalarning asarlarini kelajak avlodlarga yetkazish, ilmiy va madaniy merosni saqlab qolish orqali, ilm-fanning rivojiga ulkan hissa qo'shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017.
3. N.Uluqov. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy lisoniy tadqiqi. – T.: Fan, 2008.
4. Sagdullaev. A.S. O'zbekiston tarixi I kitob. -T.: "Vnesinvestprom" 2019.
5. Sobirov.A. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: Akademiya 2013.
6. Murtazayev.R. O'zbekiston tarixi. -Toshkent, 2001.
7. <https://www.gazeta.uz/oz/>
8. <https://oyina.uz/uz/generation/199>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/>
10. www.avicena.uz

G'oyibnazarova Mahmuda

*Junior Research Fellow of the Institute of history of
the Academy of Sciences of Uzbekistan*

mahmudakarimova9@gmail.com

ORCID: 0009-0004-6100-4061

Published under peer review:

Doctor of Science in History, professor D.Jamolova

COVERAGE OF THE KHOKAND EDUCATION SYSTEM IN THE MAGAZINE “OYINA”

Abstract: The magazine “Oyina” is one of the sources that reveal the socio-economic and political life of Turkestan at the beginning of the 20th century. This article is devoted to the analysis of articles published in the magazine “Oyina” by Mahmudhodja Behbudi about the education system in Khokand. Below are the headings “New school in Khokand”, “Kokand school Rushdai Islami”, “Letter from Khokand”, “Voice of Khokand”, “Khokand and Muslims”, “Complaint: gentlemen teachers from Khokand” these articles were analyzed and highlighted the education system in Khokand during this period.

Key words: “Nashriyoti Behbudiyya”, “Oyina”, schools of new methodology, secondary schools, textbooks, education.

XO‘QAND TA‘LIM TIZIMINING “OYINA” JURNALIDA YORITILISHI

Annotatsiya. “Oyina” jurnali Turkistonning XX-asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotini ochib berishga xizmat qiluvchi manbalar sirasiga kiradi. Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnalida chop etilgan Qo‘qondagi ta‘lim tizimiga oid bo‘lgan maqolalarning tahliliga bag‘ishlangan. Quyida “Xo‘qandda yangi maktab”, “Xo‘qand maktabi rushdiyai islomiyasi”, “Xo‘qanddan maktub”, “Xo‘qand avzoyi”, “Xo‘qand va musulmonlar”, “Shikoyat: Xo‘qanddan janob muallimlar” sarlavhali maqolalar ma‘lumotlari tahlil qilinib, ushbu davrda Qo‘qondagi ta‘lim tizimi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. “Nashriyoti Behbudiyya”, “Oyina”, yangi usul maktablari, o‘rta maktablar, darsliklar, maorif.

ОСВЕЩЕНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ХОКАНДА В ЖУРНАЛЕ “ОЙИНА”

Аннотация. Журнал “Ойина” входит в число источников, раскрывающих социально-экономическую и политическую жизнь Туркестана в начале XX века. Данная статья посвящена анализу статей, опубликованных в журнале “Ойина” Махмудходжи Бехбуди о системе образования в Коканде. Ниже приведены заголовки “Новая школа в Хоканде”, “Кокандская школа Рушдйи Ислами”, “Письмо из Коканда”, “Голос Коканда”, “Коканд и мусульмане”, “Жалоба: господа учителя из Коканда” данные статей были проанализированы и выделена система образования в Коканде в этот период.

Ключевые слова “Нашриёти Бехбудийя”, “Ойна”, школы новой методики, средние школы, учебники, образование.

Kirish (Introduction)

19-yuzyillikning oxiri 20-yuzyillikning boshlarida jadidlar o'zlarining jamiyatni yuksaklik sari eltuvchi g'oyalarini asarlari, matbuotdagi chiqishlari orqali xalqning ongiga singdirib borishga harakat qilganlar.

Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudi birinchilardan bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilish, ilm o'rganish afzalligi, zamonaviy bilimlarning o'zlashtirilishi taraqqiyot poydevori ekanini ta'kidlagan. Bunga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Uning "Sayohat xotiralari" dan tortib "Oyina", "Samarqand" va boshqa nashrlardagi maqolalarining asosi ma'rifatga targ'ibdir[1:24]. Davriy matbuotda nafaqat jadidlarning, balki Turkistonning taraqqiy topishi yo'lida bel bog'lagan xalq orasidagi insonlarning ham maqola, maktub, xabarlar nashr etilgan.

Ushbu maqolada XX yuzyillik boshlarida Qo'qondagi mavjud ta'lim tizimi, ma'rifat kutubxonasi, muallimlar faoliyati haqida ma'lumot beruvchi "Oyina" jurnalida nashr etilgan maqolalardan bir qancha qismi tahlil qilingan bo'lib, davriy matbuot sahifalarida nashr etilgan maqolalar ilm-ma'rifatga targ'ib bilan birga o'sha davr muhiti haqida tarixiy ma'lumotlarni ochiqlab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

"Oyina" jurnali haqida dastlabki ma'lumotlar Behbudiyning zamondoshlari Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Hoji Muin, Laziz Azizzodalar tomonidan yozib qoldirilgan. Bu ma'lumotlarda jurnalning millat uchun xizmatlari e'tirof etilgan. Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida G.Andreyev, sovet davrida Ziyos Said, 20-yuzyillikning 80-yillari o'rtalaridan jadidchilik masalasi kun tartibiga chiqqan boshlagach, A.Aliyev, Sh.Turdiyev, S.Ahmedov kabilarning tadqiqotlarida Behbudiyning ijod faoliyati yoritildi. Ularda "Oyina" jurnaliga ham munosabat bildirildi.

Mustaqillik yillarida "Oyina" jurnali ustida bir qancha olimlar ish olib borgan bo'lsalarda, ularning aksariyati tilshunoslik tadqiqotlari sirasiga kiradi. Shuningdek, ko'plab jadidshunos hamda behbudiyshunos olimlar o'z asarlarida "Oyina"dan iqtiboslar keltirgan hollarida fikr-mulohazalarini bayon etganlar. Jurnalning mohiyatini ochib berishda tarixchilar Dilorom Alimova, Dilbar Rashidova, Dono Ziyayeva, Sanobar Shodmonova, Dilnoza Jamolova; adabiyotshunos olimlar Begali Qosimov, R. Tojiboyev, Sh. Rizayev, H. Saidov, N. Abduazizova, M. Xudoyqulov, Naim Norqulov, Kamoliddin Rabbimov, N.Namozova, H.Boltaboyev, Gulnora Nishonova, Zaynobidin Abdirashidov, Nodira Egamqulovanning asarlari asosiy o'rin tutadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlarda aynan Qo'qondagi mavjud ta'lim tizimi haqidagi ma'lumotlar tahlil etilmagan.

"Oyina" jurnali bilan yaqindan tanishib, Behbudiyning qator maqolalarini yangicha nuqtai nazar bilan tahlilga tortgan adabiyotshunos Solih Qosimov[10] "Behbudi va jadidchilik" maqolasida jurnalda chop etilgan qadim va jadid munozarasiga e'tiborni qaratgani, shuningdek, N.Avazov, H.Saidov, Z.Ahrorovalar olib borgan tadqiqot ishlarida Behbudiyning ma'rifiy qarashlari, publitsistik, noshirlik va muharrirlik faoliyati o'rganilgani, ayniqsa, H.Saidovning "Ma'rifat libosidagi ozodlik" kitobida "Oyina" jurnali va uning muharriri hamda noshiri Mahmudxo'ja Behbudi faoliyati keng yoritilgani haqida Gulnora Nishonova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida ta'kidlaydi[11:5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot jadidchilikni tadqiq etgan olimlar Dilorom Alimova, Dilbar Rashidova, Dono Ziyayeva, Sanobar Shodmonova, Dilnoza Jamolova, Begali Qosimov, R. Tojiboyev, Sh. Rizayev, H.Saidov, N. Abduazizova, M. Xudoyqulov, Naim Norqulov, Kamoliddin Rabbimov, N. Namozova, H. Boltaboyev, Gulnora Nishonova, Zaynobidin Abdirashidov, Nodira Egamqulova va boshqalarning ishlarini qiyosiy-tarixiy metod yordamida tahlil etish asosida yozildi. Maqolada “Oyina” jurnalidagi Qo‘qonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga oid bo‘lgan maqolalarga asoslangan holda ta‘lim tizimi yoritildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

“Oyina” jurnalining 1913 yil 10-sonida “O‘zbek” imzosi bilan “Maktab masalasi” maktubi nashr etilgan bo‘lib, unda Qo‘qondagi usuli savtiya maktablarining soni, aholining maktablarga bo‘lgan himmat va e‘tibori, shu bilan birga maktablardagi muallimlarning bilim darajasi haqida ma‘lumot beradi. Unga ko‘ra usuli savtiya maktablari kundan kun soni ortayotgani xalqning muhabbatiga sabab bo‘lgani bilan bir qatorda uch-to‘rt maktabning istisno qilingani holda boshqa maktablarda tartib yo‘qligi hamda muallimlarining usuli savtiya va ta‘limdan go‘yoki xabarlarini yo‘qdek o‘zlarini tutishlari haqida fikr yuritiladi.

Maktab ta‘limini yaxshilash orqali yoshlarning xulq-atvori, odob-axloqi, ta‘lim-tarbiyasini ham yuksaltirish o‘sha davr muhiti uchun zarur bo‘lgan omillardan biri edi. Jamiyatda insonlar bolalar tarbiyasiga jiddiy qayg‘urganligini quyidagi jumladan anglab olish mumkin: “Bechora millat bolalarining qiymatli vaqtlarining bekorga o‘tkorub, umrlari zoye bo‘lmoqdadir. Agarda bu maktablarning muallimlari yaxshi o‘qushli va usuli ta‘lim va tarbiyadan xabardor bo‘lsalar edi, Farg‘onada bizning shahar maorifda birinchilik qozonub hamma shaharlardan olda bo‘lur edi?”[234-236].

Qo‘qon shahrida o‘z kasbiga vafoli bo‘lgan muallimlardan uch to‘rt nafari yoz oylarida mashvaratga to‘planib sifatli ta‘lim berish xususida dastur ishlab chiqadilar. Ushbu dasturni yangi o‘quv yili boshlanmasidan avval barcha maktablarga yuboradilar. Muallimlar mazkur dasturni qo‘llab-quvvatlab, shu orqali ta‘lim berishni boshlaydilar. Lekin, ko‘p vaqt o‘tmasdan yangi, yosh bo‘lgan o‘qituvchilardan bir qanchasi ushbu dastur bo‘yicha dars berishdan bo‘yin tovlab, o‘zbilarmonlik qiladilar. Bunga sabab yosh muallimlar geografiya, tarix fanlaridan yetarlicha bilimga ega bo‘lmaganliklari ko‘rsatiladi: “Agarda yangi muallimlar nafsoniyat qilmasdan bilmaganlarining bilganlardan o‘rgansalar ko‘b yaxshi bo‘lib millat bolalarining vaqtlari zoye bo‘lmas edi?”[3:234-236] Ushbu davrda Qo‘qonda 3 ta bob rus va musulmon maktablarida uch yuzga qadar, shahar maktabida o‘n beshga yaqin, tijorat maktabida ham yetti, sakkiz musulmon bolalari ta‘lim olishgan. Ruscha ta‘lim oluvchilar soni ham ortib borgan. Bundan tashqari aksariyat bolalar xususiy muallimlarda ham ta‘lim olgan.

Ushbu maktubga javoban “Oyina” Xo‘qanddagi usuli savtiya maktablarining ko‘pligi, jarida va majallaxonlarning, taraqqiyparvarlarning ilm va maorifga havasliklari mavjudligi, lekin ish bu bilan tamom bo‘lib qolmasligi, balki yanada himmat va g‘ayrat ko‘rsatish kerakligi haqida yozadi. “Yangi yosh muallimlarni hozirda mas‘ul qilolmoymiz. Azbaski alar usuli ta‘lim ko‘rmogon va fan o‘qumogondurlar.”[3:234-236]. Yosh muallimlarga “oqshom darsxonalari” ochib unda tajriba ko‘rgan va fan bilguvchi muallimlar yosh va yangi muallimlarni jamlab, ularga bilganlarini amaliy

yo'sinda o'rgatish choralari ko'rish kerakligi aytilgan. Agar shunda ham yosh muallimlar iltifot etmasalar ana o'shanda ularni ayblab tanqid qilish o'rinli bo'lishi ta'kidlangan. Shuning bilan birga "Oyina" muxbiri mana shu maktub sababli "Oyina" sahifalarida "Yer" to'g'risida ma'lumot berib borish boshlangani, shoyadki buni talabalar hamda muallimlar ko'rib, o'qib ilm olsalar deya maqsad qilingani aytib o'tilgan. "Oyina" sahifalarida ilmi ashyo, usuli ta'lim, xulosai maktab va talabalar haqida maktub yozuvchilarga o'rin ajratilganligi, shu sababdan bilguchilar o'zlarining ma'lumotlari bilan o'rtoqlashishlari mumkunligi haqida so'z borgan. Xo'qandning arboblari, taraqqiyxohlaridan o'z mehmonxonalaridan birini haftada besh oqshom va har oqshom 2 soat millatning xodimlari va muallim afandilarga ochib qo'yishlari xalqning taraqqiy va saodatiga sabab bo'lishi aytilgan. Ushbu jarayonlar natijasida yangi o'qituvchilarning bilim va malakaga ega bo'lishlari hamda maktab o'quvchilarining savodi oshib, zamonaviy, jamiyat uchun kerakli bo'lgan sohalardan xabardor bo'lishlari ko'zda tutilgan.

"Xo'qandda yangi maktab" deb nomlangan xabar Akobir Mansuriy tomonidan "Oyina"ga yo'llangan bo'lib, jurnalning 1913-yil 10-sonida nashr etilgan. Unda qo'qonlik yoshlardan biri bo'lmish usto Eshmuhammad Abulqosim o'g'li Qibchoq ariq mahallasining masjidig'a usuli jadida uchun bir bob maktab va ham ikki adad hujra bino qilganligi bayon etiladi. Ushbu maktab 150 nafar bola o'qishi uchun mo'ljallangan. "Mazkur maktab uchun muallimlikg'a janob fazilatpanohi mullo Abdulvahob muallimni shogirdlaridan muallim mullo Hakimjon Mirzo Ali o'g'li ta'yin bo'lindilar. Muallim janoblari sai va g'ayratlari bolalar borasig'a yaxshi bo'lub mazkur maktab ochilgon vaqtda – 60 nafar bola bor edi. Alhol ikki oy bo'ldi 90 nafar bo'ldilar." [2:236-237]. Maktab binosi xarajatlari uchun Eshmuhammad Abulqosim o'g'li bir ming so'm miqdorda mablag' sarf etgan. Ushbu xabardan ko'rinib turadiki, yangi usul maktablariga bo'lgan e'tibor, ana shunday maktablarni tashkil etishda jonbozlik ko'rsatish xalq orasida ijobiy baholangan. Dastlab o'quvchilarning soni kam bo'lgan holda ikki oy muddatdan so'ng o'ttiz nafarga ortganligi quvonarli holdir.

"Oyina" jurnalining 1914 yil 15-sonida "Xo'qand maktabi rushdiiyai islomiyasi" nomli maqola e'lon qilingan. Unda "Oyina" idorasiga Xo'qanddan bir talabnoma kelgan va bu talabnomaga javoban ushbu maqola nashr etilgan. Xo'qand taraqqiyparvarlaridan Orifjon boybacha Husaynuf janoblari "Maljai sibyon"¹ nomi ostidagi ibtidoiyya maktabini "Maktabi rushdiiyai islomiya" ga tabdil etish vazifasini o'z zimmalariga olganligi va shu munosabat bilan idoraga ushbu to'g'risida ba'zi narsalarni yozishligi talabini qo'ygan. Quyida uning asosiy mazmuni bayon etiladi:

"Oyina idorasi Orifjon janoblari va ham Xo'qand yoshlarini – Maktabi rushdiiyai islomiya – ning ta'sisi ila tabrik etib fikri ojizonasini qisqalik ilan tubinda bayon etor. Bizcha kerak shunday bo'lsun. 1) maktabg'a munosib ism qo'yulsun 2) vasi pro'grom tuzob inspekturdan ruxsat olinsun. 3) ruscha muallimig'a seminoriya ya'niy dorul muallimin tamom etgon kishidan olinsun. Ruschani yaxshilob o'qutulsun toki ushbu maktabdan tog'ri aql martaba (Gorudiskiy ushku = shahar maktabig'a – kirolsun) 4) ilmi diniy, torix va jug'rofiya, sarf va nahv arabiy forsiy va o'zbekiy usuli tahrir va daftardoriy hay'at handasa torixi rusiy va imsoliy ham fihrist ta'limg'a kerak doxil bo'lsa 5) maktabni idora va moliya jihati uchun bir hay'at ta'lim va fihrist durus jihatindan bir hay'at tashkil topilsun maktabni muddat tahsili olti sanalik bo'lub hozirki usuli jadida maktablarinda uch sana

¹ Maljai sibyon - Bolalar (go'daklar) boshpanasi.

o'qugon bolalarni olinib 1 inchi yo 2 inchi yildan ruscha ham ta'lim berilsun 6) Ruscha o'qutmoq jabariy (majburiy)bo'lmoy talaba valiylarini rizoliki ilan bo'lsun 7) Shahar maktabig'a kirmoqni qasd etgon bolalarg'a fandan ozroq berib oning evazinda ilmi diniy va adabiyoti milliydan ziyodaroq ta'lim berilsun 8) maktabda to'rt besh muallim kerakdur. Har bir muallimni iqtidorig'a qarob darslarga tayinlonur 9) fihris dars, taqsimi sabaq va tayin kitob uchun jamiyati mualliminni aksar raiya ila qaror berilsa kerak 10) maktab bog'chalik vasi bir yerda bo'lub to'rt besh uydin iborat va bir uy masjid uchun qaror berilur. Hifzi sihati va riyozati badaniyya va o'zga lavozim madaniyya e'tiborg'a olinmoqi lozimdur. Alloh taolodan xo'qandiy birodarlarga himmat tilob arzimizni tamom qilormiz.”[4:259-260]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turadiki, maqolada maktab ta'limini tashkil etish va tizimli ravishda rivojlantirish uchun bajarilishi kerak bo'lgan amallar batafsil yoritib berilgan. Diniy ilm, tarix, geografiya, arab tili, sarf va nahv, fors tili, rus tili kabi fanlarni ushbu dargohda o'qitilishi ta'lim oluvchilarni zamonaga kerakli kasb egalari bo'lib yetishi uchun xizmat qiladi.

“Oyina” jurnalining 1914 yil 32-sonida Xavfimqul o'g'li janoblaridan “Xo'qanddan maktub” nomli xabar nashr etiladi. Muallif ushbu maktubida zamona ahlining fikrlari oydinlashib, millat taraqqiyoti uchun fidokorlik bilan har yerda maktab tashkil etayotganlarini murod gulining g'unchasi ochilayotganiga qiyoslaydi. Ammo, maktab binosi 4-5 dona tereza va 8-10 adad nimkatdan iborat degani maqsad bitdi degani emasligi, balki maktabda faoliyat olib boruvchi muallimlarning ta'minoti uchun yetarlik darajada mablag' kerakligi aytiladi. “Lekin bul matlab ham bolalarning oylikidan yoinki bir – ikki nafarning bergon bir necha so'm ionalaridan hosil bo'lmos, millat bolalarining ruhoniyy murabbisi bo'lgon muallimlarga, va millatning faqir va navosiz farzandlari foidasig'a vaqflar tayin qilmoq kerakdur”[9:278-280]. Maktablar uchun vaqflar tashkil qilish orqali ilm dargohlarining moddiy jihatini yaxshilash, muallimlarning faoliyatini doimiy ravishda ta'minlash uchun kerakli bo'lgan mablag' va ehtiyojlarni qondirish mumkun bo'ladi.

Ushbu maktub davomida Xo'qand kitob bozorida ma'rifat kutubxonasi mavjudligi hamda “Nashriyoti Behbudiyya” ning barcha asarlari bilan birgalikda turli eski va yangi kitoblar va xaritalar kutubxonada mavjud ekanligi xabari berilgan. Mazkur kitoblarning bahosi arzon ekanligi ko'rsatilgan.

“Mansuriya” nomli yangi va eski kitoblar va jarida do'koni ham mavjud bo'lib, uning mudiri Ayniddin afandi bo'lgan. Bu haqida “Oyina” jurnali 1914 yil 16-sonida nashr etilgan “Shikoyat: Xo'qanddan janob muallimlar” nomli maktubda xabar beriladi. “Madoro” ismli boshqa bir kitob do'kon ham ushbu yilda tashkil etilgan. Uning mudiri esa Mir Azim Ibrohim o'g'li janoblari bo'lgan[9:278-280]. Tez fursatda matbuot do'konlari yana ochilish arafasida ekanligi xabari berilgan. Millat taraqqiyoti, kishilarning manaviy tafakkuri yanada o'sishi uchun xizmat qiluvchi bunday kutubxonalarning mavjudligi o'sha davrda ilm olish uchun Turkiston xalqining ishtiyoqi yuqori ekanligidan darak beradi.

“Oyina” jurnalining 1914 yil 34-sonida ham “Xo'qanddan maktub” nomi ostida xabarlar nashr etilgan bo'lib, Mirzohid Mirobid o'g'li ushbu maktubida maktablarni a'lo baholarga tamom qilgan millat farzandlari haqida xabar beradi. “Ushbu yil Tijorat maktabini yoshlarimizdan janob Nazir To'raqul o'g'li tillo medol ila tamom qilub chiqdi. Yana tahsilni davom qildurmak uchun “Maskov oliy tijorat maktabi”g'a bormoqchidir. Bu yil yana Xo'qand yoshlaridan janob Ibrohim

Muhammad o'g'li Nozim, Toshkand dorul mualliminni tamom qilub chiqdi. Bu keyingi yillarda yoshlarimizning ilm va fan zamonig'a rag'bat qila boshlogonlari shoyon mamnuniyatdur. Janobi Haq mundoy zotlarning imsolini ortdursun edi!..."[6:813]. Ushbu voqeani zikr etish orqali muallif iqtidorli talabalarning boshqa millat vakillariga o'rnak bo'lishini maqsad qilgan.

"Oyina" jurnalida o'sha davrda faoliyat yuritayotgan boshqa gazeta va jurnallardan ham maqola, xabarlar olinib nashr etilgan. Masalan: 1914 yil 29-sonida "Xo'qand avzoyi" sarlavhasi ostida nashr etilgan xabar "Quyosh" jaridasidan olingan. Ushbu xabarga ko'ra Xo'qandda yangi usul maktablari faoliyat yuritgani bilan ularda ta'lim berish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi aytiladi:

"Xo'qandda o'qutu ishlari zohiran yaxshi ko'runib ammo maktab ichlari ma'naviy xarobazorg'a o'xshor ekon. Munda bir necha usuli jadida maktablari bo'lib ichlarida yuz nafardan shogirdlar ko'runsada, usuli ta'lim va tarbiyadan xabardor muallimlar ko'rib bo'lmos ekon. Xo'qand muallimlari "Usuli savtiya" maktabini suistemol qilib, ulum xonalarni savdo yurtlarig'a aylonturibdurlar."[7:564]. Maktablar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, unda ta'lim oluvchi bolalarning vaqtlarini unumli o'tkazish, zamona talabiga mos ravishda ta'lim berish, albatta, muallimlarning yelkasidagi vazifalaridan biri edi. Bolalar ilm olish ishtiyoqida yonayotgan bir vaqtda ularni fanga qiziqitirib, dars berish usullaridan foydalangan holda darsxonalarni o'quvchilar bilan to'ldirish kerakligi maktab ta'limining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan.

Ta'lim olish zarur bo'lgan ana shunday davrda yetarli darajada bilim va tarbiya berish usullaridan xabari bo'lmagan muallimlarning maktablarda faoliyat yuritishlari natijasida ilm dargohlaridan moddiy va ma'naviy jihatdan yuksaklikka intilish harakatida bo'lgan yoshlarni yetishib chiqishlari qiyin bo'lgan.

Ushbu davrda Xo'qandda 15 ga yaqin savdo banklar, mashhur chit firmalari faoliyat yuritilganligi, katta paxta korxonalari mavjud bo'lganligi haqida bizga jurnalning 1913 yil 8-sonida nashr etilgan "Xo'qand va musulmonlar" nomli maqola xabar beradi. Shunday bo'lishiga qaramasdan "shundoq katta savdoxona bo'lgon Xo'qandda biz musulmonlarning na moddiy va na ma'naviy taraqqiy jihatlarda zarra qadar harakat va tashabbus ko'runmoydur. Maktab, madrasa, o'quv o'qutuv ishlari shul darajada fanodurki zikrg'a hojat yo'q! Ajabo!! Xo'qandning yerli xalqi musulmon bo'lub andagi aholining yuzda to'qsonini tashkil bersa ham moddiy va ma'naviy jihatig'a qaragonda maattaassuf yuzda o'ng'a ham yetmoydur."[8:186-187]. Xo'qandda naqadar savdo-sotiq o'rni bo'lsada bular asosan yahudiylar qo'lida bo'lgan. "Musulmonlar qo'lida bo'lgon bir necha nomuhum ishlar ham kundan kun qo'llaridan chiqib turubdur. Buning sababi nimadur? Albatta o'zimizning nodonlig'imiz, va zamoncha ilmsizligimiz va istiqbolimizni o'ylamogonimiz, dunyo ahvolidan bexabar bo'lmoqimizdur. Bizlarning mundoq nodon, dunyo va oxiratdan mahrum bo'lmoqimizning sababi na bo'lsa kerak? Albatta o'qumoy o'qutmoy va o'qu yo'lida hich bir harakat qilmogonimizdur."[8:186-187]. Millat o'z taraqqiysi yo'lida qanday ishlarni amalga oshirishi kerakligi haqida ma'lumotga, bilimga ega bo'lgan Turkiston xalqi bu maqsadga eng avvalo maktab ta'limini isloh qilish, yoshlarni tarbiyalash orqali erishish mumkin ekanligini ham bilganlar. Ana shunday sharoitda eski maktablarni yangi usul maktablariga o'zgartirish, ushbu dargohlarda ham zamoncha ham diniy ilmlar, xorijiy tillarni talab darajasida ta'lim beraoladigan muallimlarga ehtiyoj katta bo'lgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa shuki, XX yuzyillik boshlarida Turkistonda, xususan, Xo‘qand shahrida ta’lim tizimi, matbuot, kutubxona ishlariga e’tibor qaratish asosiy bajarilishi kerak bo‘lgan amallarning eng yuqorisida turgan. Xo‘qand aholisi ilm-fan, ma’naviyat, tarbiyaga e’tibor qaratishlikni millatning taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan harakatlardan ekanligini anglab turgan hollarida, yangi usul maktablarini yaratish, bolalarni ushbu maktablarda ta’lim olishini tashkil etish, ularni zamonaga mos bo‘lgan kasb egasi bo‘lib yetishib chiqishlarida jonbozlik ko‘rsatishga harakat qilganlar. Taraqqiyparvarlar jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rib turgan hollarida, mavjud maktablarni isloh qilishga, unda ta’lim beruvchi muallimlarni qobiliyatlariga muvofiq taqsim etishga e’tibor qaratganlar. Ushbu yo‘lda birlashib, hamfikrlik bilan millat taraqqiyoti uchun xizmat qilgan insonlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga dastak bo‘lish millatning rivoji uchun xizmat qilgan. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, “Oyina” jurnalini tadqiq etish jarayonida olingan ma’lumotlar jurnalni Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotini yoritishda yordamchi manbalar qatorida ekanligini anglatadi. Jurnalning ushbu kungacha atiga o‘n besh foizigina tabdil va tarjima etilgan. Ushbu jurnalni o‘rganish va yanada chuqurroq tahlil etish jadidshunoslar oldida turgan muhim vazifalar qatoridadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Reference)

- [1]. Abdirashidov Z, Egamqulova N. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali. Toshkent. 2019-yil. 24-bet.
- [2]. Xo‘qandda yangi maktab // “Oyina” jurnali. 1913-yil 10-soni.
- [3]. Maktab mas’alasi // “Oyina” jurnali. 1913-yil 10-soni. 234-236 betlar.
- [4]. Xo‘qand maktabi rushdiyai islomiyasi // “Oyina” jurnali. 1914-yil 15-soni.
- [5]. Xo‘qanddan maktub // “Oyina” jurnali. 1914-yil 32-soni.
- [6]. Xo‘qanddan maktub // “Oyina” jurnali 1914-yil 34-soni.
- [7]. Xo‘qand avzoyi // “Oyina” jurnali. 1914-yil 29-soni.
- [8]. Xo‘qand va musulmonlar // “Oyina” jurnali. 1913-yil 8-soni.
- [9]. Shikoyat: Xo‘qanddan janob muallimlar // “Oyina” jurnali. 1914-yil 16-soni.
- [10]. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1990. 19 – 26-yanvar.
- [11]. Nishonova G. O‘zbek publitsistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida “Oyina” jurnalining o‘rni va ahamiyati. Filologiya fanlari nozmodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2008. 25 bet.

Umida Zunnunova

professor of Informatics and Management department
in NIFAD named after Kamoliddin Behzod

Diyorjon Bakhtiyorov

2nd year student of the Department of “Informatics and
Management” in the direction of Management
(art management and gallery work)
NIFAD named after Kamoliddin Bekhzod

Published under peer review:

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,

Associate professor

M. Mukhamedova

“ART-AUCTION” CONCEPT AND WORLD EXPERIENCE IN NEW UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the activities of galleries and auctions that reflect the currently developing art and marketing fields. Also, during the research, the differences and similarities characteristic of this type of activity in the world and in our country were noted. In this regard, a project on the development of this type of activity has been proposed in our country.

Keywords: art market, art auction, art galleries, sale of antiques

YANGI O‘ZBEKISTONDA “ART-AUKSION” TUSHUNCHASI VA JAHON TAJRIBASI

Anotatsiya: Maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan san’at va marketing sohalarini o‘zida aks ettirgan galereyalar va auksionlar faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot davomida jahon va mamlakatimizdagi mazkur faoliyat turiga hos bo‘lgan farqlar va o‘xshashliklar qayd etilgan. Bu borada yurtimizda mazkur faoliyat turini rivojlantirish bo‘yicha loyiha taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: art-bozor, art-auksion, san’at galereyalari, antikvar buyumlar savdosi.

ПОНЯТИЕ «АРТ-АУКЦИОНА» В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И МИРОВОМ ОПЫТЕ

Аннотация: В статье анализируется деятельность галерей и аукционов, отражающая развивающиеся в настоящее время направления искусства и маркетинга. Также в ходе исследования были отмечены различия и сходства, характерные для этого вида деятельности в мире и в нашей стране. В связи с этим в нашей стране предложен проект по развитию этого вида деятельности.

Ключевые слова: арт-рынок, арт-аукцион, художественные галереи, продажа антиквариата.

Kirish (Introduction)

Hozirgi kunda global art-bozorda ikki o'yinchi mavjud bo'lib, biri liderlar va xususiy galereyalar, ikkinchisi auksion uylar hisoblanadi. Makur biznes turi o'ta konservativ bo'lib, bugungi kunda galereyalar va auksionlar onlayn tarzda faoliyat olib borayotgan bir davrda elitarlikni (jamiyatning elita qatlami talablariga javob berish funksiyasi) saqlab qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Bilishning aniq usullari yig'indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o'tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o'rganish uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

San'at va kolleksiya auksionlarini jamiyatdagi san'at (art) biznesining eng mashhur qismi sifatida baholash mumkin. Yetakchi auksion brendlarining ba'zilar dunyo bo'ylab marketing sohasidagi yangiliklarni o'zida mujassamlashtirib kelmoqda. Bu esa yuksak madaniyatning moliyaviy va intellektual sohadagi yutuqlari, axborot oqimi (internet taqmoqlari rivoji) va yana ko'plab jabhalarda o'z aksini topmoqda.

“Jahonda kim oshdi savdosining bir necha turlari mavjud. Eng mashhurlari stavkalarni oshirish uchun ingliz auksioni va stavkalarni pasaytirish uchun Gollandiya auksionidir. San'at segmentidagi deyarli barcha auksionlar ingliz uslubiga muvofiq tashkil etilgan. Bu ko'plab omillarga bog'liq. Birinchi navbatda tarixiy jihat katta rol o'ynaydi. Gollandiya auksionlari “sokin” va “tezkor” bo'lib, diqqatni jamlash va chaqmoq tezligidagi reaksiyalarni talab qiladi. Ushbu turdagi auksion “tez buziladigan” tovarlarni sotishda, masalan, Gollandiyadagi gul birjasida yoki Yaponiyadagi baliq bozorida qo'llaniladi” [4].

San'at va antikvar buyumlar savdosi tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, ma'lumki, uning ildizi qadimgi Rimga borib taqaladi. Hozirgi kunga kelib esa Yevropa auksion uylari dunyodagi ilk tashkil etilgan tijorat savdo uylari hisoblanadi. Stokgolm auksion uyi Shvetsiyadagi yirik savdo uylaridan biri bo'lib, 1674 yilda asos solingan. XVIII asrda tashkil etilgan badiiy bozor liderlaridan yana barchaga ma'lum va mashhur Kristis, Sotbis, Bonxams, Doroteum va Filips kabilarni sanab o'tish mumkin.

“Ma'rifat” asriga kelib kolleksionerlik mashhurlikka erishadi. Keyinchalik bu asosan numizmatika, gravyuralar, kitoblar va minerallarning “kabinet” va kutubxona to'plamlariga e'tibor qaratiladi. Shu sababli, bu vaqtda paydo bo'lgan auksion uylari birinchi navbatda kitoblar va gravyuralar sotishga ixtisoslashgan. Rangtasvir asarlarini yig'ish biroz keyinroq, XVIII asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy fikr, ya'ni badiiy tanqidchilik yo'nalishini shakllanishiga olib keldi.

San'at asarlari narxlanadigan asosiy tashkilotlar esa mashhur kim oshdi savdo uylaridir. Kristis (Christie's), Sotbis (Sotheby's), Bonxams (Bonhams), Doroteum (Dorotheum), MakDuglas (MacDougall's), Stokholm auksion uyi (Stockholm Auction House) kabi savdo uylarida turli osori-atiqalar qatorida san'at asarlari ham savdoga qo'yiladi. Ularga qo'yiladigan boshlang'ich narx esa uning avvalgi oldi-sottilar tarixi hamda san'atshunos va tanqidchilarning baholashlaridan keyin

belgilanadi. Mashhur san'at asarlariga talabgor ko'p bo'lsa, boshlang'ich narxdan bir necha baravar qimmatga sotiladi.

"San'atni auksion orqali sotib olish galereyada san'atni sotib olishdan juda farq qiladi. Auksionlarda narxlar oshkora bo'ladi, barcha takliflarni qo'yish mumkin va eng yuqori narx taklif qilgan ishtirokchi san'at asariga ega bo'ladi. Galereyalarda buyumni sotib olish jarayoni va buyumning narxi noaniqroq bo'lishi mumkin. Bu ikki xil savdo nuqtalari doimo raqobatda bo'ladi deb tahmin qilish mumkin. Shunga qaramay, ba'zida galereyalar va auksion uylarining maqsadlari mos keladi va savdo nuqtalari birgalikda ishlaydi. Ularning hamkorligi, aslida, san'at bozorining ajralmas qismidir.

Galereyalar o'z rassomlari uchun kolleksionerni kashf qilish, namoyish etish va yaratish bilan birga, ular o'z rassomlarining asarlarini o'zlarining manfaatlariga qarab ikkilamchi bozorga yo'naltirishlari mumkin. Ba'zida galereyalar va auksion uylari eski asarlarning haqiqiyligini tekshirishda hamkorlik qiladi va kelib chiqishi bo'yicha bir-birlari bilan maslahatlashadi. Biroq, bu munosabatlar ko'pincha, ayniqsa ikkilamchi bozorni sotishda ko'proq narsani anglatadi". San'at asarlari bir qancha mezonlar bo'yicha baholanadi. Avvalo muallifining qanchalik mashhurligi yoki biror san'at yo'nalishidagi mavqeyi inobatga olinadi.

Shu bilan birga, asar qaysi davrda chizilgani, qanday sarguzashtlarni boshidan kechirgani, san'at tarixiga qanchalik ta'sir ko'rsatgani bilan baholanadi. Shuningdek, qaysi san'at oqimi yoki uslubga mansubligi ham asar qimmatiga ta'sir qiladi.

Tasviriy va amaliy san'at ustalari ijodida mazmunlar ufqining kengligi, ijodiy uslublar xilma-xilligi, ularni jahon madaniyati maydonida keng aloqalar o'rnatib, o'z o'rinlarini topayotganligi mamlakatimiz madaniyati ko'tarinkiligidan hamda, san'atining ildizlari uzoq tarixga borib taqalganligidan darak beradi. Ana shu xususiyatlari bilan jahonda munosib o'rin topib, san'at ixlosmandlarini o'ziga rom etib kelmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda jahonning barcha qit'alaridagi davlatlar elchixonalarini mamlakatimiz bilan madaniy aloqalar o'rnatishda tasviriy va amaliy san'atning ahamiyati beqiyos, uning ijodkorlari bu borada peshqadamlik qilmoqda [1, 78 b.].

So'nggi yillarda birin-ketin xorij davlatlarida mamlakatimiz tasviriy va amaliy san'ati e'tiborli asarlari hamda, respublikamiz muzeylarining noyob kolleksiyalaridan iborat badiiy ko'rgazmalar tashkil etilishi an'anaga aylanib bormoqda.

Ko'rgazmalarda namoyish etilgan asarlar bir vaqtning o'zida – ham yurtimiz va uning insonlari qiyofalari go'zalligi badiiy timsolini, ijodkorlar mahoratini, ular erishayotgan yutuqlari, hamda mamlakatimiz madaniyati va san'ati darajasi haqida hech bir tarjimonsiz chet ellik tomoshabinlar tomonidan anglanishi ko'zga tashlanmoqda.

Ana shu yutuqlarni inobatga olgan holda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar ham san'at va iqtisodiyotni rivojlantirish, uni jahon bozoriga olib chiqish say'-harakatlari sifatida baholash mumkin.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yilida 2023-yil amalga oshirishga oid davlat dasturining asosiy 5-yo'nalishlaridan biri ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishda O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini xalqaro darajada ommalashtirilishi hamda badiiy galereya va art residensiyalarini tashkil etilishi yuzasidan "ART VERNISSAGE" auksion uyi tashkil etildi.

“ART VERNISSAGE” auksion uyi tomonidan 30-noyabrda “O‘zbekiston amaliy san’at ustalarining madaniy merosi” nomli auksion o‘tkazildi. Auksionda numizmatika (Somoniyalar, Amir Temur davridagi tangalar), chinni va marmar lagalar, obdastalar va boshqa mis buyumlari, gilamlar, so‘zanalar, ipak choponlar, ot uchun egalar namoyish etildi. Har bir amaliy san’at asari “ART APPRAISAL CENTER” baholash kompaniyasi san’atshunos va baholovchi ekspertlari tomonidan ularning asl nusxada ekanligi, qadimiyligi, san’at asariga loyqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazilib, baholash hisobotlari tayyorlanib, “APEX” sug‘urta kompaniyasida sug‘urtalangan.

E’tiborli tomoni shundaki, o‘tkazilgan auksionga dunyoga mashhur san’at asarlarini sotishga yo‘naltirilgan, 300 yillik tarixiga ega bo‘lgan, dunyodagi 2 ta eng yirik Auksion uyilaridan biri “Kristis” auksion uyi vakillari ham qatnashdi. Bu O‘zbekiston san’at asarlar bozorini shakllantirishda o‘zini muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan qadam deb ko‘rish mumkin.

“Art Vernissage” auksion uyining asosiy maqsadlaridan biri O‘zbekistondagi san’at namoyondalarining asarlari ko‘rgazmasi va auksionlarni yo‘lga qo‘yish va dunyoning istalgan mamlakatlarida O‘zbekistonning san’at namoyondalari asarlarini ko‘rish va sotib olish imkoniyatini amalga oshiradi.

Auksionlarni baholash ikki bosqichli jarayonda bevosita jahon tajribasi va milliy qonunchilikdan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu jarayonda xalqaro tajribaga asoslangan metodika ishlab chiqilib hamkor tashkilotlar bilan birgalikda qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlandi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish joiz-ki, O‘zbekiston uchun bu juda katta yangilik bo‘lib shu paytgacha san’at bozori bo‘lmagan. Shu boisdan asarlarni baholash tizimi izchil yo‘lga qo‘yilmagan. “Art Vernissage” savdo uyi bilan birgalikda “Art Appraisal Center” baholash tashkilotini tashkil etilishi endilikda respublikamizda san’at asarlarini to‘laqonli ilmiy nazariy asoslarda baholashga imkon beradi. San’at asarlari nafaqat bu san’at asari sifatida balki iqtisodiy baza sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi” [7].

Ko‘p yillar respublikada san’at asarlarini baholash metodikasi va baholash tashkilotlari bo‘lmaganligi sababli san’at asarlari bozori rivojlanmadi va shakllanmadi.

Toshkent shahrida joylashgan auksion uyi tarkibida:

- nashriyot matbaa uyi;
- “Art Appraisal center” san’at asarlarini baholash kompaniyasi;
- art galereya, san’at galereyasi
- san’at asarlarini texnologik ekspertizadan o‘tkazuvchi maxsus laboratoriya faoliyat ko‘rsatadi.

Bu yutuqni esa o‘z navbatida O‘zbekistonning art-bozori rivojlanishidagi ilk qadam sifatida baholash mumkin. O‘zbekistonda art-auksionlar tashkil etilishidagi jarayonlardan yana bir qadam sifatida “Butunjahon Yoshlar Festivali” doirasida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “Mehrli qo‘llar” fondi, AVO Bank va We Digital marketing agentligi hamkorligida loyihaaning ilk “Orzu” nomli noyob ko‘rgazma-auksioni tashkil etilganligini ham keltirib o‘tish mumkin.

“Orzu” – bu inson ijodkorligi va sun’iy intellektning maxsus uyg‘unlashuvidir. Ko‘rgazmada ko‘zi ojiz bolalar taassurotlari asosida yaratilgan asarlar namoyish etiladi. Bu suratlar shunchaki surat emas, balki bolalarning chuqur va ta’sirchan xayollari va tasavvurlarining aksidir.

Ko'rgazmada "Sharm Studio" rassomlari tomonidan qog'ozga tushirilgan, sun'iy intellekt orqali yaratilgan 20 ta surat namoyish qilindi. Xayriya ko'rgazmasida sotilgan ijodiy ishlardan tushgan mablag'lar ko'zi ojiz bolalarning ko'rish qobiliyatini tiklash uchun operatsiyalariga yo'naltirildi. Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi integratsiyani o'ziga xosligi shundan iborat ediki, Payme, Click va Payze to'lov xizmatlari orqali ham loyiha uchun mablag' xayriya qilish imkoniyati mavjudligi barcha uchun qulaylik yaratadi. U o'ziga Rossiya, AQSH, Turkiya, Xitoy, Avstraliya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Fransiya va Germaniyadan kelgan xalqaro mehmonlarni o'z ichiga olgan 3 mingdan ortiq tashrif buyuruvchilarni jalb qildi. Mazkur kim oshdi savdosida barcha rasmlar muvaffaqiyatli sotildi. Jami 151 400 000 so'm (taxminan 12 ming dollar) yig'ildi. Kartinalar uchun narxlar oralig'i 4 million so'mdan 20 million so'mgacha bo'ldi", – deydi tadbir tashkilotchilari.

Ko'rgazma doirasida bo'lib o'tgan suratlar auksionida faol qatnashib ikkita ijod asarini sotib olgan sobiq bolalar jarrohi Mahmud Asomov "Orzular sari intilish" suratini 6 mln so'mga "Hayot so'qmoqlari" nomli asarni esa 8 mln so'mga sotib oldi. "Agar ushbu suratlar 20 mln so'm bo'lganda ham sotib olardim, chunki ular shunchaki mo'yqalam bilan chizilgan chizgilar emas. Suratlar dunyoni bor ranglari bilan ko'ra olmagan bolalarning orzu-umidlari, intilishlaridir [5].

"Mutaxassislar jamoasi bolalar va o'smirlarning tasavvur olami borasidagi fakt va elementlarni jamlab, matn holiga keltirishdi. To'plangan ma'lumotlar sun'iy idrokka kiritildi va u bolalarning botiniy dunyosi aksini virtual tasvirlarga aylantirib berdi. Shundan so'ng sun'iy idrok yaratgan suratlar rassomlar tomonidan rangtasvir ko'rinishiga keltirildi", – deydi asosiy g'oya mualliflaridan biri Hikmatilla Ubaydullayev [6].

Bu san'at va texnologiya yoqasidagi loyiha bo'lib, u ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning taassurotlari asosida suniy intellekt yordamida yaratilgan ijodiy ishlar va chizmalar orqali dunyo haqidagi tasavvurlarini ifodalash imkoniyatini beradi. Ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan ko'plab bolalar uchun ijod orqali o'zlarining ichki dunyosini baham ko'rish imkoniyati, o'zining qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishning muhim usuli hisoblanadi.

Loyiha jamiyatda inklyuzivlik va tenglik muhimligini ta'kidlab, ko'rish qobiliyati zaif bolalarning amalga oshirilishi mumkin bo'lgan iste'dod va qobiliyatlarini yorqin tasvirlab beradi. Ilk bora tashkil etilgan art-auksion va hayriya auksionlari O'zbekiston fuqarolarining ma'naviyati yuksalishi, san'at ixlosmandlari va qiziquvchilar safi kengayishiga, ushbu tadbirlar sonini ortib borishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilganidek jahonda san'at asarlari narxlanadigan asosiy makon esa mashhur kim oshdi savdo uylaridir. Kristis (Christie's), Sotbis (Sotheby's), Bonxams (Bonhams), Doroteum (Dorotheum), MakDuglas (MacDougall's), Stokholm auksion uyi (Stockholm Auction House) kabi savdo uylarida turli osori-atiqalar qatorida san'at asarlari ham savdoga qo'yiladi. Ularga qo'yiladigan boshlang'ich narx esa uning avvalgi oldi-sotdilar tarixi hamda san'atshunos va tanqidchilarning baholashlaridan keyin belgilanadi. Mashhur san'at asarlariga talabgor ko'p bo'lsa, boshlang'ich narxdan bir necha baravar qimmatga sotiladi.

Shu ma'noda dunyoga mashhur Sotheby's savdo uylaridan birining shakllanishi tarixini qisqacha keltirib o'tsak. 1744 yilda tashkil etilgan Sotheby's – san'at va hashamat uchun dunyodagi eng mashhur savdo uylaridan biridir. Sotheby's auksionlar va hozir sotib olish kanallari, shu

jumladan xususiy savdo, elektron tijorat va chakana savdo orqali noyob san'at va hashamatli ob'yektlarga kirish va ularga egalik qilishni targ'ib qiladi. Sotheby'sning ishonchli global bozorini sanoatning yetakchi texnologik platformasi va 40 ta mamlakat va 70 toifadagi mutaxassislar tarmog'i qo'llab-quvvatlaydi, ular orasida zamonaviy san'at, zamonaviy va impressionist san'at, eski ustalar, xitoy san'ati asarlari, zargarlik buyumlari, soatlar, sharob va spirtli ichimliklar va dizayn, shuningdek, yig'iladigan avtomobillar va ko'chmas mulklarni ham qamrab oladi. Sotheby's san'at va madaniyatning o'zgartiruvchi kuchiga ishonadi va sanoatlarimizni yanada inklyuziv, barqaror va hamkorlik qilishga intiladi.

Sotheby's asoschisi Samuel Beyker tadbirkor, avvalida noshir va muvaffaqiyatli kitob sotuvchisi bo'lib, 1744 yil 11-martda o'z nomi bilan o'zining birinchi auksionini o'tkazadi. Kim oshdi savdolari va galereyalar uzoq vaqtdan beri Yevropa san'at bozorining ajralmas qismi bo'lib, badiiy iste'dodlarni namoyish qilish, sotishni osonlashtirish va madaniy merosni saqlash uchun markaz bo'lib xizmat qiladi. Londondagi yirik auksion uylaridan tortib Parijning avangard galereyalarigacha bu muassasalar asrlar davomida san'at olami dinamikasini shakllantirgan.

Yevropada Sotheby's, Christie's va Phillips kabi yirik auksion uylari tasviriy san'at, antiqa buyumlar va kolleksiyalarning nufuzli sotuvi bilan xalqaro e'tiborni tortadi. Har bir uyning o'ziga xos savdo nuqtalari, mijozlari va san'at bozorining xilma-xil ekotizimiga hissa qo'shadigan mutaxassisliklari mavjud.

Sotheby's bosh direktori – Charles Stewart (Charlz Styuart)ning ta'kidlashicha: “Biz biznesimizni turli ssenariylarda boshqarish uchun texnologik jihatdan jihozlanganmiz. Mijozlarimiz san'at va ob'yektlarni kashf qilish, o'rganish va taklif qilish uchun raqamli formatlarda biz bilan shug'ullanish tendensiyasi ortib borayotganini hisobga olib, biz butun dunyo bo'ylab mijozlarimizga ajoyib xizmat va sotuvlar taqdim etishda davom etishimiz mumkinligiga ishonchimiz komil” [3].

Bugungi kun talabi sifatida muomalaga kiritilgan mobil ilovalar shakllantirish an'anasi kundan kunga ommalashib bormoqda. Shu maqsadni ko'zlagan holda Sotheby's ham ilova ishlab chiqish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar olib borgan. Sotheby's ilovasi - bu san'at kolleksionerlari, ixlosmandlari va savdo ishtirokchilari tajribasini oshirish uchun mo'ljallangan mobil ilova. Sotheby's ilovasining ba'zi asosiy xususiyatlari va funktsiyalari:

1. Savdo va auksionlar: foydalanuvchilar ilova orqali jonli va onlayn auksionlarda ishtirok etishlari mumkin. Bunga real vaqt rejimida takliflarni joylashtirish, auksion yangilanishlari haqida bildirishnomalar olish va ko'plab qiziqishlarni kuzatish kiradi.

2. Katalogga kirish: ilova auksion kataloglariga kirishni ta'minlaydi, bu foydalanuvchilarga bo'lajak sotuvlarni ko'rib chiqish, batafsil tavsiflarni ko'rish va tender uchun mavjud bo'lgan san'at asarlari va buyumlarning yuqori sifatli tasvirlarini ko'rish imkonini beradi.

3. Shaxsiylashtirilgan ogohlantirishlar: foydalanuvchilar tegishli voqealar va imkoniyatlar haqida xabardor bo'lishlarini ta'minlab, muayyan lotlar, auksionlar yoki qiziqish toifalari uchun ogohlantirishlarni o'rnatishi mumkin.

4. Virtual ko'rish xonalari: ilovada ko'pincha virtual ko'rgazmalar mavjud bo'lib, ularda foydalanuvchilar san'at asarlarini raqamli formatda o'rganishlari mumkin, bu esa immersiv tajribani ta'minlaydi.

5. Hisobni boshqarish: foydalanuvchilar o'zlarining Sotheby's hisoblarini ilova orqali boshqarishlari mumkin, jumladan, takliflar tarixini kuzatish, to'lov usullarini boshqarish va shaxsiy ma'lumotlarni yangilash.

6. Yangiliklar va tushunchalar: ilovada san'at bozori, trendlar va Sotheby's tadbirlariga oid maqolalar, videolar va tushunchalar mavjud bo'lib, foydalanuvchilarni san'at olamidagi so'nggi o'zgarishlardan xabardor qiladi.

7. Foydalanuvchilar uchun qulay interfeys: ilova intuitiv va navigatsiya qilish oson bo'lishi uchun yaratilgan bo'lib, uni tajribali kolleksionerlar va san'at bozoriga yangi kelganlar uchun ham qulaylik qiladi.

Ushbu tadqiqot davomida o'rganilgan manbalar asosida O'zbekistonda kim oshdi savdolari uyi uchun san'at kolleksionerlari, ixlosmandlari va savdo ishtirokchilari tajribasini oshirishga mo'ljallangan zamonaviy mobil ilovani ishlab chiqish zaruriyati mavjud degan xulosaga kelindi. Ushbu ilova yuqori sifatli tasvirlar va batafsil tavsiflar bilan to'ldirilgan turli xil san'at asarlari katalogini namoyish qiluvchi intuitiv interfeysga ega bo'ladi. Foydalanuvchilar real vaqtda savdo imkoniyatlaridan, xavfsiz to'lov imkoniyatlaridan va bo'lajak auksionlar uchun moslashtirilgan bildirishnomalardan bahramand bo'lishadi. Bundan tashqari, ilova foydalanuvchilar o'rtasida faollikni oshirish uchun san'at to'plami va hamjamiyat xususiyatlariga oid ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi. Ushbu elementlarni birlashtirish orqali bizning ilovamiz san'at ixlosmandlarini bog'laydigan va ularning O'zbekistondagi auksion tajribasini oshiruvchi uzluksiz va boyitish platformasini yaratishga qaratilgan.

Bu O'zbekiston art bozorining jahon art bozoriga bo'lgan integratsiyasini belgilab beradi.

Ushbu mobil ilova nafaqat auksion jarayonini soddalashtirish, balki O'zbekistondagi jonli san'at ixlosmandlari hamjamiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim resurslari va jalb qilish vositalarini taqdim etish orqali biz auksion tajribasini qiziqarli va qulay qilish bilan birga, foydalanuvchilarning san'at haqidagi tushunchasi va qadrini oshirishga umid qilamiz.

Biz O'zbekistonda badiiy auksionlarni o'tkazishni osonlashtirish uchun mo'ljallangan, foydalanuvchilarga qulay mobil ilovani taklif qilamiz. Ilova san'at asarlariga oson kirish, real vaqtda takliflar berish, xavfsiz to'lovlar va hamjamiyat ishtiroki funksiyalarini taqdim etish orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi.

Afzalliklari:

- Foydalanuvchilar uchun auksion jarayonini soddalashtiradi;
- auksion uyining kengroq auditoriyaga kirishini kengaytiradi;
- san'at ixlosmandlari jamoasini tarbiyalaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizni jahon miqyosida e'tirof etilishiga xizmat qilib kelayotgan ko'rgazma va bu bilan bog'liq turli tadbirlar bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining zaminida buyuk yurimiz tarixining betakror zarvaraqlari yotganini ta'kidlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan san'at va madaniyat sohasi rivoji uzluksizligini ta'minlash hamda, mamlakatimiz san'ati va madaniyatini

duyoga tanitish yo'lida olib borilayotgan say'-harakatlar O'zbekiston art-auksion uylari va uni tizimli rivojlantirish omillarini jahon miqyosiga olib chiqishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Хасанова Н. С. XX аср Ўзбекистон бадиий таълими тарихи ва ривожининг асосий тенденциялари// Монография. – Тошкент: Lesson press, 2020. – 178 б.
2. <https://www.artsy.net/article/artsy-editorial-auction-houses-galleries-working>
3. <https://www.sothebys.com/en/articles/message-from-sothebys-ceo>
4. <https://collectart.ru/posts/16-auksiony-istoriya-geografiya-osobennosti>
5. <https://uzreport.news/society/orzu-loyihasining-ilk-xayriya-ko-rgazmasi-otkaziladi>
6. <https://uzreport.news/society/toshkentdagi-orzu-ko-rgazma-auksionida-150-mln-so-mdan-ortiq-mablag-yig-ildi>
7. McCoy M. The Business of Art: A Guide to Auction Houses. - New York: Art Publishers. 2019.
8. Thompson D. The \$12 Million Stuffed Shark: The Curious Economics of Contemporary Art. - New York: 2017. Palgrave Macmillan.
9. Bourdieu P. The Field of Cultural Production. Columbia University Press. 1993.
10. Velthuis O. 2005. Talking Prices: Symbolic Meanings of Prices on the Market for Contemporary Art. Princeton University Press.
11. Bader K., & Scherf M. The Role of Auction Houses in the Art Market. Journal of Cultural Economics, 42(3), 2018. - 295-310 p.
12. Zolberg V. Constructing a Sociology of the Arts. Sociological Forum, 5(4), 1990. - 637-659 p.
13. Brown K. Art Auctions. Spectacle and Value in the 21st Century. Lund Humphries Publishers Ltd. Co-Publisher: Sotheby's Institute of Art Series: Hot Topics in the Art World 2024. 104 p.

Musakaeva Alfiya Adilievna
PhD in Historical Sciences, Senior Researcher of the
State Museum of History of Uzbekistan

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Karimova Dilafruz

**SEAL FROM THE ANCIENT SETTLEMENT OF KANKA DEPICTING A LION WITH
ITS HEAD TURNED TO ITS TAIL**

Abstract. The article presents a new, previously unpublished material - a seal depicting a lion with its head turned backwards to the tail from the collections of the State Museum of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The seal was found at the Kanka settlement (Tashkent region). Similar images of lions on ceramics are given, and parallels are drawn with some Chach coins depicting lions. According to the results of the analysis of the iconography of the object, taking into account similar images on ceramic vessels from the settlement of Chacha and Taraz, the dating of this seal within VIII - X centuries is proposed.

Keywords. Seal, impression, Chach, Kanka, Taraz, lion, symbol, ceramic vessels, coins, Christianity, analogies.

**KANKA SHAHRI TEPALIGIDAN TOPILGAN BOSHI DUMI TOMON BURILGAN
SHER TASVIRLANGAN MUHR**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilgari e'lon qilinmagan yangi material – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix davlat muzeyi fondidan boshi dumiga tomon qayrilgan sher tasviri tushirilgan muhr taqdim etilgan. Muhr Qonqa (Toshkent viloyati) hududidan topilgan. Kulolchilik buyumlarida sherlarning xuddi shunday tasvirlari berilgan va sherlar tasviri tushirilgan bir necha Choch tangalar bilan parallel chizilgan. Ob'ektning ikonografiyasini tahlil qilish natijalariga ko'ra, Choch va Taroz aholi punktlaridan sopol idishlardagi o'xshash tasvirlarni hisobga olgan holda, ushbu muhrning VIII–X-asrlarga tegishli bo'lgan davrini aniqlash taklif qilindi.

Tayanch iboralar: Muhr, taassurot, Choch, Qonqa, Taroz, sher, ramz, sopol idishlar, tangalar, nasroniylik, analogiya.

**ПЕЧАТЬ С ГОРОДИЩА КАНКА С ИЗОБРАЖЕНИЕМ ЛЬВА С ГОЛОВОЙ,
ПОВЕРНУТОЙ К ХВОСТУ**

Аннотация. В публикуемой статье представлен новый, ранее не публиковавшийся материал – печать с изображением льва с головой, повернутой назад к хвосту из фондов Государственного музея истории АН РУз. Печать была найдена на городище Канка (Ташкентская область). Приводятся аналогичные изображения львов на керамике, проведены параллели по некоторым чачским монетам с изображением львов. По результатам анализа иконографии предмета, с учетом аналогичных изображений на керамических сосудах с городища Чача и Тараза предложена датировка этой печати в пределах VIII – X вв.

Ключевые слова: Печать, оттиск, Чач, Канка, Тараз, лев, символ, керамические сосуды, монеты, христианство, аналогии.

Вступление (Introduction)

Изображения львов широко известны по предметам археологии и нумизматики Средней Азии. Образ льва появляется в период античности и остается вплоть до позднего средневековья. В Чаче и Семиречье одной из самых частых находок археологов являются монеты с изображением львов. В Чаче это монеты с изображением льва на одной стороне и вилообразного знака на другой с чачской легендой согдийским письмом. В Семиречье изображение льва на черте сочетается с изображением на оборотной стороне рунического знака в окружении трех рядов курсивных легенд согдийским письмом. Такой тип монет со львом на черте известен также и по находкам с городища Канка.

Анализ и Результаты (Analysis and Results)

В 2000-х годах в фонды Государственного Музея истории Узбекистана АН РУз поступила бронзовая печать с изображением льва и с обломанной петелькой. Приведем ее описание:

Щиток печати плоский, круглой формы. На щитке имеется изображение льва с оскаленной пастью, с крупными ушами, переданными вертикально. Голова льва повернута назад в сторону хвоста с кисточкой. Просматривается грива. Передние две ноги животного поставлены прямо, задняя нога (ноги) подвернута так, что создается впечатление сидящего животного. Хвост поднят вверх и изогнут в форме буквы «S». На оборотной стороне печати имеется крупная петелька, которая сильно обломана, так что сохранились лишь ее небольшие отростки.

Размеры печати:

Диаметр – 14.7х15 мм.

ГМИУз. КП - 5160/7. Канка.

На монетах Чача и Южного Казахстана лев изображен идущим вправо или влево. На лицевой стороне чачских монет изображен идущий вправо или влево лев с пышной гривой. На оборотной стороне этих монет изображен вилообразный знак в окружении чачской легенды знаками согдийского письма. На монетах представлены изображения львов разной степени стилизации. Наиболее ранние с реалистично выполненными изображениями датируются VI-VII вв. Более стилизованные изображения датируются VIII в. все они сопровождаются традиционным титулом «γwβw».

Считают, что исторически ещё в раннем средневековье лев встречался на всей территории Африки, на Ближнем Востоке, Иране и южной Европе, в Северной и Северо-Западной Индии. Его изображения встречаются не только на монетах, но и геммах, сосудах, бляшках, печатях, перстнях. Любопытно, что на монетах Чача изображения львов появляются уже в начале VII в. и широко распространяются в VII-VIII вв. И этому есть свое объяснение.

В 561 году между Ираном и Византией был заключен мирный договор, в котором по свидетельству Менандра, устанавливалась свобода вероисповедания для персов, живущих в Византии, и для византийцев, живущих в Персии (Удальцова, 1974.С. 266). В VI веке несториане успешно проповедовали свое учение в Согде, Уструшане и среди тюрков. Именно с этого времени с правлением тюрков в VI веке связаны христианские символы на монетах. Напряженные отношения между Западно-Тюркским каганатом и Сасанидским Ираном возникли по вопросам контроля торговых путей. Тюрки и согдийцами вместе искали пути переговоров с Византией. С VI в. фиксируются тесные связи с Византией, о чем свидетельствуют византийские брактеаты, монеты, предметы археологии с христианскими символами, найденный в Чаче. Фонды Государственного Музея истории Узбекистана АН РУз (ГМИУз) складывалась из местных находок, и в византийской коллекции более всего монет Юстиниана (527-565 гг.) Все эти факты свидетельствуют о развитых торгово-экономических и культурно-исторических взаимоотношениях. Что в свою очередь связано с притоком несториан не только из Ирана, но и из Византии, особенно после договора 561 года. Таким образом, на наш взгляд, образ льва появился здесь в результате культурно-исторического связей, так было заимствовано его символическое значение.

Новые находки монет и предметов археологии с христианскими символами в Чаче датируются периодом VI – VIII вв. Нужно отметить, что изображения львов на монетах Чачского оазиса близки Западно-согдийским монетам с изображениями этого животного и креста. Чачские монеты с изображением льва никогда не рассматривались исследователями в контексте с христианской символикой. Однако, анализ данных письменных источников, иконография монет, события политической истории указывают на связь этой серии монет со львом с христианством. Ведь именно изображение льва наряду с крестом самый распространенный образ в христианской символике.

Значение льва. Исследователи отмечают, что «лев становится эмблемой Иисуса Христа, эмблемой многих святых – Марка, Иеронима, Игнатия, Адриана, Евфимии. Мифологический символ льва и гибридного существа с головой или туловищем льва присутствует в фольклоре, литературе, искусстве, геральдике, эмблематике значительного числа народов. В геральдике лев символизирует стойкость, твердость, спокойствие, благоразумие» (Иванов, Топоров, 1982. С. 42).

«Лев – одно из любимых животных христиан. На раннехристианских саркофагах изображения льва, воплощают идею грядущего воскресения. Образ льва, распространенный в пластике романских церквей, понимается как бдительный страж святыни, он спит с открытыми глазами» (Соколов, 1982. С. 42–43). Показательно, что одной из эфиопских картин символически передана социальная иерархия эфиопской феодальной империи. На самом верху лев – христианский символ, символ императорской власти. Потому лев изображен с символами царской власти – жезлом и тиарой, а к нему подлетает голубь с гроздьем винограда. Голубь заключен в священный круг, от которого, как и от грозди винограда распространяется божественное сияние в виде множественных лучей. (Чернецов, 1981. С. 122–123, рис. 3).

В христианстве лев являлся символом Святого Марка, так как его Евангелие подчеркивает царственное величие Христа. В древности верили, что лев спит с открытыми глазами. Соответственно он символизировал бдительность, духовную крепость. О том, что образ льва связан с воскрешением, повествует раннехристианская легенда, согласно которой львята (слепые в течение недели) родились мертвыми и спустя три дня были возвращены к жизни львом. В христианстве рыканье льва «уподобляется слову божьему» (Башко, Гордиенко, Гордиенко, 2007. С. 47).

Основное значение образа льва на монетах, на оборотной стороне которых представлен вилообразный знак – это символ божественности правителя. Лев – сила, мощь, охранный знак. Не случайно на дастархане из Тараза изображены львы, причем в центре их изображения расположены по четырем сторонам. Четыре льва обращены головой назад. Отмечают, что модель мира у древних тюрков воспринималась как четырехстороннее тело (Кляшторный, 1975. С. 29). Очевидно, что четыре льва в данном случае символизировали четыре стороны света и каждый из львов выполнял охранную функцию. Близкий сюжет, но с местными особенностями можно видеть на знаменитой колонне Ашоки с львиной капителью в Сарнатхе. Колонна датируется III в. до н.э. На абаке колонны изображены четыре льва охраняющие четыре стороны света, ниже львов изображения животных: лев – север; бык – юг; слон – восток, лошадь – запад. Эта колонна становится гербом, национальной эмблемой Индии. Четыре льва символизируют нацию, которая отважна в храбрости, сильна в теле, благоразумна в совете, устрашает противников. Здесь также, как и на дастархане из Тараза присутствуют охранные функции льва, его храбрость, сила, мудрость. На исследуемой печати изображение льва символизировало силу, печать являлась оберегом владельца и принадлежала, вероятно, либо правителю, либо высокопоставленному чиновнику.

Аналогии. Любопытные параллели с изображением льва на печати прослеживаются по погребальным хумам из Тараза (Южный Казахстан). Одна группа хумов имеет по три оттиска (клейма) со львом, сидящим на задних лапах с поднятой передней левой лапой. Лев изображен вправо. Эта группа хумов датируется V – VIII вв. (см. Табл. №3, 5). Другая группа хумов имеет оттиск с более стилизованным изображением сидящего льва, чем на оттисках первой группы хумов. Датируется эта группа из Тараза X в. (См. Табл. №3, 6). Лев на оттиске второй группы хумов изображен сидящим на задних лапах с головой повернутой назад (Сенигова, Бурнашева, 1980. С.68 – 69). Хотя поза льва смотрящего на свой хвост почти идентична изображению льва на публикуемой печати, однако, изображение его более стилизованное, чем на печати. Изображение льва на канкинской печати находит более ранние аналогии по монетам Чача VII – VIII вв. со львом и вилообразным знаком. Это одинаково переданная форма головы, хвоста, спины, лап. Хвост на оттиске хума X в. поднят вертикально вверх, а на печати он имеет «S»-образно изогнутую форму, как и на более ранних по времени монетах (См. Табл. №1, 1 – 7). Поэтому печать со львом с городища Канка может иметь более раннюю дату – VII-VIII вв. Близким по времени является сероглиняный сосуд VIII в. с городища Канка с оттисками львов из коллекции Государственного Музея истории АН РУз. Он аналогичен и по времени и по стилю изображения льва с изображением сидящего льва на погребальном хуме Тараза (См. Табл. №2, 1, 4).

Монеты со львом в Чаче датируются началом VII – VIII вв., как уже отмечалось, отдельные экземпляры передают более реалистичное изображение льва: это ясно переданная пышная грива, довольно четко изображены лапы животного и другие детали. Однако, пока у нас нет данных, которые позволили бы датировать монеты с реалистичными изображениями львов более ранним временем, но стиль этих изображений говорит о том, что возможно их можно отнести к началу VII в.

Что касается монет Тарнавча/Трабна, считают, что выпуск их продолжался до появления первых монет с арабскими легендами по опубликованному Э.В. Ртвеладзе кладу монет Тарнавча с такой монетой. Это чекан Умейра б. Мухаммада. Балх, (1)3. г.х. / 747-757 гг. (Ртвеладзе Э.В., Ртвеладзе Л.Л., 1976. С.24). Отмечают, что в 748г. был разрушен Суяб-столица западнотюркских каганов, в 749 г. китайцы взяли Чач местный правитель был казнен (Кляшторный, 2002.С.245). Так предел, когда монеты группы Тарнавч/Трабн выпускались можно считать 749г.

Данные археологических исследований на городище Канка позволяют говорить о том, что здесь в период раннего средневековья жили христиане. Было найдено множество предметов археологии с изображением несторианских крестов. Публикуемая печать с изображением льва с повернутой назад головой, вероятно, была найдена вместе с предметами археологии с христианскими символами этом квартале христиан на городище Канка.

Изображения львов на монетах Чача появляются под влиянием христианских верований в период господства Тюркского каганата. Хотя, не исключено, что в Чаче были знакомы с раннехристианскими верованиями и в дотюркский период. О чем свидетельствуют находки византийских монет последних лет: медная монета Аркадия, брактеат Анастасия с городища Канка, погребение византийского воина из Майского (Мусакаева, 2010. 285 – 288). Известно, что по данным письменных источников многие тюрки были обращены в христианство. Отмечают, что у многих из них на лбу были прорисованы кресты (Бартольд, 1964. С.265 – 302). Известно, что в VI в. христиане проповедовали свою веру среди кочевых тюрков. Тюрки, захваченные в плен византийцами в битве при Балярате в 591г., имели на лбах татуировку в виде креста и объясняли, что это сделано по совету христиан, чтобы избежать моровой язвы (Гумилев, 1967. С. 5 – 10; Железняков, 2010.С.267).

В Сасанидском Иране христианин мог занимать официальную должность и нести военную службу в войске царя. Известно, что несторианская церковь имела мощную экономическую организацию, пользовалась правом продавать и приобретать крупные земельные участки (Гумилев, 1970.С.46 – 47). Возможно и где-то в окрестностях Варахши, в Уструшане, в Восточном Согде, в Чаче в одном из кварталов на городище Канка были земли, дома, принадлежавшие христианам. Об этом свидетельствуют данные нумизматических и археологических источников. Вполне вероятно, что монеты с изображением льва появляются после движения несториан из Ирана в V–VI вв.

После Эфесского собора несторианство становится господствующим исповеданием персидских христиан. Возможно, часть христиан проникает в Чач, Согд и Уструшану. После осуждения несториан и закрытия эдесской школы в 489 г. императором Зеноном, школа переехала в Иран. В 499 г. в Ктезифоне возникла несторианская патриархия, расцветшая в VI веке (Гумилев, 1967.С. 47). В конце V в. была учреждена епископская кафедра в Самарканде, которая в VIII веке была преобразована в несторианскую метрополию. В 561 году между Ираном и Византией был заключен мирный договор, в котором по свидетельству Менандра, устанавливалась свобода вероисповедания для персов, живущих в Византии, и для византийцев, живущих в Персии (Удальцова, 1974.С.266).

В VI в. отмечается поток находок предметов, византийского происхождения в среде тюрков в Чаче, Согде, Уструшане. Не случайно, что именно с правлением тюрков в VI в. в Чаче связывают появившиеся христианские символы на монетах. В VI в. между Западно-Тюркским каганатом и Сасанидским Ираном возникают напряженные отношения, вызванные разногласиями сторон в вопросах контроля торговых путей. Результатом таких действий явился поиск согдийцами вместе с тюрками путей переговоров с Византией. Об интенсивности связей Трансоксианы с Византией свидетельствуют византийские монеты. Нужно отметить, что в коллекции Государственного Музея истории Узбекистана АН РУз более всего монет VI в., в основном чекана Юстиниана (527-565 гг.) Учитывая, что византийская коллекция монет складывалась в основном из местных находок, можно говорить о развитых торгово-экономических отношениях и конечно о культурно-исторических связях. Это связано с притоком несториан не только из Ирана, но и из Византии, особенно после договора 561 года.

С влиянием византийской иконографии связывается, вероятно, появление на среднеазиатских чеканах VI – VII вв. изображений правителей в фас. Любопытно, что изображения правителей в фас на монетах известны для Восточного, Западного Согда, Чача, Уструшаны, но отсутствует в Хорезме и Южном Согде. Для иконографии Византии характерны фасовые изображения портретов императоров. Исследователями отмечалось византийское влияние на чекан Отрара – в частности на передачу образа льва. Изображение образа льва на отрарских монетах заметно отличается от изображений львов на чачских монетах и действительно передает иную традицию. Однако Чач, как и Согд, имеет монеты с трехчетвертными портретами и в Чаче отмечены находки, свидетельствующие о распространении на его территории христианства. Это золотой медальон по типу монет Юстиниана (Массон 1972, 29 – 35). Знаменитый несторианский клад, найденный в Ташкенте (Анбоев 1959. С. 39 – 40).

Заключения и Рекомендации (Conclusions and Recommendations)

В VI в. поток несториан усилился в связи с политикой Юстиниана, стремившегося достигнуть единства империи, и потому проповедовавшего единство церкви. Ему принадлежит фраза: «одно государство, один закон, одна церковь». Именно для этого времени отмечены предметы византийского происхождения в Чаче.

Несторианство в Иране и Средней Азии сохранялось на протяжении более десяти столетий. В целом древние христианские верования определенным образом влияли на идеологию центральноазиатского региона, на памятники материальной культуры, предметы искусства, иконографию денежных знаков, свидетельством чему являются публикуемые материалы.

Так, печать с городища Канка по аналогии с чачскими монетами с изображениями львов и вилообразных знаков, а также с изображениями львов на оттисках погребальных сосудов Тараза можно датировать VIII в. Поклонение священным животным, изображение их на монетах в сочетании с различными культовыми знаками, свидетельствует о синтезе местных, традиционных верований и новых – в данном случае христианских верований. Печать принадлежала либо чачскому правителю, либо высокопоставленному чиновнику.

Таким образом, публикация новых находок и их регистрация крайне важны, они помогают глубже исследовать вопросы древних верований, культов, обрядов в крае, обогащая наши представления о древней культуре государств Средней Азии.

Список используемой литературы (Reference)

1. Анбоев И.А. Древний несторианский клад в г. Ташкенте // Известия АН УзССР, серия «Общественные науки», Издательство «Фан», Ташкент, 1959, №6, с. 39 – 40.
2. Баешко Л.С., Гордиенко А.Н., Гордиенко А.Н. Энциклопедия символов. Издательство «Эксмо», Москва, 2007, с. 304.
3. Бартольд В.В. О христианстве в Туркестане в домонгольский период (по поводу семиреченских надписей). Соч. Т. II, ч. II., Издательство Восточной литературы. М., 1963, с. 265-302.
4. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1967, «Наука, ГРВЛ», с. 504.
5. Гумилев Л.Н. Несторианство и Древняя Русь // ВГО. Доклады отделения этнографии. 1967. Выпуск - 5, с. 5-10.
6. Железняков Б.А. Изучение вопросов распространения несторианства в Азии до ХУ в. // Известия Национальной Академии Наук Республики Казахстан. Серия общественных наук 1 (274), январь-февраль 2010. Национальная Академия Наук РК, Алматы, с. 264 – 273.

7. Иванов В.В., Топоров В.Н.. Мифы народов мира. Энциклопедия, том-2, М., 1982, с. 42.
8. Кляшторный С. Ранние болгары в Предкавказье и Поволжье. Глава-2 // История татар с древнейших времен в семи томах. Том-1 Народы степной Евразии в древности. Казань, 2002
9. Кляшторный С. Степная империя тюрков и её наследники. Глава-4 \ История татар с древнейших времен в семи томах. Том-1 Народы степной Евразии в древности. Казань, 2002
10. Массон М.Е. Золотой медальон византийского облика из Ахангерана // ОНУ, Изд. «Фан», 1972, № 7, с. 29-38.
11. Мусакаева А.А. Византийская монета императора Аркадия с городища Канка. Древние культуры Евразии. Материалы конференции, посвященной 100-летию А.Н. Бернштама. С-Пб., 2010., с.285-288.
12. Ртвеладзе Э.В., Ртвеладзе Л.Л. Раздел «Городище Ханабад» – В кн.: Древности Ташкента, Т.: Издательство «Фан», 1976, с. 6-41.
13. Сенигова Т.Н, Бурнашева Р.Э. Изобразительный мотив льва в прикладном искусстве древнего Казахстана // Археологические исследования древнего и средневекового Казахстана. Алма-Ата: «Наука». С. 65 – 81.
14. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Изд. «Наука» ГРВЛ. М., 1981, 548 с.
15. Соколов М.Н. Энциклопедия, том-2, Изд. «Советская энциклопедия», М., 1982, 720 с.
16. Удальцова З.В. Идеино-политическая борьба в ранней Византии (по данным историков IV – VII вв.) М., 1974.
17. Чернецов С.Б. Миф, живопись и историография в средневековой Эфиопии // Сборник Музея антропологии и этнографии XXXVII. Материальная культура и мифология. Издательство «Наука» Ленинградское отделение, Ленинград, 1981. с. 114 – 123.



Таблица №1





1



2



3



4



5



6



7

Таблица №3

Khamidova Khuriyat Gafurjon kizi
Institute of Social and Political Sciences
senior lecturer

Published under peer review:
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Associate professor
A.Togaeva

**ON THE NATURAL MINERAL RESOURCES OF THE TRASCASPIAN REGION
AND THEIR USE FOR COLONIAL PURPOSES**

Abstract. In the colonial policy of the Russian Empire on the territory of Turkestan, the issue of using the region's natural mineral resources occupied an important place. Initially, scientific research was conducted in various areas of the region in order to identify natural mineral resources. After the occupation of the lands, the exploitation of the found natural resources began. For this purpose, the Transcaspian region of the Turkestan Governorate General was also explored and a mining industry associated with the processing of minerals was created there. The article analyzes issues related to these processes based on official sources.

Keywords: Turkestan, Caspian Sea, Russian Empire, mining, coal, oil, sulfur, table salt, natural resources, minerals.

**KASPIYORTI VILOYATINING TABIIY QAZILMA MANBALARI VA ULARDAN
MUSTAMLAKACHILIK MAQSADIDA FOYDALANILISHI XUSUSIDA**

Annotasiya. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosatida mintaqa tabiiy qazilma boyliklaridan foydalanish masalasi muhim o'rin tutgan. Dastlab mintaqaning turli hududlarida tabiiy qazilma manbalarini aniqlash maqsadida ilmiy izlanishlar olib borildi. O'lka bosib olinganidan so'ng topilgan konlarni o'zlashtirish ishlari boshlandi. Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti viloyati ham shu maqsadda tadqiq etilib, u yerdagi tabiiy qazilma boylarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan tog'-kon sanoati vujudga keldi. Maqolada ushbu jarayonlar bilan bog'liq masalalar rasmiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Kaspiyorti, Rossiya imperiyasi, tog'-konchilik, toshko'mir, neft, oltingugurt, osh tuzi, tabiiy boyliklar, foydali qazilmalar.

**О ПРИРОДНЫХ МИНЕРАЛЬНЫХ РЕСУРСАХ КАСПИЙСКОЙ ОБЛАСТИ И
ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИИ В КОЛОНИАЛЬНЫХ ЦЕЛЯХ**

Аннотация. В колониальной политике Российской империи на территории Туркестана важное место занимал вопрос использования природных минеральных ресурсов региона. Первоначально научные исследования проводились в различных районах области с целью выявления природных минеральных ресурсов. После завоевания страны началась эксплуатация обнаруженных рудников. С этой целью был также разведан Каспийский район Туркестанского генерал-губернаторства и создана там горнодобывающая промышленность,

связанная с переработкой природных полезных ископаемых. В статье на основе официальных источников анализируются вопросы, связанные с этими процессами.

Ключевые слова: Туркестан, Каспийское море, Российская империя, горное дело, уголь, нефть, сера, поваренная соль, природные ресурсы, полезные ископаемые.

Kirish (Introduction)

Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasini zabt etishdan koʻzlagan maqsadlaridan biri oʻlkaning tabiiy boyliklarini oʻz manfaatlari yoʻlida tasarruf qilishdan iborat edi. Shu maqsadda Turkiston istilosi boshlanishidan ilgariyoq bu yerdagi foydali qazilmalarni oʻrganish ishlari boshlangan. Ayniqsa oʻlka bosib olinganidan keyingi davrda Turkistonning tabiiy boyliklarini oʻrganishga qattiq kirishilib, juda koʻp maʼlumotlar qoʻlga kiritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti viloyati ham tabiiy qazilma konlariga boy boʻlib, bu haqda oʻz davrining turli adabiyotlarida, jumladan rasmiy manbalarda qayd etib oʻtilgan. Xususan, yillar kesimida muntazam ravishda nashr etib borilgan Kaspiyorti viloyati sharhlari, XX asr boshlarida oʻlkada taftish ishlarini olib borgan K. Palenning asarlari, oʻlkada geologik izlanishlar olib borgan V. Mushketov [2], konchilik injeneri A. Konshin [1] kabi olimlarning tadqiqotlari va boshqa koʻplab turdagi manbalarda Turkistonning tabiiy boyliklari haqidagi muhim maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, ular orasida Kaspiyorti viloyati borasidagi maʼlumotlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Xususan, 1881–1886 yillarda A.Konshin Kaspiyorti viloyatini tadqiq etib, bir qator ekspeditsiyalar uyushtirilgan. U viloyatning geologik tuzilishini oʻrganib, tabiiy qazilma konlarini aniqlagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqotni amalga oshirishda fanlararo yondashuv tamoyiliga asoslanildi. Chunki Turkiston general-gubernatorligida rus tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar hamda oʻlka tabiiy boyliklarining mustamlakachilar tomonidan oʻzlashtirilishi jarayonini tarixiy nuqtai nazardan oʻrganishda tarix fani bilan birgalikda geologiya, geografiya, mineralogiya kabi fan tarmoqlariga oid maʼlumotlar ham koʻrib chiqildi. Tadqiqotni yozishda tizimli va qiyosiy tahlil, tarixiylik usullaridan foydalanildi. Bu esa Turkistondagi geologik izlanish ishlari va togʻ-kon sanoatidagi oʻzgarishlarni davrlar kesimida taqqoslash, olib borilgan mustamlakachilik siyosati izchil davom ettirilganini manbalar asosida tahlil etish va ochib berishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Oʻlkaning tabiiy boyliklarini tashib ketish va oʻz manfaatlari yoʻlida ishlatishdan tashqari, mustamlakachi Rossiya imperiyasi hukumati oʻz xazinasini Turkistonning turli hududlarida qazib olinadigan togʻ-kon boyliklaridan olinadigan soliqlar bilan ham toʻldirib borgan.

Buni Kaspiyorti viloyati misolida tahlil qilinsa, yillar davomida yer osti boyliklaridan keladigan daromad oshib borganligini koʻrish mumkin. 1898 yilda Kaspiyorti viloyatida neft, ozokerit (togʻ mumi), osh tuzi, ohak va boshqa qurilish materiallari qazib olingan. Bular orasida qazib chiqarish hajmi va xazinaga tushadigan daromadi jihatidan osh tuzi birinchi oʻrinda turgan va bir yilda 1 168 357 pud [7] osh tuzi qazib olingan. Neft esa Cheleken orolida aka-uka Nobellar shirkati tomonidan, shuningdek shu yerdagi eski turkman quduqlaridan qazib olingan. Shu yili

343 249 pud, ya'ni oldingi yildagidan 4 baravar ko'proq neft qazib olingan. Ozokerit ham mahalliy aholi tomonidan Chelekendan kam miqdorda bo'lsa-da, qazib olingan [3: 116].

Viloyat bo'yicha ohak va qurilish toshlariga bo'lgan talab yildan-yilga oshib borganligi sababli ularni qazib olish hajmi ko'payib borgan. Ushbu materiallar qo'shni viloyatlarga ham olib ketilar edi. K.Palen ohak Krasnovodskdan sharqqa tomon 7 verst [6] uzoqlikdagi tog' tizmasida ohak cho'kindilari mavjudligini qayd etadi [5: 121].

Toshtuz Krasnovodsk uezdida qazib olingan va bir qismi mahalliy ehtiyojlarga ishlatilgan, qolgan qismi Eron va Kavkazga olib ketilgan. Uezdning Cheleken hududida bir yilda 993 010 pud tuz qazib olingan bo'lsa, shundan 958,660 pudi chetga olib chiqilgan. Uning uezd bozoridagi narxi 6,5 tiyin¹ (копейка)ni tashkil etgan. Baloishim stansiyasida tuz bir bo'lagi 10 tiyin, maydalangan tuzning bir pudi 20 tiyinga sotilgan [3: 117].

Viloyatning Mullaqori va Mang'ishloq kabi hududlaridan ham tuz qazib olinib, mahalliy aholi iste'molidan tashqari qo'shni hududlarga ham jo'natilgan. Mang'ishloq uezdidagi ko'llardan bir yilda qazib olingan 15 100 pud tuzning 1 800 pudi Nikolaevsk manzilgohi aholisiga bepul tarqatilgan, qolgan qismining har bir pudidan 2 tiyindan hukumatga to'lov olingan. Marv va Tajan uezdlari ko'llaridan olinadigan tuz aholi ehtiyojiga ishlatilgan, shuningdek, Afg'onistonning chegara hududlarida sotilgan [3: 117].

Mustamlaka davrida Kaspiyorti hududlaridan qazib olinadigan yer osti boyliklaridan biri toshko'mir hisoblanadi. O'lkadagi tog'-konchilik sanoatini taftish qilgan K.Palen Turkistonga metall kam miqdorda olib kirilganini qayd etadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, 1 mln pudga yaqin po'lat, temir va cho'yan tayyor mahsulot va ruda ko'rinishida Krasnovodsk va Saksovul stansiyasi orqali Toshkent va O'rta Osiyo temir yo'llari vositasida keltirilgan. Shuningdek, 5 ming pud mis buyumlari, 15 ming pud qo'rg'oshin va rux, 1mln 500 ming pud kerosin va neft mahsulotlari shu tarzda olib kelingan.

Turkistonda temir umuman qazib olinmagan, boshqa metallar va neft mahsulotlari esa juda kam miqdorda qazib olingan bo'lib, Turkiston aholisining tog'-kon sanoatiga ehtiyoji unchalik katta emas edi. Dastlabki paytda o'lkada asosan metall va yoqilg'ining katta iste'molchilari Toshkent va O'rta Osiyo temir yo'llari edi. Biroq keyinchalik arzon yoqilg'iga ehtiyoj kuchaydi, saksovulzorlar esa yil sayin kamayib, ularning narxi tobora oshib bordi. Saksovullarni chopish taqiqlanishi oqibatida va fabrika-zavod ishlab chiqarishi kuchayib borgan sayin toshko'mirga ehtiyoj tobora kuchaydi. Shu sababli toshko'mir konlarini izlash va qazib olishga zo'r berildi [5: 31].

Turkiston mintaqasining deyarli har bir hududida toshko'mir konlari mavjudligi imperiya hukumati tomonidan tashkil etilgan ekspedisiyalar orqali aniqlangan. Kaspiyorti viloyati Qorator tog'larining Mang'ishloq uezdigacha tegishli hududlarida mustamlaka hukmronligining dastlabki davrlaridayoq toshko'mir konlari izlab topilgan. Masalan, dengizdan 30 verst uzoqlikdagi Apazir qudug'i yonida topilgan toshko'mir oson va alangasiz yonuvchan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan uning boshqa xususiyatlari va taxminiy hajmi aniqlangan. Umuman, Qorator tog'larining boshqa hududlarida ham toshko'mir konlari topilgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari yomon sifatli deb topilib,

¹ Копейка (коп.)- tiyin

qazuv ishlari olib borilmagan. Krasnovodsk uezdining bir qancha hududlarida qo'ng'ir ko'mir konlari aniqlangan, biroq ularning aksariyati ishga tushirilmagan [5: 32,33].

Bu davrda tog'-kon sanoatida kir degan mahsulot ham qazib olingan. Kir (ushbu qazilma nomi Farg'onada xilq deb ishlatilgan) neftning oksidlanishi natijasida vujudga kelgan mahsulot bo'lib, yer yuzasiga tabiiy yo'l bilan chiqqan neft vaqt o'tishi bilan atmosfera ta'sirida oksidlangan va tobora quyilib bitumga aylangan. Turli jinslar bilan qo'shilgan ushbu mahsulot asfalt ko'rinishini olgan. Hudud aholisi ushbu mahsulotni qazib olib, qurilish maqsadlarida, xususan, uy-joylarning asosi (fundamenti), pol va tomlarni yopishda ishlatgan. Kir Kaspiyorti viloyatining Cheleken oroli markaziy qismlari va Neft tog'i hududlarida tarqalgan. Chelekenda kirni qayta ishlash bilan turkmanlar shug'ullanganlar va bu mahsulotni Uzunada va Kaspiyorti viloyati hududida sotganlar. Kir yiliga 10 ming pud miqdorida qazib olingan. XX asr boshlariga kelib bu ko'rsatkich ancha qisqargan. Neft tog'idan ham kir turkmanlar tomonidan qazib olingan va temir yo'l tarmog'ida neft ishlatila boshlaganidan keyin kir temir yo'llar orqali tashilib, yo'nalish bo'yidagi qurilishlarda ishlatila boshlangan [5:101].

Kaspiyorti viloyatida mavjud foydali qazilmalardan yana biri oltingugurt bo'lib, uning hajmi bo'yicha viloyat o'lkada birinchi o'rinlarda turgan. Biroq aloqa yo'llarining mavjud emasligi ushbu qazilmadan ishlab chiqarishga keng foydalanish imkonini bermagan. Oltingugurtning turli xil ko'rinishlari, jumladan, viloyatning Krasnovodsk uездidagi Cheleken oroli, Krasnovodsk, Chiqishlar, Ko'kurtota ko'li, O'rta Osiyo temir yo'lining Mullaqori, Qozonjiq stansiyalari va boshqa joylarida aniqlangan. Bundan tashqari, oltingugurt Ashxobod uezdining bir qancha hududlarida mavjud edi [5: 102, 103]. Hudud aholisi azaldan oltingugurtni qazib olib, undan turli maqsadlarda foydalangan.

muvaqqiyatli bo'lishni anglatadi. Madaniyatlararo muloqot samaradorligiga erishish har bir madaniyatning to'g'ri aloqa kodlari bilan xabarlarini uzatish va qabul qilishga ahamiyat berishni va mazmunli aloqalarni o'rnatish uchun turli xil muloqot uslublarini tushunish orqali uzoq muddatli munosabatlarni yaratishni anglatadi. Madaniyatlararo muloqot odamlarning kundalik hayotining ko'p jabhalariga kirib bordi. Uning umumiy nazariy tafakkuri shundan iboratki, bizni o'rab turgan deyarli har bir munosabat o'ziga xos manaviy-axloqiy munosabatlarga moslashish zaruratini keltirib chiqaradi. Misol uchun, biz bolalar bilan gaplashganda, biz gapirish uslubimizni moslashtiramiz va hatto bitta so'z ham gaplashayotgan odamga bog'liq; biz keksalar bilan gaplashganimizda, biz ko'pincha o'zaro munosabatimizni o'zgartiramiz, jumladan, til shakllarimiz, xulq-atvor va ehtimol ko'proq hurmat; odamlar professional intervyularda shaxsiy ma'lumot berganda, ular uning tilini vaziyatga va suhbatdoshiga moslashtirishga moyil bo'ladi; odamlar unga o'xshab yo'l tuta olmaydilar. xo'jayin bilan xuddi shunday gaplashadi; odamlar ota-onalari bilan tengdoshlari bilan gaplashgandan farqli o'laroq gaplashishadi. Bu nazariya uchta hodisaga e'tibor qaratadi: Birinchisi, assimilyatsiya hodisasi ya'ni shaxslar turli xil o'zaro ta'sirlar ostida boshqalarga moslashish uchun o'zlarining til modellarini o'zgartiradilar. O'zaro ta'sir muhitida boshqa odamlarga ma'qulligini ko'rsatish uchun shaxslar ko'rsatishi mumkin yaqinlashish tendentsiyasi. Ikkinchidan, begonalashish hodisasi. begonalashuv uchrashuvi bu tillari, madaniyati va boshqa kelib chiqishi turlicha bo'lgan ikki guruh o'rtasida sodir bo'ladi. Suhbat davomida bir tomon o'zi gaplashayotgan shaxsga mos kelmaydigan xususiyatlarni ta'kidlaydi. Uchinchidan, hodisani saqlab qolish. Madaniyatlararo muloqot har xil muloqot muhitida odamlarning tili va xulq-atvorining har bir jihati o'zgarmasligini ta'kidlaydi. Har doim turli suhbatlarda barqaror xususiyatlar saqlanib qoladigan vaziyat mavjud. "Xizmat ko'rsatish" - bu shaxs muayyan aloqa xatti-harakati yoki ish faoliyatini o'zgartirmaganda yuzaga keladigan hodisa. Misol uchun, yaqin do'stlari bilan tez-tez hazillashib yuradigan kishi suhbat assimilyatsiya paytida uning bo'lajak boshlig'i bo'lishi mumkin bo'lgan odam bilan hazillashmasligi mumkin, lekin uning oilasi uni o'sha do'sti bilan tanishtirganda yangi do'sti bilan hazillashishi mumkin. Shuning uchun, "xizmat ko'rsatish" ularning madaniyatlararo muloqot xatti-harakatlarining o'ziga xos jihati. "Xalqimiz orasida keng tarqalgan, taqiq va rag'bat ruhini o'zida mujassam etadigan "ofarin", "balli", "yashang", "unday qilmang", "uyat bo'ladi", "sabob bo'ladi", "uvol bo'ladi" kabi so'z va iboralarda bunday munosabat o'zining yaqqol ifodasini topadi[2; 26-b.]".

Madaniyatlararo muloqot faoliyati muloqot qobiliyati sifatida qaraladi, buning asosiy sababi madaniy o'zaro ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, inson uchun munosabatlardagi taxminlar, me'yorlar va qoidalarini bilish, qadr-qimmat ko'rsatish va mos bo'lish juda muhimdir. Biroq, madaniyatlararo muloqot samaradorligini qo'lga kiritishda madaniyatlararo aloqani ta'minlaydigan hissiyotlar, fikrlar, munosabatni tushunish, xatti-harakatlar va boshqalar muhim omillardir. Elementlar kontsepsiyalarni aniqlovchi samarali hisoblanadi. Insonning boshqa madaniyatdagi xulq-atvorni idrok etish va sharhlash qobiliyati uning muloqot qobiliyati va uslubiga bevosita bog'liq. Madaniyatlararo muloqot samaradorligi - bu boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish va madaniy qadriyatlarga muvofiq munosabat va xulq-atvorni ko'rsatish imkonini beradigan madaniy bilim va ko'nikmalarni egallashdir. Madaniy muloqot faoliyati nafaqat turli madaniyatlar madaniyatini o'rganish va shu madaniyatlar qoidalariga muvofiq muloqot qilish;

Shuningdek, u o'z mamlakatidagi mintaqaviy madaniy farqlardan xabardor bo'lishni va bu bilan bog'liq xabarlarini etkazishda ongli bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishni talab qiladi.

Globalizatsiya, texnologik rivojlanish, va insonlar orasidagi yo'qotishmaydigan aloqalar, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, internetning ro'yxatdan o'tishi, ijtimoiy tarmoqlarning o'sish, hamda turli sohalarida madaniyatlararo almashishlar, jamiyatlararo muloqotni muhim ahamiyatga ega qiladi. Bu o'zgarishlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy olamiga ta'sir ko'rsatadi, uning mazmunini, o'zgarishlarini, va qarorlarini shakllantiradi. Shu boisdan, "etnik va millatlarro munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy jihatdan odilona hal qilinishi eng avvalo, har bir mamlakat ijtimoiy-sisiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi[3; 73-b.]".

Madaniyatlararo muloqot – o'rganiladigan, saqlanadigan va o'rgatilgan xodisa; Bu yangi avlodlarga ta'lim orqali singdiriladigan mazmundir. Madaniyat instinktiv va irsiy emas, balki har bir shaxsning tug'ilgandan keyingi hayoti davomida orttirgan odatlaridir. Madaniyatlararo muloqot – ta'lim, umuminsoniy qadriyatlar orqali o'rganiladigan va egallanadigan tushuncha bo'lib, u ta'lim va umuminsoniy qadriyat qoidalari, qonunlari va tamoyillariga mos kelishi kerak. "Shu ma'noda olib qarasak, umuminsoniy qadriyatlar keng qamrovga ega tushuncha, moddiy va ma'naviy madaniyat, axloq, odob, tarix, san'at, texnika, adabiyot, madaniy meros, urf-odatlar, diniy aqidalarni qamrab olish bilan bir qatorda, bevosita inson tafakkuri bilan bog'liq dialektik aloqadorligini ham unutmashlik lozim[4; 9-b.]". Axloq - bu insonning amaliy faoliyati va muloqotida uning ma'naviy yo'nalishi, odamlarga munosabati va ichki qabul qilingan, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga asoslangan haqiqatdir.

Yoshlar orasida muloqot jarayonida faqat axborot uzatish emas, balki ayrim yangi olingan axborotlarning shu asosda birgalikda rivojlanishi kuzatiladi. M.S.Kaganning so'zlariga ko'ra, "muloqot - bu odamlar bilan muloqot qilish va ularning jamiyatiga tug'ilish (yoki ushbu jamiyatning darajasini oshirish) uchun umumiy bo'lgan yangi axborotni ishlab chiqish jarayonidir) [5; 149-b.]". U inson jamoasining shakllanishiga yordam beradi va shu bilan muloqot madaniyatining shakllanishiga va fuqarolik jamiyati qurilishiga yordam beradi.

Muloqot madaniyati yoshlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Axloqiy, iqtisodiy va boshqa omillar yoshlarning mavqeiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun haqiqiy muloqot madaniyatida keng doiradagi davlat masalalari bo'yicha hukmlar, baholar va ko'p o'lchovli pozisiyalar solishtiriladi. Muloqot madaniyatida ijtimoiy muloqotning ko'plab kanallari, qonunga tayanish va jamoat birlashmalarining keng doirasi, guruh motivasiyasini turli xil axborot qo'llab-quvvatlash va ko'rib chiqish, odamlarning butun ijtimoiy tajribasi qo'llaniladi. Uning yordamida ijtimoiy manfaatlar muvofiqlashtiriladi, harakatlar muvofiqlashtiriladi, vazifalar keng subyektlar tomonidan hal etiladi. Turli ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi ko'taruvchilar o'rtasidagi muloqot ijtimoiy keskinlik darajasini pasaytiradi, fuqarolik jamiyati va barcha ijtimoiy kuchlarning, jumladan, yoshlarning hamkorligini mustahkamlaydi.

Muloqot madaniyatining mazmuni muayyan qadriyat - me'yoriy asoslar bilan bog'liq. Uning madaniy parametrlari ishtirokchilarning shaxsiy munosabatlari bilan ham, muloqot jarayonining o'zi, uning psixologik asoslari va ishlatiladigan vositalar bilan ham belgilanadi.

Kelishilgan masalalarning juda ko‘pligi muloqot madaniyati, fuqarolik yetukligi va tomonlarning o‘zaro tasarruf etish darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Yoshlarda muloqot madaniyatining to‘laqonli bo‘lishi uchun shart-sharoitlar o‘z maqsad va manfaatlarini, qadriyat va g‘oyalarini erkin ifoda etadigan hamkorlarning ochiqligi va bag‘rikengligi bo‘lib, ishonch munosabatlarini o‘rnatish imkonini beradi, xabardorlik va pozitsiyalarni muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Bu ko‘pincha ijtimoiy birlik, rejimning barqarorligi, demokratiyaga sadoqatini ifodalash bilan belgilanadi. Voqyelikni chuqur anglashga, muqobil dasturlarni ishlab chiqishga, ijtimoiy maqsad va vositalarni belgilashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, muloqot madaniyatiga bo‘lgan ehtiyoj ko‘pincha turli ijtimoiy guruhlarning ta’sir o‘tkazish uchun kuchaygan raqobati, harakatlari raqiblarni zararsizlantirish yoki ularning ta’sirini cheklashga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, ijobiy samara ham bor: “oqilona tarzda tashkil etilgan raqobat jamiyat hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarga rag‘bat[6; 46-b.]” sanaladi. Madaniyatlararo muloqot, turli xil jamiyatlar va mamlakatlar orasidagi aloqalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan muhim bir vosita hisoblanadi. Bu muloqotning ma’naviy-axloqiy olamga ta’siri, insonlar orasidagi aloqalarni kuchaytirishda kritik muhimlikka ega. Ma’naviy-axloqiy olam, jamiyatning ma’naviy va axloqiy qadriyatlari, normativlari, va qarorlari bilan bog‘liqdir. Bu olam, insonlarning dunyoqarashini, qarorlarini olish va amal qilish usullarini, va o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda jamiyatda muloqot madaniyati uchun zarur shart-sharoitlar axborot almashish va shartnomalarga erishishda kommunikativ faoliyat barcha tomonlarning manfaatlarini aks ettirishi lozim. Muloqot ishtirokchilari tomonidan birgalikda ba’zi asosiy qadriyatlar va qoidalar qabul qilinishi, hamkorlik munosabatlari va ishtirokchilar o‘rtasida ishonch o‘rnatish, muayyan manfaatlar va pozitsiya va shaxslar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy rollar tizimi asosida shakllantirish, muloqotni targ‘ib qiladigan va unga tegishli maqomni beradigan muayyan tashkilot institutional shakllardan foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзаолимов Б. Ёшлар онгида миллий ғояни шакллантириш. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2008. 17-бет.
2. Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. –Тошкент: Akademiya, 2008. 26-бет.
3. Сафарова Н. Терроризм: манбалар, мақсади ва глобаллашув жараёни (тарихий-фалсафий таҳлил). –Тошкент: Фан, 2006. 73-бет.
4. Каримов Х. Истиқлол ва бадиий тафаккур равнақи. – Самарқанд, Зарафшон, 2003, 9-бет.
5. Каган М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений. - М., 2002. - С. 149.
6. Василенко И.А. Политический консенсус в гуманитарном диалоге культур // Вопросы философии. - 1996. - № 9. - С. 46.
7. Yunus Ortikovich Kholikov. (2021). The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 63–68.
8. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. “Миллатлараро бағрикенглик маданиятининг ахлоқ билан уйғунлиги”. *E Conference Zone*. 2023.
9. Xoliqov, Y. “The role of ethics and education in the development of tolerance relations between uzbekistan and the nation in the process of development”. *International Conference on Problems of Improving Education and Science*. Vol. 1. No. 02. 2022.
10. Kholikov, Yunus Ortikovich. “Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance”. *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.09 (2021): 48-51.

TOKHIR NORKOBILOV

Senior Researcher, (PhD)

State Museum of History of Uzbekistan,

Academy of Sciences of Uzbekistan

tokhimorkobilov273@gmail.com

Published under peer review:

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,

Associate professor

D.Rasulova

ABOUT THE BRONZE PELVIS DEPICTING THE SPHINX

Abstract. The present article is devoted to the study of a bronze pelvis of the XII-XIII centuries with the image of a polymorphic sphinx creature in the centre of the composition resembling the disk of the sun and rays departing from it in the form of sharp peaks, which testifies to the connection of the sphinx with the solar symbol.

Key words: pelvis, sphinx, halo, vegetative ornament, toreutics.

О БРОНЗОВОЙ ТАЗЕ С ИЗОБРАЖЕНИЕМ СФИНКСА

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению бронзового таза XII-XIII вв. с изображением полиморфного существа-сфинкса, в центре композиции, напоминающей диск солнца и отходящие от него лучи в виде острых пик, что свидетельствует о связи сфинкса с солярным символом.

Ключевые слова: таз, сфинкс, нимб, растительный орнамент, торефика.

SFINKS TASVIRI TUSHIRILGAN BRONZA TOG'ORA XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola XII-XIII asrlarga oid bronza tog'ora bag'ishlangan bo'lib, kompozitsiyaning markazida quyosh diskini eslatuvchi polimorf jonzo - sfinks tasviri va undan taraladigan o'tkir cho'qqi shaklidagi nurlar, bu sfinksning quyosh belgisi bilan bog'lik ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: tog'ora, sfinks, gardish, o'simliksimon naqsh, torevtika.

Introduction

Metalworking is one of the most important issues in the cultural history of the peoples who inhabited the territories of Central Asia. In the applied art of Uzbekistan, a special place belongs to the art of making and decorating metalware.

In the decoration of bronze wares of the 11th-13th centuries, fairy-tale-fantastic creatures are particularly popular, and epigraphic ornamentation in the 'kufi' and 'naskh' scripts is widespread. These ornamental motifs decorate the pelvis published below.

The State Museum of History of Uzbekistan of the Academy of Sciences of Uzbekistan keeps a collection of copper and bronze items, among which a bronze basin of XII - early XIII centuries are of great interest.

Literature review

Considering the degree of study of such products, it should be noted that similar basins were published in the works of a number of researchers, including G.A. Pugachenova, L.I. Rempel [Pugachenova, Rempel, 1960. P.161-162, Fig.18-20], N.N.Negmatov, E.V.Kilchevskaya [Negmatov, Kilchevskaya, 1979. P.34,43,44], Y.Yakubov [Yakubov, 2012. P.152, fig. 9.1. fig. VIII,2], T.A.Abdullaev, A.Fahretdinova, A.Hakimov [Abdullaev, Fahretdinova, Hakimov, 1986. P.50, fig. 13].

Methodology and research

In the process of writing this article we have studied and considered the elements of ornamentation decorating the basin, and on the basis of comparative analysis with similar items stored in museums of Uzbekistan (Samarkand, Fergana), Tajikistan (Ura-tyube), Kyrgyzstan (Osh) dated it. The purpose of this work is to introduce new samples of similar items into the scientific turnover.

Analysis and results of the research

Here is a description of the published trays kept in the museum.

The pelvis is bronze (brass) on a wide flat bottom with wide folded festooned edges (Fig.1). The walls of the pelvis taper smoothly to the top, almost vertically rise, and then in the upper part make a bend and form a twelve-cornered edge bent outwards. On the walls of the body, at the level of the corners, the master has carved vertical lines of edges, which gives the pelvis a faceted appearance. On the inner surface at the place of the upper bend of the wall there is a belt (2.5 cm wide) with a Kufic inscription executed on the background of a circular floral ornament in the form of bending stems with trefoils. The belt with the inscription at the level of the corners is divided by twelve medallions in the form of large, widened in the middle part of the petals with a flower inside. The flower is four-petalled on a vertical stem, with sloping paired lines departing from it on either side. Below the girdle there is a narrow band with a rope-shaped ornament of broken slanting lines (Fig.2).

In the centre of the bottom of the pelvis is a rosette (diameter 10.8 cm.) depicting a sphinx walking to the right side with a female head turned in front (Fig.3). The sphinx is shown with a raised front paw, vertical wing, with a bifurcated end (one end is pointed and the other roundly bent). The sphinx has a powerful body, longitudinal lines show the feathers on the wing, a flap of wool hangs from the side on the chest. The nose, brow arches, and eyes close to the bridge of the nose are marked with contour lines. The head has a tight-fitting hood with a pointed top that hangs down to the shoulders. In the upper part the hood is divided in the middle by two transverse lines. The sphinx is depicted against a background of dense circular vegetal ornamentation in the form of spiral scrolls of stems with rectangular branches and petals. The medallion is outlined by two carved lines, followed

by a smooth band (1 cm. wide), and then a chased belt with a continuous winding stem with petals (islími). Then again, a smooth band (0.7 cm. wide), and after it an ornamental belt (2.3 cm. wide) with an inscription divided by five round medallions delineated by double lines, with a double small circle with a trefoil inside. Behind the belt with the inscription is again a smooth strip (width 0.7 cm.) and carved, carved line, a concentric circle, from which depart from each other connected with curved lower ends, sharp peaks, the so-called ornamental a palisade in the shape of a mountain peak, reminiscent of the rays of the sun (Fig.3).

The pelvis was given to the museum by Emir Seyid Abdul Ahadkhan, who ruled in Bukhara Khanate from 1885 to 1910.

The edge is broken off. Dimensions: upper part diameter -51 cm; diameter of the bottom - 40cm; height - 11cm; diameter of the circle with peaks -23 and 29cm; diameter of the circle with epigraphy - 16,5-21,5cm; diameter of the circle 'islími' - 12,7-14,7cm. Inventory No. A.14185; Collection No. 188/70.

Finds of pelvises similar to ours were found earlier in Central Asia.

Thus, as part of the Kalaibaland hoard of bronze items of the 12th - early 13th centuries stored in the Uratyube Museum of History and Local Lore (Tajikistan), there is a similar twelve-sided basin with a diameter of 52.8 cm and height of 11.7 cm. The decoration of the sides of this basin consists of interrupted belts of patterned Arabic inscription on the background of complex weaves of vegetal ornament. The ligature of the Arabic Kufic inscription of the rims is interrupted by enlarged flattened five-leaves placed on the protruding corners of the sides. In the centre of the bottom is a round carved medallion in which the figure of a winged lioness walking with a female head in a characteristic headdress with a descending veil is engraved against a background of a dense intertwined vegetal pattern. The lioness has a powerful torso with a lush raised wing and massive head and legs. The central medallion is surrounded at some distance by a toothed belt with a trefoil branch at its base. It is supported by arc-shaped teeth facing the rim of sharp pico-shaped finials. These rhythmically recurring peak-shaped buds of the framing frieze transform the entire carved decoration of the bottom of the pelvis into a radiant rosette.

The image of the sphinx is also on one of the dishes from the Kalaibaland hoard. The dish has a wide horizontal rim with a curved downward edge and a large rosette-shaped depression in the smooth surface of the bottom with beveled spoon-shaped walls. A winged lioness with a human head turned in full-face is also shown in the centre against a background of a strongly flowing vegetal pattern. At a short distance from the sphinx medallion is a carved belt of rhythmically repeating, outward-facing arrow-shaped prongs connected at the bases by a narrow belt of carved ornamented triangles. Diameter - 33.5 cm; height - 3.5 cm; (Negmatov, Kilchevskaya, 1979, P.37,43,44; Yakubov, 2012. C. 152, fig. 91, ill. VIII,2).

Similar to our basins we find in the collection of the Osh Regional Museum of History and Local Lore (Kyrgyzstan). One of them (FA-107), forged with a wide bent twelve-angled edge, along which is an inscription imitating Kufic, interrupted by palmettes. On the bottom in the centre is engraved an image of a sphinx.

The second basin (FA-106) has a bent decagonal edge. Along the edge is also an imitation of a Kufic inscription, and on the bottom an image of the sphinx. The diameters of the corolla of the

basins are 54 and 55 cm and they are dated to the 13th century (Monuments of Culture and Art of Kyrgyzstan, 1983, P.73, Nos. 292, 293).

On trays from the collections of the Samarkand and Fergana museums, we also find images of sphinxes with a female face. In the centre of the trays, the sphinxes are inscribed in a radiant disc with festoons. The Samarkand tray with a spoon-shaped festooned side (A - 41-21) depicts a sphinx walking with its wing raised upwards. The figure's movement is emphasised by the swirling arrangement of branches. His head is surrounded by a halo in the form of a short veil. There is an Arabic inscription on the side of the tray. (Culture and Art of Uzbekistan.1991. P.207; Abdullaev, Fakhretdinova, Khakimova, 1986. P.50, fig. 13).

On the tray of the Fergana Museum, the face of the beast is rendered in the form of stripes, and instead of a halo, an indistinct headdress is depicted. Whirling branches with characteristic narrow and long buds are treated less expressively. The trays were dated to the XI-XIII centuries (Pugachenkova, Rempel, 1960. P.161-162, fig.18-20).

As can be seen from the above, images of sphinxes are quite often found on the products of Maverannahr's art crafts of the 9th - early 13th centuries. Most often they were depicted in a composition of round medallions. We find sphinxes on the surface of the bottoms of trays or basins from the collections of the Samarkand and Fergana museums (Pugachenkova and Rempel, 1960. P. 160, fig. 18,19), on the bottom of the outside and inside of a hemispherical bowl from the Termez museum (Khakimov, 1975. P.65), on the outer side of a pot (P.65), on the outer side of a bowl from the Termez museum (Khakimov, 1975.). on the outer side of pots or jugs from the collection of the State Hermitage Museum (Khakimov, 2012. P.15), and they also decorate the upper sides of stands from the collection of our museum, etc.

On bronze mirrors quite often, there are compositions of two sphinxes with joined tails and wings. On stands for vessels from the Tashkent, Uratyube and Samarkand museums there are also images of sphinxes with paired bodies and one head. (Khakimov, 1983. P.98-100,105; Negmatov, Kilchevskaya, 1979. P.49-51, fig. 13).

Common to all engraved images of sphinxes in medallions is their location against a background of dense plant ornament in the form of spiral stems with rounded or rectangular petal branches. The sphinxes were depicted regardless of which way they were going, majestically striding against the background of swirling plant ornamentation with a raised front paw, the head is shown in front and the torso in a lateral position. All sphinxes have crowns or halos. On early examples, the halo is a wide band behind the sphinx's head, which gives a special background to the crowns. Later the halo turns into a narrow band or completely merges with the crown, forming a kind of headdress.

Conclusions

According to a number of scholars, the prototype of the Islamic sphinx dates back to Achaemenid models. The revival of the sphinx image in the medieval period falls on the XI, and at the end of XI - beginning of XIII centuries the sphinx was already a favorite motif of Central Asian toreutics.

Some researchers consider traces of the ancient connection of the sphinx with the solar symbol, when it was depicted with the body of a lion (solar animal) in the centre of the composition

resembling the disc of the sun and rays departing from it in the form of a frequency of sharp peaks. (Khakimov, 1983. P.98-100) We see a similar drawing in the form of a spade-shaped frequency circle resembling radially diverging rays of the sun on a pelvis from the collection of our museum.

Also, a number of scholars associate the image of the sphinx with protective and benevolent functions (Khakimov, 2012. P.16).

Based on the comparative material described above, the bronze basin from the collection of our museum can be dated to the XII - early XIII centuries.

References

1. Abdullaev T.A., Faxretdinova D., Xakimov A. *Pesn v metalle*. Tashkent, 1986. [Abdullaev T.A., Fakhretdinova D., Khakimov A. *Song in metal*. Tashkent, 1986.].
2. *Kultura i iskusstvo drevnego Uzbekistana. Katalog vystavki, Tom 2, Moskva, 1991.* [Culture and Art of Ancient Uzbekistan. Exhibition Catalogue, Volume 2, Moscow, 1991.].
3. Negmatov N.N., Kilchevskaya E.V. *Kalabalandskiy klad metallicheskih izdeliy // Iskusstvo tadjikskogo naroda. Vyp.4. Dushanbe, 1979.* [Negmatov N.N., Kilchevskaya E.V. *Kalabaland hoard of metalware // Art of the Tajik people. Issue 4. Dushanbe, 1979.*].
4. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. *Vndayushiesya pamyatniki izobrazitelnogo iskusstva Uzbekistana. Tashkent, 1960.* [Pugachenkova G.A., Rempel L.I. *Outstanding monuments of fine arts of Uzbekistan. Tashkent, 1960.*].
5. Xakimov A.A. *Iz mira obrazov i motivov iskusstva Maverannaxra IX – XIII vv. // Obshestvennye nauki v Uzbekistane, № 6-7, 1975.* [Khakimov A.A. *From the world of images and motifs of the art of Maverannahr 9th - 13th centuries // Social Sciences in Uzbekistan, No. 6-7, 1975.*].
6. Xakimov A.A. *Izobrazitelno-ornamentalnye obrazy i motivy prikladnogo iskusstva // Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-XIII vv. Tashkent, 1983.* [Khakimov A.A. *Fine-ornamental images and motifs of applied art // Art culture of Central Asia IX-XIII centuries. Tashkent, 1983.*].
7. Xakimov A.A. *Torevtika, kak fenomen xudojestvennoy kultury // Xudojestvennaya kultura Sentralnoy Azii i Azerbaydjana IX-XV vv. Tom III. Torevtika. Samarkand-Tashkent, 2012.* [Khakimov A.A. *Toreutics as a phenomenon of artistic culture // Art Culture of Central Asia and Azerbaijan 9th - 15th centuries Vol. III. Toreutics. Samarkand-Tashkent, 2012.*].
8. Yakubov Yu. *Tadjikistan. // Xudojestvennaya kultura Sentralnoy Azii i Azerbaydjana IX-XV vv. Torevtika. Tom III. Samarkand-Tashkent, 2012. S.123-166.* [Yakubov Yu. *Tadjikistan. // Art Culture of Central Asia and Azerbaijan 9th - 15th centuries Vol. III. Toreutics. Samarkand-Tashkent, 2012.*].




Fig.1.



Fig.2.



Fig.3.



Fig.4.

Eshmatboy Kolkanov,
University of Science and Technology
Associate Professor of the Department of Social Sciences,
Doctor of Philosophy

Published under peer review:
Doctor of Science of History,
Professor Ikromitdin Ostonakulov

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION PATRIOTISM

Abstract. The article highlights the philosophical and ethical aspects of love for the Motherland and native land of world thinkers and compatriots, and also highlights the issues of using literary works in teaching social studies.

Key words: the fate of the Motherland, important issues, the state and the people, development, children's consciousness, love for the Motherland, the future of the country, belonging, peace, free and prosperous life, blissful feelings, ancestors, material and spiritual wealth, history of national statehood.

VATANPARVARLIKNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. Maqolada jahon va vatandosh mutafakkirlarning ona-yurt, tug'ilgan makonga muhabbat tuyg'usining falsafiy-axloqiy jihatlari yoritib berilgan bo'lib, ijtimoiy fanlarni o'qitishda adabiy asarlardan foydalanish masalalariga ham urg'u beriladi.

Tayanch so'zlar: Vatan taqdiri, muhim masalalar, davlat va xalq, taraqqiyot, farzandlar ongi, Vatanga muhabbat, yurt kelajagi, daxldorlik, tinchlik, erkin va farovon hayot, tabarruk tuyg'ular, otabobolar, ajdodlar, moddiy-ma'naviy boyliklar, milliy davlatchilik tarixi.

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПАТРИОТИЗМА

Аннотация В статье освещены философско-этические аспекты любви к Родине и родному краю мыслителей мира и соотечественников, а также подчеркнуты вопросы использования литературных произведений в преподавании обществознания.

Ключевые слова: Судьба Родины, важные вопросы, государство и народ, развитие, детское сознание, любовь к Родине, будущее страны, сопричастность, мир, свободная и благополучная жизнь, блаженные чувства, предки, предки, материальные блага, духовные богатства, история национальной государственности.

Kirish (Introduction)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev davlatimizni har tomonlama rivojlantirishning dolzarb masalalari xususida qilgan ma'ruzalarida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Har bir fuqaro o'z vatani kelajagi uchun qanday hissa qo'shishga tayyorligiga qarab uning ma'naviy dunyosiga baho berish ekanligini

tinimsiz eslatib turishdan charchamaydi. Bu ishda o'zi shaxsiy namuna ko'rsatib ishlayotganligiga har bir vijdonli o'zbekistonlik tan berishi, shubhasizdir. Vatanparvar Yurtboshimizning birgina "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" degan hayotiy talabi ham buni yaqqol isbot etib turibdi. [1] Bu o'rinda gap davlat boshqaruvi tizimi xodimlari haqida ketayotgan bo'lsa ham, kasb-koridan qat'iy nazar har bir yurtdoshimiz bu talabni o'z faoliyati uchun dasturul amal qilib olishi lozimligi ravshanlashadi. Nazarimizda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otishda bu kabi hayotiy maslak favqulotda ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolar o'z shaxsiy manfaatlarini davlat va xalq manfaatlaridan muqaddam qo'yishga moyil bo'lib boradi. Ularning burch va mas'uliyatini eslatib turish esa ziyolilar gardaniga tushadi. Mana shunday holatda allomalar va mutafakkirlarning vatanparvarlik haqidagi fikrlarini qayta eslash va eslatish zaruriyati yuzaga chiqadi. Faylasuf F.Skorina yurt va manzil-makon qadrini shunday izohlaydi: "Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o'xshashlar ham o'z uyalarini muhofaza qiladilar, – shuning kabi odamlar ham qayerda tug'ilib parvarish topsalar, – o'sha joyga cheksiz mehr qo'ygan bo'ladilar"[2].

Xalqimiz azaldan Vatan va madaniyat, milliy qadriyatlarimizni egizak holda ko'rib, tasavvur qilgan. Vatanimiz hududi, ona-zaminimiz xalqimiz moddiy mavjudligining ifodasi bo'lsa, uning madaniyati, ma'naviy qadriyatlari shu Vatanning ma'naviy ramzi, timsolidir. Asrlar davomida shakllangan, urush va iqtisodiy alg'ov-dalg'ov davrlarda ham milliy xususiyatlarini yo'qotmasdan, zamonlar osha sayqallanib, milliy jilolarini yangi sifatlar bilan boyitib kelayotgan bunday madaniyatimizning bardavomligi Vatanni sevish tuyg'usi bilan hamohangligidadir. Shuning uchun madaniyat va san'atda Vatan mavzusi umrboqiydir. U haqida kuylamaydigan, yozmaydigan, chizmaydigan ijodkorni topib bo'lmaydi.

Ozərbayjon ma'rifatparvari Mirza Fatali Oxundov yozganidek: "Vatanparvar kishi o'z vatani kamoloti yo'lida, o'z xalqiga muhabbati sababli jonini ham ayamaydigan insondir, xalqqa va vatani ozodligi, farovonligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir" [3]. Ammo vatanparvarlik o'z vatanini sevib o'zga mamlakatlarga nopisand bo'lish degani emas. Bunday vatanparvar xalqimga yaxshilik qilyapman deydi-yu o'zi chuqur his etmagan holda o'zga xalqlarni o'z xalqiga yov qilib qo'yishi mumkin. Bunday hodisalar o'tmishda ko'p sodir bo'lgani uchun allomalar o'z zamondosh vatandoshlarini ogohlantirib o'tganlar. K.Gelvitsen shunday yozadi: "Vatanga muhabbat butun dunyoga muhabbat bilan uyg'unlashib ketadi. Bilim nuridan bahramand bo'lgan xalq, bu bilan yonberidagi qo'shnilariga ziyon keltirmaydi. Aksincha, davlatlar qanchalik ma'rifatli bo'lishsa, birlari bilan til topishib, yanada qudratliroq kuchga aylanadilar, olamshumul tafakkur yanada ravnaq topadi" [4]. Biroq milliy, irqiy va diniy egoizm mansublari o'z vataniga xizmat qilish shiori ostida o'zga xalqlar hayotiga rahna soldigan fikrlarni ijtimoiy tarmoqlarda bayon qilishdan tap tortmaydilar. Bunday chiqishlar aslida "Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish"dan boshqa narsa emas.

Taniqli madaniyatshunos A.Mavrulov egoistik vatanparvarlik yuzaga keltirayotgan illatlar xususida fikr yuritib, jumladan shunday yozadi: "Barchani tashvishga soladigan jihat shuki, ilm-fan taraqqiy etgani, kishilarda ziyolilik sifati oshgani, ma'rifatli dunyoni barpo etishning insoniyat uchun zarurlik darajasi ko'paygani sari urush olovi tobora kengayib bormoqda. Aslida aksi bo'lishi mumkin

emasmi? Nahotki qanchadan-qancha urushlar natijasida yuz bergan yo'qotishlar, vayronagarchiliklardan chiqargan xulosalarimiz, ularning oqibati haqidagi kino, teatr asarlari, yozilgan kitoblar, qilingan pand-nasihatlardan insoniyat xulosa chiqara olmasa!..[5]. Chindan ham millatidan qat'iy nazar ilm-fan yutuqlarini insoniyat ezgu manfaatlariga xizmat qildirishni o'ylamaydigan kishilarni insonparvar ham, vatanparvar ham deb bo'lmaydi.

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

Vatanni sevish hissi biz uchun eng tabarruk tuyg'udir. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz yillar davomida yashab kelgan ushbu makon, ro'yi zamin har doim go'zal tabiati, moddiy-ma'naviy boyliklari, mehnatkash xalqi bilan butun dunyoni o'ziga rom etib kelgan. Shuning uchun bu zaminga egalik qilish barcha yaqin va uzoq "qo'shnilar"ning orzusi bo'lgan. Buning oqibatida biz milliy davlatchilik tariximizning qariyb uchdan bir qismini mustamlakachilikda o'tkazishga majbur bo'ldik. Endi oqilona vatanparvarlik bilan yashash davri keldi. Bu ko'hna tariximizda ko'p bor hassamizni yo'qotdik. Buning natijasida ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-allomalarimiz yaratgan tamaddunlarni, milliy madaniy merosni qo'ldan boy berdik. Bugun ko'hna tariximizni chuqur, teran, xolis o'rganish payti keldi. Hozir uning shonli, muvaffaqiyatlar bilan bezangan, ayni paytda uzoq vaqtlar boy berilgan moddiy-ma'naviy boyliklarimiz, amalga oshmay qolgan kashfiyotlarimiz, qo'ldan chiqargan imkoniyatlarimiz haqida ochiq gapiradigan, ularning o'rmini to'ldiradigan davr keldi. Vatanparvarlik buyuk fazilat. Biz bor ekanmiz, har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda vatanparvarlik degan vijdon suvi oqadi. Vatanni unutgan har bir inson o'rmonda yoki sahro-cho'llarda adashgan, shamchirog'ini yo'qotgan kishi kabi bir umr mehrga, muhabbatga zor, o'zi mansub xalqqa muhtoj bo'lib yashaydi. U jismoniy jihatdan tirik, ammo ma'nan o'likdir.

"Qayerda yashash qulay bo'lsa, o'sha joy men uchun Vatan!" tushunchasini hayotiy tamoyiliga aylantirib olganlar esa xudbin kimsalardir. Ular fidoyi xalqimiz yaratgan qulayliklardan faqat bepul foydalanishni ko'zlaydilar. Sal qiyinchilik yuzaga kelsa, eldan burun boshqa joyga juftakni rostlaydilar. Ularga Vatan oldidagi burch, qarzdorlik hissi butunlay begona.

Vatanni sevmok, unga sadoqat bilan xizmat qilish, tashvishli va quvonchli kunlarida hamdard va sherik bo'lish har bir insonning ma'naviy-axloqiy mas'uliyati bo'lmog'i kerak. Buyuk alloma Alixonto'ra Sog'unuy "Biz O'zbekiston xalqi, haqiqatda shu Vatan ahllarimiz. Inson nasli yaratilib, yer ustiga qadam qo'ygan kundan boshlab, bizning ota-bobolarimiz shu O'zbekiston o'lkasida yashab kelgan ekanlar, shu kunlargaicha tiriklarimizni bo'ynida ko'tarib, o'liklarimizni qo'ynida saqlamishdir. Bu O'zbekiston Vatanimizning bir qatlami biz - o'zbek xalqi ota-bobolarimizning suyaklari bilan ko'tarilmishdir. Demak, bo'ynida ko'targan, qo'ynida saqlab, oq sut berib tarbiyat qilgan bu O'zbekiston – Turkiston bizning o'z ona Vatanimizdir".[6]

Allomalarimiz ta'kidlaganidek, kimki o'z Vatani sevmasa, hech nimani seva olmaydi. Vatanni sevish har doim insonni haqiqiy jasoratga undashi, Vatan yo'lida kerak bo'lsa, jonini qurbon qilishga hozir ekanini amalda isbotlab turishi zarur. Har birimizning fuqarolik mazmun-mohiyatimiz ham, o'zligimiz ham tarbiya va axloqimizda mujassam bo'lgan turli fazilatlarda aks etadi. Biroq ularning orasida eng maqbuli, eng zaruri Vatanga sadoqatli bo'lish fazilatidir.

Vatanparvarlik tuyg'usini jonimiz va qonimiz, ruhiyatimizga jo qilib, singdirib yuborishimiz uchun, eng avvalo, Vatanning yaqin va uzoq tarixini bilishimiz kerak. Haqiqatan ham, Vatanni sevish uchun uning tarixini, yorug' va qorong'i kunlarini bilish, eng muhimi, undan to'g'ri xulosalar

chiqarish zarur. Dunyoda birorta davlat yo‘qki, uning tarixi faqat zafarlardan iborat bo‘lsin. Yurtning tinchlikda ham, nochorlikda ham birdek sevishtir haqiqiy vatanparvar shaxsning olijanob sifati bo‘lmog‘i kerak.

Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Vatan portreti chizilgan badiiy asarlarni o‘rgatish katta ahamiyatga ega. Ammo shu paytgacha Vatan portretini mukammal chizish hech bir shoirlarga muvassar bo‘lmagan. Biz G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzolarning O‘zbekiston haqidagi go‘zal she‘rlarini o‘qiganmiz, yod olganmiz, qo‘shiq qilib kuylaganmiz. Ayniqsa, Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she‘ri vatan haqidagi eng buyuk asar sifatida xotiramizda saqlanadi. [7] Ularda O‘zbekistonning ta‘rifi turli tomondan yoritilgan. Har biri Vatan tarixiga oid ma‘lumotlarga suyanib ijod qilingan. Ularning ta‘riflari bizga vatan manzaralaridan so‘zlaydi. Ularning misralaridagi eslatmalarga e‘tibor bersak, tarix saboqlari yodimizga keladi. “Adabiyot gazetasida” Ikrom Usmon taxallisi bilan ijod qiluvchi havaskor shoirning “O‘zbekiston o‘lkamsan” she‘ri bosilgan. Yurt ta‘rifini vatan sevgisi tuyg‘ulari bilan bayon etgan ushbu she‘rda avvalgi shoirlar asarlarida e‘tibordan chetda qolgan sifatlar qalamga olinganiga guvoh bo‘lamiz.

Yer Sharidan tekkan mo‘jaz ulushim,
Senda yashar baxtli xalqim, ulusim,
Senda ekan mavlud, o‘shib-unishim,
Ko‘rkam yurtim O‘zbekiston o‘lkamsan. [8]

Muallif vatanimizning jahon xaritasidan joy olgan hozirgi maqomini ko‘z oldiga keltirib, “Yer Sharidan tekkan mo‘jaz ulushim”, deydi. Bu bilan Markaziy Osiyo, Ulug‘ Turkiston barcha turkiy ellar uchun yagona vatan bo‘lgan bo‘lsa ham, bugun dunyo hodisotlari tufayli katta kurashlar taqsimotida hozirgi zamin bizlarga nasib etganligiga ishora qiladi. Shu mo‘jaz mamlakat dunyoning katta-katta davlatlari safida o‘z nifuzi va salohiyatiga ega ekanligidan g‘ururlanadi.

Shoir O‘zbekistonning Osiyo, Yevropa va jahon mamlakatlari bilan hamkorlik olib borishda ilg‘or bo‘lib, juda ko‘p umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan tashabbuslar bilan chiqqanligiga urg‘u beradi:

Sensan qadim Osiyoning gavhari,
Do‘stlik, tinchlik karvonining sarvari,
Ilmu hunar, ma‘rifatning zargari,
Ulug‘ yurtim O‘zbekiston o‘lkamsan.

Bugun muallif yurtida yashovchi hozirgi yosh avlod vatan tuprog‘ining naqadar saxiyligini esda tutmog‘i kerakligini quyidagicha madh etadi:

Senda pishar meva-cheva a‘losi,
Tanga davo tog‘laringning havosi,
Har bir go‘shang rohat, lazzat ma‘vosi,
Obod yurtim O‘zbekiston o‘lkamsan.

Ekologik muammolar dunyoda ko‘payib borayotgan hozirgi vaziyatda yurt aholisi suv qadriga yetishi lozimligini yodga soladi va vatan daryolariga iltijo qiladi:

Sersuv bo‘lsin daryolaring, soylaring,
Dala-dashting - ro‘zqi ro‘zga boylaring,

Ko'z-ko'z qilar bog'laring chiroylaring
Bekam yurtim O'zbekiston o'lkamsan.

Shoir uchun Vatan tuprog'i qanchalik aziz bo'lsa, unda yashovchi insonlar shunchalik mo'tabar ekanligiga e'tibor qaratib, avvalo hayot davomchilari bo'lgan xotin-qizlarni maqtaydi, ularni e'zozlash kerakligiga ishora qiladi:

Qiz-juvoning er-yigitga ilhomchi,
Mayin, shirin ovozlari oromchi,
Har biri ham nasling uchun davomchi,
Zebo yurtim O'zbekiston o'lkamsan.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda bilim olishga katta e'tibor qaratilayotganligidan zavqlangan muallif:

Har qadamda – maktab, ta'lim maskani,
Yo'llar ochiq bilim olib o'sgani,
Dahozorim, ko'ngillarning sevgani,
Dono yurtim O'zbekiston o'lkamsan.

Keyingi misralarda esa Vatanimiz viloyatlarning kundan kunga obodlashib, turmush go'zallashib borayotganligidan faxrlanish tuyg'ulari barq urib turadi:

Rang barang o'n uch viloyat senda jam,
Go'zallikda har biri ham muhtasham,
Husni chiroyingdan hayratda olam,
Sohir yurtim O'zbekiston o'lkamsan.

Shoir O'zbekiston hukumatining hozirgi dono siyosati ko'pmillatli jamiyatimizni tinch va farovon yashashini ta'minlash, xalqni rozi qilish ekanligini alohida ta'kidlab, ko'pmillatli Respublikamizda xalqlar do'stligi huquqiy jihatdan to'la ta'minlanganligini yodimizga soladi:

Qoraqalpoq hududi keng mamlakat,
Xalqi – turkiy qavmlardan bir elat,
O'zbek, tojik bilan yashar badavlat
Serdo'st yurtim O'zbekiston o'lkamsan.

She'rda respublikamizning har bir shahri, viloyati o'ziga xos muhabbat bilan ta'riflanadi. Ularning o'z maqom martabasi, qadri ulug'lanadi:

Hazrat Toshkent Sharq yulduzi – yuraging
Samarqandu Buxorodir bezaging,
Nukus, Urganch, Farg'onadir yuksaging,
A'lo yurtim O'zbekiston o'lkamsan.
Qarshi, Jizzax, Gulistonu Andijon,
Namanganu Termiz jannatdan nishon,
Xiva, Qo'qon, Shahrisabz jonajon,
O'ktam yurtim O'zbekiston o'lkamsan.

Agar diqqat qilinsa, she'r maktab o'quvchilari uchun mo'ljallanib yozilganligiga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun bo'lsa kerak unda O'zbekiston tabiatiga xos bo'lgan manzil-makonlar

birin–ketin tilga olinadi. Bunda vatandan faxrlanish zamirida nimalar yashiringanligini izhor etish g‘oyasi bo‘y ko‘rsatib turadi:

Chimyon, Oloy, Chotqol bilan Bobotog‘,
Qorli, suvli rizqing erur serbulog‘,
Sahrolaring zarning koni beadog‘,
Ma‘dan yurtim O‘zbekiston o‘lkamsan.

Keyingi mislarda she‘r muallifi vatanning moddiy boyliklari bilan birga boy ma‘naviy merosi mavjudligiga ham diqqatimizni tortadi:

Qaynarbuloq she‘riyating, san‘ating,
Maqomlaring – zakovating, savlating,
Jahon ichra zohir qilur shuhrating,
Zakiy yurtim O‘zbekiston o‘lkamsan.

She‘r-qasida oxirida shoir o‘z farzandlik burchini his qilgan holda aziz vatanini kuylashdan, sevishdan baxtiyor ekanligini shunday ifodalaydi:

Vatanim – sen, duo qilib qolgayman,
Ikrom aylab noming tilga olgayman,
Hofiz bo‘lib madhing kuyga solgayman,
Ona-yurtim O‘zbekiston o‘lkamsan.

Bu kabi publitsistik asarlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalgi asarlarga hamohang tarzda muhim manba bo‘la oladi.

Xulosalar (Conclusions)

Bu dunyoda Vatan, millat to‘g‘risida aytiladigan so‘zning mas‘uliyatidan ham kuchliroq narsa bo‘lmasa kerak.

Yuqorida keltirilgan she‘rning ijtimoiy-ma‘naviy, tarbiyaviy-mafkuraviy, axloqiy ahamiyati bor. Uni o‘qiganda har birimizda vatanparvarlik tuyg‘u yana bir bor uyg‘onadi.

Demak, shoirlar yurti madh etganda o‘tmish bilan bugunning farqini taqqoslash asosida xulosa chiqarishga yordam beradigan, odamlarning mudrab yotgan ongi va qalbini tozalaydigan, ruhiyatini musaffo tuyg‘ular bilan boyitadigan bilimlarni nazm ipiga tizadilar.

Bu bilan vatanparvarlik – har birimizning tug‘ilib o‘sgan, kindik qonimiz to‘kilgan Vatan oldidagi farzandlik, fuqarolik burchimiz, ma‘naviy mas‘uliyatimiz, uning taraqqiy etishi, yanada gullab-yashnashi uchun fidoyilik hissini tuyish kabi ko‘plab ma‘no-mazmun beradigan tushuncha ekanligidan ta‘lim beradi.

Shu bilan birga Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevish, u to‘g‘risida she‘r yozish, qo‘shiq kuylash, chiroyli gapirishgina emasligini balki, bu tuyg‘u ostida shu Vatan ravnaqi, moddiy-iqtisodiy va ma‘naviy yuksalishi uchun mehnat qilish lozimligini yana bir bor eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

- [1] Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – B. 32.; Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.289-296.
- [2]. Aforizmlar. To'plovchi E. Sultonov. –T.: “Sharq-Ziyo zakovat” nashriyot-matbaa uyi, 2019. – B. 206.
- [3]. Tafakkur gulshani. –T.: G'afur G'ulom., 1978. B. 145.
- [4]. Tafakkur gulshani. –T.: G'afur G'ulom., 1978. B. 186.
- [5] Mavrulov A. Vatan nima? Vatanparvarlik-chi? // “Yangi O'zbekiston” gazetasi. 2024 yil 28 fevral.
- [6]. Mavrulov A. Vatan nima? Vatanparvarlik-chi? // “Yangi O'zbekiston” gazetasi. 2024 yil 28 fevral.
- [7] To'ychiyeva S. Vodiylarni yayov kezganda. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2018. B.166.
- [8]. Ikrom Usmon. O'zbekiston o'lkamsan. // Adabiyot gazetasi. 2024 yil, 20 may. № 8-10.